NAMANGAN
DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2024-YIL 4-SON

***Bosh muharrir:*** *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
***Mas'ul muharrir:*** *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
***Mas'ul muharrir o'rinbosari:*** *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

**TAHRIR HAY'ATI**

***Aniq va tabbiy fanlar:*** *akad. K.Tojibayev, akad. A.To'rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova.*

***Texnika fanlari:*** *t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. Abdunazarov.*

***Ijtimoiy gumanitar fanlar:*** *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*

***Pedagogika fanlari:*** *p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O'.M.Asqarova. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, p.f.n., dots. G'.Nafasov, PhD. M.Asranboyeva, PhD. B.J.Urinov.*

***Filologiya fanlari:*** *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev*

***Texnik muharrir: R.Tursunov***

**Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy**.

***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** **(**0369) 227-27-21,

***Email***: Info@namspi.uz

*"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami ( ISSN): 2992-9008. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 4-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 12-avgust 2024-yildagi 8-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma **№ 08**). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2024**

## I. TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**UDK:** 37.014.3

# TA'LIM SIFATINI KVALIMETRIK MONITORING QILISH: MUAMMO VA YECHIMLARI

***Samadov Ulug'bek Sameyevich***
*Guliston davlat universiteti mustqil izlanuvchisi,*
*E-mail:* ulugbeksamatov078@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Jamiyatimiz har bir a'zosi hayotiga va iqtisodiyotga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarini ommaviy joriy etilishi uchun sharoit yaratishni, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Su asosida ta'lim-tarbiya tizimini nazorat qilish va baholashda kvalimetrik-monitoringning o'rni, hamda uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi miqdoriy o'zgarishlarni dinamikasi, faoliyat natijalarini yaxlit-lash, tarbiyalovchi hamda tarbiyalanuvchilarni sifat va samaradorligini tahlil qilish kabi ta'lim-tarbiya sohasining umumiy faoliyatini tashxis qilishdagi ahamiyati ochib berilgan hamda undan olingan natijalar keltirilib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Kvalimetrik monitoring, sifat, tarbiya, ma'naviyat, axloq darajasi, pedagogik hamkorlik.*

***Аннотация:*** *Оно создаст условия для массового внедрения компьютерной техники и информационных технологий в жизнь и экономику каждого члена нашего общества, обеспечит конкурентоспособность экономики нашей страны на мировом рынке. Роль качественного мониторинга в контроле и оценке системы водного образования, а также динамика ее количественных изменений в образовательном процессе, интеграция результатов деятельности, анализ качества и эффективности работы педагогов и учащихся. Раскрывается диагностика общей деятельности сферы образования и приводятся полученные от нее результаты.*

***Ключевые слова:*** *Квалиметрический мониторинг, качество, образование, духовность, нравственный уровень, педагогическое сотрудничество.*

***Annotation:*** *It will create conditions for the mass introduction of computer technology and information technology into the life and economy of each member of our society, will ensure the competitiveness of our country's economy in the world market. The role of quality monitoring in the control and assessment of the water education system, as well as the dynamics of its quantitative changes in the educational process, the integration of activity results, analysis of the quality and effectiveness of teachers and students. The diagnostics of the general activity of the education sphere is revealed and the results obtained from it are given.*

***Keywords:*** *Qualimetric monitoring, quality, education, spirituality, moral level, pedagogical cooperation.*

## KIRISH

Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimini monitoring qilish transfor-matsiyasi endilikda takomillashib borayotgan jarayonlardan hisoblanadi. Mamlakatimizda pedagogik monitoring tajribasini oshib borishi ta’lim soha-sidagi muammolarni aniqlash, ta’lim-tarbiya jarayonidagi miqdoriy o‘sish dinamikasi, faoliyat natijalarini yaxlitlash, ta’lim beruvchi va ta’lim oluv-chilar samaradorligini tahlil qilish kabi umumiy faoliyatni nazorat qilish hamda boshqaruvning innovatsion tizimini yo‘lga qo‘yish tendensiyalariga imkoniyat ochib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunda “Ta’lim tizimida monitoring-ta’limning holatini, ta’lim natijalari-ning o‘zgarish sur’atlarini, ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish va kuzatish-ni, shuningdek ta’lim oluvchilarning kontingenti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini tahlil etishni o‘z ichiga oladi” deya belgilab qo‘yilgan. 2017-2021 yillarda besh muhim yo‘nalish bo‘yicha rivojlantirishga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining 4.4-bandida ham «... ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish; ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va

innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish...» vazifalari ta'lim va fan sohalarini rivojlantirishning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan edi. Mavjud vazifalarni ijrosini ta'minlash va tahlil qilishda monitoring va kvalimetrik yondashuv-larsiz natijadorlikni aniq va haqqoniylik asnosida baholab bo'lmaydi. Lekin, bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida baholash va o'lchash muammolari kam rivojlangan bo'lib, bu esa pedagogika sohasida kvalimetrik monitoring bo'yi-cha tadqiqot ishlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash – jamiyatning ta'lim subyektlari salohiyatini kuchaytirish, jamiyatga ma'naviy-axloqiy sifatga ega, yetuk va malakali mutaxassislarni yetkazib berish ehtiyoji tufayli yangicha zamonaviy yondashuvni talab etadi.Umumiy o'rta ta'limda ma'naviy tarbiya jarayonining sifati, uni yangi bosqich-ga olib chiqish va baholash masalalari zamonamiz yoshlarining mustahkam tarbiya topishi-da muhim hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini sifat jihatdan baholashni "kvalimetrik-monitoring" yondashuvi asosida tashkil etish masalasi – doimiy an'anaviy baholash turi sifatida qo'llab kelingan sifatiy baholashni miqdor ko'rsatkichlari bilan belgilash va tarbiyaviy ishlar sifatini miqdoriy o'lchash metodikasini ishlab chiqish orqali baholashni taqozo etadi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.

Kvalimetrik monitoring olib borishdan maqsad ta'lim-tarbiya sifatini baholash tizimiga xizmat qilish va tarbiya sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Pedagogik hamkorlikni kvalimetriyalashdan asosiy maqsad ham - tarbiyaviy maqsadlarga erishganlik darajalarini aniqlash va tahliliy baholashdan iboratdir. Ya'ni, ma'naviy tarbiyaning uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga mosligini kvalimetrik metodlar orqali aniqlash asosida maqsad va faoliyat birligini nazorat qilish imkoniyati ochiladi. Bu eksperimental tadqiqot sifatida bir qancha shunga doir ilmiy izlanishlarni o'rganish va tahlil qilish vazifasini yuklaydi. Shu maqsadda biz ham respublikamizda va xorijda mazkur masala-ga doir bajarilgan ishlarni o'rganib, tahlil qilib chiqdik.

Xorijda mazkur masalaga doir bajarilgan ishlarni oʻrgangan mashhur kvalitolog V.S. Cherepanov kvalimetrik monitoring konsepsiyasini quyidagi asosiy qoidalarini belgilab bergan:

1. Har qanday taʼlim tashkilotida taʼlim sifatining kvalimetrik monitoringi keng qamrovli boʻlishi hamda umumiy va kasbiy taʼlim sifatining barcha tizimni tashkil etuvchi omillarini hisobga olishi kerak.

Yaʼni:

– taʼlimning maqsadi va mazmuni;
– talaba va taʼlim muassasasining modellari,
– taʼlim texnologiyalari;
– pedagogik nazorat va psixodiagnostika;
– pedagogik prognozlash va taʼlim standartlari va boshqalar.

2. Integratsiyalashgan kvalimetrik tizimni yaratishning yagona maqsadi-taʼlim sifatini nazorat qilishdir. Bu esa nafaqat oʻquvchi shaxsini shakllantirish (oʻquvchi, talaba, bakalavr, magistr) balki, ularni maʼnaviy jihatdan barqaror, yuksak darajada umumiy madaniyatga ega, maxsus (kasbiy) bilim, koʻnik-malarga, tadqiqotchilik qobiliyatga shuningdek, insonparvar shaxs maqomiga ega professional mutaxassisni tayyorlash nazoratini yoʻlga qoʻyishdir.

3. Taʼlim oluvchilarning malakasi bilimlar majmui bilan belgilanadi, shuning uchun ham ularning umumiy taʼlim sohasidagi koʻnikmalari, shuningdek, aniq kelajakdagi kasbiy soha boʻyicha maxsus bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish darajasini baholab borish zarur.

4. Taʼlim sifatini kompleks kvalimetrik monitoring tizimi koʻp mezonli baholash va diagnostikalash imkoniyatlari bilan oziqlanadi.

Pedagogikaning qaysi sohasi boʻlishidan qatʼiy nazar yaʼni, u tarbiyaviy faoliyatini, tadqiqotchilikka yoʻnaltirilgan faoliyat boʻladimi, pedagoglarning kasbiy kompetentligi bilan bogʻliq holat boʻladimi, agarda ular qanday samara berayotganligi doimiy monitoring qilinmasa va oqilona baholab borilmasa bunda tizim oʻz maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun ham, monitoring va kvalimetriya tushunchalari mohiyatiga koʻra bir xil maqsad asosida birlashadi va bir-birini toʻldiradi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Hozirgi paytda ta’lim jarayonini monitoring qilishning elektron tizimi rivojlanib bormoqda. Pedagogik kvalimetriyalash ishlarini monitoring qilish orqali yaxlitlash eng maqbul yo‘l bo‘lib, ayniqsa tarbiyaviy ishlar va o‘quvchilarning tarbiyalanganlik daraja-sini kvalimetriyalash ko‘p mezonli o‘lchov bo‘lganligi sababli ta’lim muassa-sasi nazoratida hamkorlik asosida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar mexani-zmlarining sotsio-monitoringi, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajalarini sinflar kesimida ichki monitoringini yuritish va baholash orqali kvalimetrik monitoringni tashkil etish mumkin. Quyida kvalimetrik monitoring olib borishning ayrim muammolarini ajra-tib ko‘rsatish kerak: tarbiya ishlarining mavjud shakl va uslublari samaradorligini aniqlash; tarbiyalashning zamonaviy texnologik vositalari va uning talablariga mosligini baholash; psixologik, sotsiologik, pedagogik yo‘nalishdagi monitoring xizmatlarini joriy qilish zarur; faoliyat samaradorligini har tomonlama baholash va ta’lim tizimlarini o‘z-o‘zini rivojlantirish monitoringini ishlab chiqish.

Mamlakatimizda kvalimetrik monito-ring bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish hozircha olimlarimiz nazaridan biroz chetda. Ta’lim jarayonini kvalimetrik monitoringini olib borish amaliyoti bo‘yicha deyarli texnologik imkoniyatlariga ega bo‘ldik va o‘zimizda sinab ko‘rdik. Demak, biz bugungi kunda mazkur platforma orqali ota-ona sifatida farzandimizni o‘zlashtirish darajasini sinf o‘quvchilariga nisbatan o‘sish dinamikasini hamda har bir fan kesimida egallab turgan reytingini kuzatish va shu orqali farzandimizning maktabdagi salohiyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldi

**XULOSA**.Har qanday faoliyatning sifatli tashkil etilishi uning natijador-ligini maqsadga muvofiqlik parametrlariga mos kelishi bilan ahamiyatlidir. Demak, hamkorlik kuchlarini birlashtirish asnosidagi maqsad + faoliyat mazmuni (mohiyati) + natija va samaradorlik bu – umumiy ma’naviy tarbiyaga safarbar etilgan kuchlarning uzilmas zanjiridir. Tarbiya jarayoniga kvalimetrik yondashuv bu – ma’naviy-axloqiy ishlar sifati va samaradorligini aniqlash hamda takomillashtirishning muhim bosqichidir. Ta’limda kvalimetrik monito-ring – ta’lim tashkiloti tuzilmasining maqsad va faoliyati birligi, ta’lim beru-vchilarning malaka talabi darajalariga mosligi, ta’lim oluvchining bilim-donlik

(tarbiyalanganlik) darajalarini aniqlash va samaradorligini oshirishdan iboratdir. Yanada umumlashtiradigan boʻlsak, pedagogikada monitoring oʻtkazish va kvalimetriyalashdan maqsad bu - pedagogik jarayonlarning natijadorlik koʻrsatgichlarini belgilash, tahlil qilish, uning miqdoriy oʻzgarish-lari, oʻsish surʼati haqida yakuniy maʼlumotga ega boʻlish shuning-dek, samaradorlikni sifatiy hamda miqdoriy baholashni yoʻlga qoʻyishdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida" PF-4947-sonli Farmoni. - https://www.lex.uz/acts/3107036
2. Abdullayeva Gulchexra Abdullajonovna, Allayarova Soliha Narzulloyevna. Taʼlim muassasasidagi tarbiya / Воспитание в учебном заведении. 2021, 12 (109).63-70 betlar.
3. Abdullayeva G.A. (2021) Oʻquvchilarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasini baholashning ayrim masalalari // Academic research in educational sciences. №NUU Conference 1.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarning-ma-naviy-axloqiy-tarbiyasini-baholashning-ayrim-masalalari (дата обращения: 02.12.2021).
4. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.
5. Нафасов, Г. А., & Едгоров, Д. Д. (2023). Развитие когнитивной компетентности учащихся посредством преподавания элементарной математики. Международный научно-практический электронный журнал «моя профессиональная карьера». Выпуск № 52 (том1)(сентябрь, 2023). Дата выхода в свет: 30.09. 2023., 143.
6. Nafasov, GA (2023). Suv omborlarining suv o'tkazuvchi traktining past bosim zonasini aniqlash. Genius ombori , 25 , 28-32.
7. Abdurashidovich, NG (2021). Boshlang'ich matematikani o'qitish jarayonida oliy o'quv yurtlari talabalarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari. Evropa molekulyar va klinik tibbiyot jurnali , 8 (1), 789-806.
8. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. Bulletin of

Gulistan State University, 2020(2), 12-17.

9. Nafasova, G., & Pardaveva, E. (2023). Boʻlajak fizika oʻqituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishda samarali fizika oʻqitish metodlari. Евразийскийжурнал математической теории и компьютерных наук, 3(4), 50-53.

10. Abdurashidovich, N. G. Requirements for the selection of content for heuristic tasks in the teaching of elementary mathematics to future mathematics teachers.

11. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). Изучение интегрирования биномиальных. Research and education, 205.

12. Kengash, J., & Abdurashidovich, N. G. (2023). To approximate solution to a problem of filtration theory for small values of TIME. Texas Journal of Engineering and Technology, 19, 32-37.

13. Abdurashidovich, N. G., Tagayevich, D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2023). The Use of Technology in The Approximation of Didactic Units in The Training of Future Mathematics Shooters on The Basis of Innovative Education. Genius Repository, 24, 34-38.

14. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 229-233.

## O'QUV JARAYONIDA O'ZLASHTIRA OLMASLIK: SABAB VA OQIBATLAR

***Dilfuza Ibragimova***

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'quvchilarni o'quv jarayonidagi o'zlashtira olmasligiga ta'sir etuvchi ekzogen va endogen omillar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *ekzogen, endogen, o'quv, fikrlash, pedagogik ta'sirlar, psixofiziologiya, tibbiy qoloqlik*

***Аннотация.*** *В этой статье представлена информация об экзогенных и эндогенных факторах, влияющих на неспособность учащихся к усвоению в процессе обучения.*

***Ключевые слова:*** *экзогенные, эндогенные, образовательные, мыслительные, педагогические эффекты, психофизиология, медицинская отсталость*

***Annotation.*** *This article presents information about exogenous and endogenous factors that affect the inability of students to master the educational process.*

***Key words:*** *exogenous, endogenous, educational, thinking, pedagogical influences, psychophysiology, medical backwardness*

Maxsus psixologiya, neyropsixologiya, psixofiziologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'quvchilarning o'zlashtira olmaslik sabablarini odatda ikki sabab bilan izohlaydilar, ular muhit (ekzogen) va biologik (endogen) omillar.

Neyropsixologiya, psixofiziologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib muhit (ekzogen) omillarni o'zlashtirishga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash imkonini beradi, ushbu omillar bolaga tizimli va kuchli ta'sir qilganda uning o'qishida va o'zlashtirishida qiyinchiliklar yuzaga keladi:

Bu omillarni quyidagicha izoxlash mumkin.

**1. Ijtimoiy-madaniy omillar:**

- Oilaning ijtimoiy va moddiy nochorligi;
- Bolani maktabga tayyorlash jarayoniga befarqlik;
- Uzoq davom etgan psixik deprivatsiya

Bugungi kundagi o'quvchilar ko'pincha bir tomonlama rivojlanish bilan cheklanib qolishyapti. Faqatgina bir sohaga chuqur yo'naltirish boladagi ayrim funksiyalarning boshqalarining hisobiga jadal rivojlanishiga ko'maklashishi yoki qandaydir funksiyaning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Masalan, kattalar ko'pincha bolada muloqotchanlikni oshirishga hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor beradilar, ammo xarakatlarni o'zlashtirish malakasi, vizual-harakatga moslik, grafik ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining rivojiga deyarli e'tibor qaratmaydilar. Xattoki shahardan uzoqroq xududlarda voyaga yetgan bolalar shahar bolalariga qaraganda xarakatli va qoidali o'yinlarni ko'proq o'ynaydilar lekin syujetli va ijtimoiy o'yinlarga kam urg'u beriladi. Ko'plab oilalarda bolalar erta kundan o'zlarini o'zlari uddalashlariga to'g'ri kelyapti natijada ular bilan kam muloqot qilinganligi, ularning bilimlari bilan ortiqcha qiziqmaslik yoki orzulari haqida, qiziqishlari haqida suhbatlashmaslik ham keyinchalik ularni maktab dasturini o'zlashtirishlarida muammolar tug'dirishi mumkin.

**2. Pedagogik omillar (maktab xavf-xatarlari omillari - MXO):**

- pedagogik ta'sirlarning yetarli emasligi;

- keragidan ortiq o'quv yuklamasi, o'quv jarayonining ortiqcha intensivlashtirilishi;

- o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan metodika va texnologiyalarning bolalarning yoshiga mos kelmasligi;

- o'quv jarayonining nooqilona tashkil etilishi;

- bolalar jamoasidagi noqulay muhit;

- o'qituvchining past kasbiy darajasi va hokazo.

Bu omillar faqat o'quv jarayonining muvaffaqiyatliligi va samaradorligiga emas, balki bola o'sishi, rivojlanishi va sog'lig'iga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ularning bolaning organizmiga salbiy ta'sirining kuchi shunda namoyon bo'ladiki, ularning majmuaviy, tizimli ta'siri uzoq vaqt (10-11 yil davomida) saqlanib qoladi.

**3. Tibbiy qoloqlik, bolalarning psixofizik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.**

Bunda (endogen) omillar sifatida quyidagilarni ajratib o'tish mumkin:

- homiladorlik va tavallud davriga oid patologiyalar;

-erta bolalik davrida yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar, surunkali kasalliklar;

- genetik moyillik va irsiy omillar;

- oliy psixik funksiyalarning shakllanmaganligi.

Bugungi kunda garchi tibbiyot ancha jadal rivojlangan bo’lsada maktablarda o‘quvchilarning salomatligida jiddiy muammolar paydo bo’lmoqda. Masalan dunyo bolalarning 90% dan ortiqrogida sog'lig’i bilan bog’liq turlicha og'ishlarni namoyon bo’layotganligini ko’rish mkmin. Buning oqibatida esa o’qishi va o’zlashtirishida turli darajadagi qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan o'quvchilar soni ortmoqda. Ma’lumki turli kasalliklar bola tanasini sustlashtiradi, uning asab tizimining holatini yomonlashishiga olib keladi. Natijada bunday sustlashgan, tez-tez kasallanuvchi bolalarda odatda xafsalasizlik va e’tiborsizlik bilan ishlash qobiliyati undagi kuchli charchoq bilan tavsiflanadi. Odatda bunday bolalar topshiriqlarni bajarishga o’z diqqat va e'tiborlarini jalb qila olmaydilar, oson chalg'iydilar, bu esa, ayniqsa, boshlang'ich bosqichlarda o‘qish jarayonidagi o’zlashtirish bian bog’liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ontogenezning turli bosqichlarida o‘qishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi turli omillarni sabab qilib keltirish mumkin. Masalan o’smirlik davriga kelib biologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi, jinsiy yetilishning kuchayishi, tanqidiy fikrlashning ortishi hamda o’z “Men” iga bo’lgan bahoning ortishi o’qish jarayoniga ta’sir ko’rsatsa, boshqa davrlar uchun esa psixologik va ijtimoiy omillar birinchi o‘ringa chiqadi.

Ta’lim olish jarayonida o’quvchilar uchraydigan qiyinchiliklar ularning yosh va rivojlanish xususiyatlariga mos keladigan omillarga bog’liq bo’ladi. Ta’limning boshlanishi va o’smirlik davrlarida fiziologik jihatlar (sog’liq, rivojlanish sur’ati) muhim rol o’ynaydi, qolgan bosqichlarda esa psixologik (motivatsiya, qobiliyatlar) va ijtimoiy (oila, o’quv muhiti) jihatlar ustunlik qiladi."

"Ko’plab mutaxassislar ayrim hollarda ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarning o’zaro ta’siri ham o’quv jarayonidagi turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini ta’kidlaydilar. Biologik yoki muhit omillarining ustunligi o’qishdagi qiyinchiliklarning og’irligini va ularni kompensatsiya qilish imkoniyatlarini belgilaydi. Hozirgi paytda bu omillarning o’zaro ta’siri, ayniqsa bolaning ontogenezining erta bosqichlarida faol o’rganilmoqda.

Masalan, so’nggi 20 yil ichida o’qishdagi qiyinchiliklarning neyrobiologik asoslari izlab topilmoqda. Masalan, o’quv dasturlarini o’zlashtirish jiddiy qiyinchiliklar bilan bog’liq ekanligi aniqlangan-bu homiladorlik davrida

neyronlarning noto'g'ri migratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Bu esa miyada nutq zonalarining notipik rivojlanishiga, keyin esa eshitish, so'z mantiq xotirasi va nutqiy muammolarning pasayishiga, oqibatda o'qishdagi qiyinchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

T.V. Axutina va N.M. Pылayevaning ilmiy izlanishlarida o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga irsiy xromosoma o'zgarishlari ham sabab bo'lishi aytilib, bu haqida psixogenetik tadqiqotlar misol keltirilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, fonologik jarayonlar va analitik o'qish 6-xromosoma, so'zlarni (asosan butunlik) tanish esa 15-xromosoma bilan bog'liq. Shu bilan birga, o'qishdagi qiyinchiliklarning faqat 50% irsiy omillar bilan belgilanishi va bu bola rivojlanishida muhitning muhim rolini ko'rsatadi.

T.V. Axutina, N.M. Pылayeva, Yu.V. Mikadze, U.V. Ulyenkova va O.V. Lebedevalarning ta'kidlashlaricha,ijtimoiy muhitdagi erta ijtimoiy-madaniy deprivatsiya (mahrumlik) psixik rivojlanishning kechishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu funksional va organik darajadagi muammolarga olib keladi. **[1]**

Bolaning psixik neyrobiologik rivojlanishi muhit va irsiyat omillarining murakkab va uzviy o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi, bu esa rivojlanishning erta bosqichlari muhimligini ko'rsatadi.

"Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, psixik funksiyalar iyerarxik tuzilmalarni tashkil qiladi, va iyerarxiyaning har bir darajasida turli senzitiv davrlar mavjud. Bunda asosiy darajalarning senzitiv davrlari yuqori darajalardagidan oldinroq tugaydi. Bu esa yuqori iyerarxik darajalarning to'la qimmatli faoliyat ko'rsatishi, ularning pastki darajalarni shakllantirish uchun kerakli bo'lgan erta tajribaga bog'liqligini bildiradi. Marta Fara va hamkorlarining (2006) T.V. Axutina va N.M. Pылayeva ishlarida ta'kidlanishicha, erta ijtimoiy ehtiyojmandlik (deprivatsiya) psixik rivojlanishda funksional muammolarga olib keladi, va bunday bolalarda psixik rivojlanish jarayoni chuqur o'zgarishi mumkin. **[2]**

Ushbu tadqiqotlarda bolalarning o'zlashtirishlariga ta'sir ko'rsatuvchi endogen, ijtimoiy omillar o'rganilib ularning bola psixik rivojlanishga ta'sirini aniqlash asnosida "bolalar o'zlashtirmasligining neyrokognitiv profili" aniqlangan. Bunda hattoki bolaning qay darajada ta'minlangan oilada (o'rta va past ijtimoiy-

iqtisodiy darajadagi oilalar) o'sganligiga tayanib quyidagi 5 ta asosiy neyrokognitiv tizim baholangan:

1) Boshqaruv funksiyalari (milliy an'anada - dasturlash va nazorat funksiyalari):

a) ishchi xotira;

b) kognitiv nazorat (noadekvat stereotip reaksiyalarni to'xtata olish);

v) mustahkamlovchi stimullarni qabul qilish (darhol mustahkamlanishdan voz kechib, uzoq muddatli mukofotni afzal ko'ra olish);

2) Nutq tizimi;

3) Xotira tizimi;

4) Makon axborotini qayta ishlash;

5) Vizual axborotni qayta ishlash.

Tadqiqotlar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

- Nutq tizimi va xotira tizimida yaqqol ifodalangan farqlar aniqlandi;
- Ishchi xotira va kognitiv nazoratda ahamiyatli farqlar kuzatildi;
- Vizual va makon axborotini qayta ishlashda ahamiyatli bo'lmagan farqlar kuzatildi.

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy tajribalaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, oilaning ijtimoiy va moliyaviy ahvoli ham bolalarning nafaqat biologik rivoji balki psixik rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda bilishga oid va bilishga oid bo'lmagan stimullarning yetishmasligi natijasida ularda "toksik stress", ya'ni kattalarning munosib qo'llab-quvvatlanmasligi oqibatida paydo bo'ladigan qattiq, tez-tez takrorlanadigan yoki uzoq davom etadigan stresslarni yuzaga keltiradi deya ko'rsatishgan. **[1]**

Oiladagi muhit ta'siri ham o'z navbatida bolalarning xulqi va o'qishiga ta'sir qilishi bilan birga, ularning miya funksional rivojiga ham o'ziga hos tarzda ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda o'quv jarayonini ota-ona, maktab va o'quvchi hamkorligi asosida tashkillashtirish, o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirishiga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Ахутина, Т. В. Преодоление трудностей учения: нейропсихологический подход / Т. В. Ахутина, Н. М. Пылаева. – СПб.: Питер, 2008. – 320 с.

2.Безруких, М. М. Трудности обучения в начальной школе: причины, диагностика, комплексная помощь / М. М. Безруких. – М.: ЭКСМО, 2009. – 464 с

3. Брязгунов, И. П. Дефицит внимания с гиперактивностью у детей / И. П. Брязгунов, Е. В. Касатикова. – М.: Медпрактика, 2002. – 128 с.

4.Дубровинская, Н. В. Психофизиология ребенка: учеб. пособие / Н. В. Дубровинская, Д. А. Фарбер, М. М. Безруких. – М.: Владос, 2000. – 144 с.

5. Корсакова, Н. К. Неуспевающие дети: нейропсихологическая диагностика трудностей в обучении младших школьников / Н. К. Корсакова, Ю. В. Микадзе, Е. Ю. Балашова. – М.: Педагогическое общество России, 2001. – 160 с.

6.Лубовский, В. И. Специальная психология: учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений / В. И. Лубовский, Т. В. Розанова, Л. И. Солнцева; под ред. В. И. Лубовского. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 464 с.

7.Микадзе, Ю. В. Нейропсихология детского возраста : учеб. пособие / Ю. В. Микадзе. – СПб.: Питер, 2008. – 288 с.

8. Ориббоева, Д. Д. (2022). O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI TA'SIRI: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.8. 08.045 Oribboyeva Dilafro'z Dadamirzayevna NamDU Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 314-318.

9. Oribboyeva, D. D. (2019). STUDY OF SOCIAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 288-292. 12. Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. Journal of Critical Reviews, 7(2), 2020.

10. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 256-261.

11. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. Science and Education, 5(1), 287-291

12. Ibragimova, D. R. (2024). O'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'zlashtirmaslikni oldini oluvchi omil sifatida. Results of National Sciyentific Research International Journal, 3(1), 194-200.

# TA'LIMNING ASOSIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI; BOSHLANG'ICH TA'LIMNING KISHI HAYOTIDAGI AHAMIYATI

***Yuldasheva Maftuna Abduaziz qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*
*Yuldashevamaftuna2006@gmail.com, +998330232706*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola hozirda yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'limning dolzarb muammolari va yechimlari, boshlang'ich ta'lim-tarbiyaning kishi hayotidagi o'rni va ahamiyati, malakali pedagog, ota-onalarning bola tarbiyasiga befarq bo'lishlari oqibati haqidagi ma'lumotlar va fikrlardan iborat.*

***Kalit so'zlar***: *Mentolitet, kadr, malaka, mutaxassis, ixtisoslashtirilgan maktab, metod, 4K modeli va ko'nikmalari, zaiflik, zo'riqish, statistika.*

***Аннотация:*** *В данной статье собрана информация и мнения о возможностях, созданных в нашей стране, современных проблемах и решениях образования, роли и значении начального образования в жизни человека, квалифицированном педагоге, а также последствиях безразличия родителей к образованию детей.*

***Ключевые слова:*** *Менталитет, кадры, навык, специалист, профильная школа, метод, 4К-модель и навыки, слабость, стресс, статистика.*

***Annotation:*** *This article contains information and opinions about the opportunities created in our country, the current problems and solutions of education, the role and importance of primary education in a person's life, a qualified pedagogue, and the consequences of parents' indifference to child education.*

***Keywords:*** *Mentality, personnel, skill, specialist, specialized school, method, 4K model and skills, weakness, stress, statistics.*

***Qiyinchiliklarga yo'liqdik, buni yengib o'ta oldikmi, demak, yuksalishga umid bor!***

Ta'lim-tarbiya, ta'lim sifatining kuchli darajasi bu har bir xalqning, qolaversa har bir shaxsning mustaqil ekanligi, hamda, salohiyat darajasini belgilab beruvchi omildir. Inson bu dunyoga kelibdiki, albatta, o'zidan qandaydir iz qoldirishi, o'z yurti uchun samarali ish qilib, vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shishi kerak, albatta. Hozirgi kunda muhtaram prezidentimiz tomonidan biz yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlarning ko'pligi, hattoki, mana shu 2024-yilning "Yoshlarni va biznesni qo'llab quvvatlash" yili deb nomlanishi, bu bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilishi, pedagogika sohasining yanada rivojlantirilib, pedagoglar uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilishi juda katta imkoniyatlardandir. Lekin afsuski, hozirda hamma ham bu imkoniyatlardan samarali foydalana olmaydi. Nima sababdan hozirda yurtimizdan avvalgidek Ulug'beklar, Beruniy-u Navoiylar yetishib chiqmayapti, axir ular ham bizning yurtimizdan chiqqan buyuk shaxslar emas-mi? Chunki ular yashab ijod qilgan vaqtlarda bu kabi keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar bo'lmagan, hattoki qanchadan qancha shoirlarimiz ijod qilish uchun vaqtlari imkoniyatlari yo'qligidan urush vaqtlaridan ham samarali foydalanishgan. Buning o'zi biz uchun yetarlicha saboq bo'lishi kerak. Yurtimizdan yetuk kadrlarning yetishib chiqishi birinchi navbatda boshlang'ich ta'limga borib taqaladi, chunki boshlang'ich sinf chog'idan boshlab o'z qiziqishlarimiz bo'yicha keta olsak, oldimizga maqsad qo'yib o'sha maqsad tomon harakatlana olsakgina bizdan yetuk mutaxassis chiqishi mumkin.

Jahon tajribalariga nazar solgan holda shuni aytishimiz mumkin-ki, kelajak poydevori bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda qo'ldan kelgan barcha imkoniyatlarning yaratilishi va birinchi navbatda ularni bu imkoniyatlardan foydalangan holda puxta bilim olishga undash eng dolzarb vazifalardandir. Hozirda yurtimizda ta'lim sifatining pasayib borayotgani, maktab o'quvchilarining dars mashg'ulotlariga qiziqmasliklari hamda bu narsaga o'qituvchi va ota-onalarning yetarli darajada e'tibor bermasliklari kabi holatlar afsuski ko'paymoqda. Nima sababdan,

ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim sifati kuchli-ku, o‘zimizning umumta'lim maktablarimizda faqatgina maktabda berilgan bilimlar kamlik qiladi? Jahonda ta'lim sohasi bo‘yicha eng kuchli rivojlangan davlatlarga AQSH, Yag‘oniya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarni kiritib o‘tishimiz mumkin. 1872-yili Yaponiyada qabul qilingan "Ta'lim haqida" qonunda: "Yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan" ekanligi aytib o‘tilgan[1]. Yaponiya ta'lim-tarbiyasi bo‘yicha jahonning eng yuksak davlatlatlaridanda yuqori o‘rinlarda turadi. Qiyosiy pedagogika qo‘llanmasida Yaponiya ta'lim tizimi bo‘yicha atroflicha ma'lumotlar keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra: "Yaponiyada o’qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo’yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo’nalishi to’g’ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas. O’qituvchilar 4 yillik dorilfununlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o’quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi"[2]. Shu asnoda ko‘rinib turibdi-ki, yaponlarda ta'lim sifati, o‘quvchilarning bilim darajasi shu qadar kuchli ekanligidan, u yerning o‘qituvchilarni bilan bir qatorda o‘quvchilari ham o‘z ishiga, o‘qishiga befarq bo‘lishmaydi .Bolalar boshlang‘ich sinf chog‘idang‘idan boshlab o‘qishga juda katta e'tiborlarini safarbar etadilar. Ma'lumotlarda ko‘rsatilishicha: "Yapon o’qituvchisi o’quvchining eng yaqin maslakdoshi, maslahatgo’yi, murabbiysidir.O’qituvchi o’z o’quvchisi bilan xatto ta’til paytlarida ham aloqasini uzmaydi"[3]. Hozirda bizning yurtimizdagi pedagoglar qilayotgan ishlarni u yerda ota-onalar o‘z zimmalariga oladilar. Ota-onalar ham farzandlarining o‘qishiga shu darajada e'tiborli bo‘ladilar-ki, pedagog bilan teng-ma teng unga yordamlashgan holda bolarining uy mashg‘ulotlariga ko‘maklasha oladilar. Maktabdagi ta'lim tizimida qattiqo‘llik ham shu darajada kuchli ekanligidan bolalar boshlang‘ich sinfdan boshlaboq yetuk kadr bo‘lib yetishga tayyor bo‘ladi. Men bu kuchli rivojlangan davlatdan misollar keltirganimning sababi shundaki, biz xoxlaymizmi xoxlamaymizmi televedeniya, yoki ko‘plab ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi davlatlarning filmlari, turli namoyishlariga ko‘zimiz tushib qoladi, ularni ko‘rganimizdayoq o‘sha davlatning mentoliteti, ta'lim tarbiyasi ko‘zimizga yaqqol tashlanib turadi. Men bu orqali bizning yurtimizda ham har bir xalq, xonadonlarimizda o‘zbek millatining

mentoliteti, berilayotgan ta'lim tarbiyasi ko'rinib turishini xoxlayman. Zeroki, har qanday buyuk ishlarning poyida ta'lim-tarbiya yotadi.

Kelajak avlodni buyuk shaxslar sifatida tarbiyalash birinchi navbatda, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining malakasiga borib taqaladi. To'g'ri bola hayotida ota-onaning o'rni alohida, lekin ota-ona o'qituvchi bilan hamisha hamkorlikda ishlagani ma'qul. Agarda, bolalarda jiddiy zaiflik, juda jahldorlik va shu kabi salbiy holatlar kuzatiladigan bo'lsa ham o'qituvchi o'zida bor bilim malakasini ishga solgan holda vaziyatni bartaraf etishi, kutgan natijasiga erisha olmasa ota-onasi bilan muloqot qilgan holda oilaviy sharoitini o'rganishi lozim. O'qituvchi o'z kasbiga fidokor pedagog bo'lish bilan bir qatorda, juda kuchli psixolog ham bo'lishi lozim. Masalan, hozirgi kunda boshlang'ich sinfning o'zidan boshlab darsga qiziqmaydigan, o'yin kulguga berilgan bolalar sinfning deyarli 40, 50% ni tashkil qiladi. O'qituvchi agarda astoydil harakat qilsa darsdagi barcha o'quvchilarni birdek jalb qilgan holda, odatdagi zerikarli tusdan o'zgacharoq holda dars mashg'ulotlarini olib borsa bo'ladi. O'quv mashg'ulotlariga hech ham qiziqmaydigan, o'yin kulguga berilgan bolada ham qandaydir sohalarga qiziqish bo'ladi. Balki, unda dastlab darslarga ishtiyoq bo'lgan, qandaydir ta'sir orqali, yoki darslarning zerikarli tusda olib borilishi sababli o'quv mashg'ulotlariga nisbatan zo'riqish paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. O'qituvchi barcha o'quvchilarni darsga birdek jalb qilgan holda o'z mahoratini ishga solishi kerak, albatta. Dars mashg'ulotlarining hammasini bir xil tusda olib borish orqali bolalarni zerilishtirib qo'yish mumkin, ularga turli metodlar orqali ta'sir ko'rsatgan ma'qul. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlab o'tganidek: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi" [4]. Zeroki, metod o'qituvchining yuklanmasini yengillatuvchi asosiy kalitdir. Pedagog birinchi navbatda, vaqtni to'g'ri taqsimlab olishi va ish faoliyatini rejali tarzda olib borishi lozim. 2023-2024-o'quv yilidan boshlab "Yangi avlod" ta'lim dasturlarlariga 4K modelining umumiy ko'nikmalari kiritila boshladi. Web-sahifalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga ko'ra: "Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri–ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish

bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi"[5]. Bu kabi darsliklarda bolalarning har tomonlama mukammal bo'lib rivojlanish darajasi oldingi ko'rsatkichlardan ancha baland ekanligi isbotlanmoqda. Darsliklardagi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun berilgan kreativlikni oshiruvchi, kommunikatsiyaga o'rgatuvchi 4K modelining barcha ko'nikmalarini o'zida jamlagan mashq va topshiriqlar soni jihatdan ko'p, albatta. Lekin, shu sababli o'qituvchi faqatgina darsliklarda berilgan topshiriqlarni o'zini bajartirish bilan cheklanib qolmoqda. Agar o'qituvchi vaqtni to'g'ri rejalashtirgan holda o'quvchilarni darslik hamda mashq daftaridagi topshiriqlarni bajartirish bilan bir qatorda, ularga qo'shimcha topshiriqlarni turli metodlar orqali bajartirib hayotga bog'lab o'tadigan bo'lsa, ham darsining sifati oshgan, ham o'quvchini tobora kuchli vazifalar bilan chiniqtirgan, hamda doimiy zerikarli dars mashg'ulotlaridan holi bo'lgan deb o'ylayman. Aytishingiz mumkin: "Bolaga bu kabi vazifalar og'irlik qiladi-ku, ularda zo'riqish holatini keltirib qo'ymaydimi? " - deb. Lekin bir o'ylab ko'ring, faqatgina darslikdagi murakkab mashqlar bilan cheklangan holda zerikarli dars mashg'ulotlarini olib borgandan ko'ra, bolaga yoshlik chog'idan boshlab oz-ozdan yuklatilayotgan vazifalar hajmini oshirib borishimiz orqali biz ularni mukammal hayot tomon toblab borgan bo'lmaymiz-mi? Shundagina, ularda dars mashg'ulotlaridan keyin ham faqatgina oldingi darslikdagi vazifalarning o'zini bajarib, boshqa holatlarga chalg'ib ketish kabi holatlar yo'qotilgan, hamda ularning o'zi ham bu holatlarni o'zlariga odat qilib olgan bo'ladilar.

Hozirda ko'pchilik ota-otanalar bolamning yoshligidan o'zi kim bo'lishi harakatlaridan, o'qib-izlanishlaridan ma'lum edi deb, bola yuqori sinfga o'tgach ham beparvoliklaricha qoldiradilar. Lekin, bu orqali bola o'zi uchun qaysi yo'lni ma'qul ko'rsa o'sha yo'l tomon chalg'ib ketadi-ku! Unga yoshlik chog'idan odat tusiga kirgan o'quv yuklanmalarini tobora orttirib turilmasa u bolaning kelajagi nima bo'ladi? Nega endi, ota-onalar farzandlariga ayni ko'maklashishlari kerak bo'lgan vaqtlarida bee'tibor yuradilar-da, maktabni tamomlab, oliy ta'lim muassasalariga kirish payti yaqinlashgach birdaniga harakatga tushib qoladilar? Va shu ketishda farzandlarini qo'shimcha tayyorlov kurslariga bera boshlaydilar. Bu vaziyatga bola kurs mashg'ulotlariga berilib keta boshlaydi, va maktab u uchun

ikkinchi darajaga tushib qoladi, hattoki maktabdagi o‘quv mashg‘ulotlariga ham oldingidek qiziqishi qolmaydi. Albatta, bola o‘zi hohlamasa ham shu holatga tushishga majbur-da, yoki bolada ham ota-onada ham qo‘shimcha tayyorlov kurslariga nisbatan ishonib qolish holati kuchayib bormoqda. Yani, ularning o‘ylashicha, maktabda berilayotgan bilimlar bola hayoti uchun juda kamdek tuyuladi, hamda bolaning o‘zi ham maktab vaqtida beparvo yurib, qo‘shimcha tayyorlov kurslarida yetkazib olaman-da degan o‘y-hayollarga berilib ketmoqda. Eng achinarlisi esa, tayyorlov kurslarida ham aynan maktab darsliklaridagi ma'lumotlarni birin-ketin berila boshlanadi. Vaholangki, bolaga maktabda aynan shu ma'lumotlar berilgan payt yetarilicha e'tibor berilmagan ham, o‘qituvchi tomonidan bolani jalb qilish, unga bu ma'lumotlarni singdirish talab etilmagan ham. Bularning o‘rniga maktabdagi ta'lim sifatini orttirish, qo‘shimcha tayyorlov kurslarining o‘rniga maktabning o‘zida darsdan tashqari fan to‘garaklarini joriy etish ishlari yo‘lga qo‘yilsa, qo‘shimcha tayyorlov kurslariga bo‘lgan ishonchni kamaytirgan holda, o‘qituvchilar ham o‘z ustida yanada kuchliroq ishlasa, o‘sha tayyorlov kurslaridanda sifatliroq dars mashg‘ulotlarini maktabning o‘zida tashkil etgan bo‘lar edik deb o‘ylayman. To‘g‘ri hozir ham maktablarda sifatli fan to‘garaklarini tashkil etsa bo‘ladi, va bu avvaldan ham mavjud bo‘lib kelgan. Lekin hozirda maktabdagi fan to‘garaklari sifat jihatidan juda pas, o‘quvchilarda ham qiziqish qolmagan. Ijtimoiy tarmoqlarda keltirilgan statistika ma'lumotlariga ko‘ra: “Mana shu 2024-2025 o‘quv yili uchun oliy va professional ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida qatnashish uchun 894 279(sakkizyuz to‘qson to‘rt ming, ikkiyuz yetmush to‘qqiz) nafar abituriyent ro‘yhatdan o‘tdi. Bu oldingi yillardan sezilarli kam. Ma'lumot uchun 2023-2024 o‘quv yili uchun 1 018 000 (bir million o‘n sakkiz ming), 2022-2023 o‘quv yili uchun esa 1 214 000(bir million ikkiyuz o‘nto‘rt ming) nafar talabgor o‘qishga hujjat topshirgan”[6]. Biz hozir so‘nngi uch yil ichidagi o‘zgarishlarni keltirdik, va bu orqali bundan oldingi yillardagi abituriyent talabgorlar soni bundan ko‘p ekanligini tahmin qilsak bo‘ladi. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bizga shuncha imkoniyatlar yaratilyapti, oldingidan ko‘p e'tiborlar  safarbar etilyapti. Lekin bizda o‘zgarish shunga yarasha bo‘lyaptimi? Bu kabi imkoniyatlarning barchasi hozirda xususiy ixtisoslashtirilgan maktablar ko‘paytirilsin, bolalarni qo‘shimcha tayyorlov kurslariga jalb etilsin deb emas,

balki, shu kutilgan natijalarning barchasiga maktab orqali, muqaddas dargohda ta'lim sifatini sezilarli darajada orttirilishi orqali erishilsin deya yartilmoqda-ku! Muqaddas dargohdagi beriladigan bilimlarning yetarli emasligi tufayli, qo'shimcha tayyorlov kurslarining yaratilib, hozirda jadallashib ketishi maktab saviyasining tushib ketishiga sabab bo'layotganiga e'tibor beryapmizmi? Pedagoglar, ota-onalar, biz yoshlar: ahamiyat bermayotgan, lekin, tobora moslashib borayotgan vaziyatlarimizni yaqqol sezdikmi? Muhtaram prezidentimiz tomonidan yaratilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlarga yarasha javob qaytara olyapmizmi? Agarda maktabda bolalarni boshlang'ich sinfdan boshlab vazifalarni oz-ozdan tobora og'irlashtirib, keyinchalik yuqori sinflarda ham ulardan e'tiborni kamaytirmagan holda, o'z qiziqishlari bo'yicha to'g'ri yo'lga sola olsak, qo'shimcha tayyorlov kurslarining o'rniga faqatgina maktabdagi bilimlarga tayansak, ota-onalar ham biz bo'lajak pedagoglar ham o'z vazifamizni to'liq bajara olsak, shundagina, bolalarning puxta bilim olishida qo'shimcha tayyorlov kurslarga o'rin ham qolmaydi.

Har bir insonning ham, har bir millatning ham o'ziga xos ijobiy jihatlari, boshqalardan ustun tomonlari bo'lgani kabi, kamchiliklari ham bo'ladi, albatta. Men hozir yuqoridagi fikrlarim orqali O'zbekistonning ta'lim tizimidagi ayrim kamchiliklarni, pedagog hamda ota-onalarning bajarishlari kerak bo'lgan yuklanmalarni, qisman keltirib o'tdim. Hulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, agarda, har birimiz bajarishimiz kerak bo'lgan vazifalarimizni mukammal bajara olsak, kamchiliklarimizni vaqtida bartaraf eta olsak, ta'lim sifatining oshishiga hammamiz oz bo'lsa-da o'z hissamizni qo'sha olsak, O'zbekistondagi ta'lim tizimini dunyoning eng rivojlangan davlatlaridanda yuqori o'rinlarga olib chiqqan bo'lamiz. Davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganidek: "Bugungi O'zbekistob bu-kechagi O'zbekiston emas"[7]. Shunday ekan yurtimizni, kelajakni mukammal darajada buyuk qila olishimiz uchun, hozirdan harakat qilaylik va ta'lim tizimidagi kamchiliklarimizni bartaraf etib, ta'limning sifat darajasini orttirish uchun o'z hissamizni qo'shaylik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Ta'lim haqida" qonun. Yaponiya 1872-yil [1]

2. O'.U.Qurbonova. "Qiyosiy pedagogika" o'quv qo'llanmasi. Buxoro 2013.(31-bet) [2]

3. O'.U.Qurbonova. "Qiyosiy pedagogika" o'quv qo'llanmasi. Buxoro 2013.(33-bet) [3]

4. https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/324. 2020 [4]

5. https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida [5]

6. https://kun.uz/news/2024/06/26/bu-yilgi-qabul-yakunlandi-894-mingdan-ortiq-abituriyent-oqishga-hujjat-topshirdi [6]

7. https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi [7].

## INGLIZ TILINI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISH XUSUSIYATLARI: TARIXI VA ISTIQBOLLARI

***Abdujabborova Marg'uba Maxammadjon qizi***

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti 2 – kurs talabasi*

*margubaabdujabborova@gmail.com*

***Annotatsiya: Mazkur*** *maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ESP (English for specific purposes) ya'ni, ingliz tilini maqsadli o'qitish xususiyatlari, tarixi va istiqbollari haqida so'z boradi. Hozirgi kunda chet tilga bo'lgan ehtiyoj faqatgina tilshunoslarda emas, balki boshqa kasb egalarida ham ortib bormoqda. Shu sababli, xorij va yurtimizda ESP yo'nalishi va uning ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *nofilologik ta'lim yo'nalishi, ESP ( English for specific purposes), ESP xususiyatlari.*

***Abstract:*** *This article talks about the characteristics, history and prospects of ESP (English for specific purposes), purposeful teaching of English for students studying non-philological education. Nowadays, the need for a foreign language is increasing not only among linguists, but also among other professions. Therefore,*

*theoretical information about the direction of ESP and its importance in our country and abroad is provided.*

***Key words****: non-philological education, ESP (English for specific purposes), Features of ESP.*

## I. KIRISH

Hozirgi kunda chet tilini o'rganish davr talabi bo'lib bormoqda. Ayni vaqtda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olish uchun yoshlarga zamon talabiga mos darajada ta'lim berish va ular o'rtasida chet tilini rivojlantirishga alohida e'tibor berish davr taqozosi bo'lib bormoqda. Bolalarga chet tilini o'rgatishni bog'cha yoshidan boshlagan maqul. Sababi bu yoshdagi bolalarning o'rganishi yuqori darajada bo'ladi. Buning uchun malakali va professional pedagog bolalarni chet tiliga qiziqtira olish qobiliyati bo'lishi kerak.

Ingliz tilini faqatgina tilshunoslar til nuqtayi nazaridan o'rganish va ingliz tilini umumuy maqsadlarda EGP ( English for general purposes) egallashlari emas, balki boshqa soha vakillari ham o'zlarining kasblarini kelajakda rivojlantirish maqsadida ESP (English for specific purposes) o'rganishlari zamon talabi etib qo'yilmoqda. Bu borada hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar va shu qatori yurtimizda ham ingliz tilini nofilologik yo'nalishlarda o'qitishni amalga oshirish uchun ko'plab ishlar qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq chet tillarini o'rganuvchi yoshlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Prezidentimizning ta'limga va chet tilini o'rgatishga alohida e'tibor bergani yana bir qiyosi yoshlarimizning chet davlatlarida tajriba oshirish uchun keng miqyosida ishlar olib borilayotganidir. Bunga misol tariqasida Koreya, Germaniya va boshqa davlatlar bilan bilim almashish doirasida hamkorlik olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Albatta bu sa'y-harakatlar keng imkoniyatlar kelajak uchun va yurtimiz bayrog'ini yanada balandlarga ko'tarish uchundir.

## II. TADQIQOT METODLARI

Boshqa soha vakillari ingliz tilini oʻrganishlari nimani anglatadi? degan savol tugʻilishi mumkin, bunga javob tarzida: shifokor, uchuvchi, mexanik, dizayner, kimyogar, biznesmen va boshqa kasb egalarining oʻz yoʻnalishi boʻyicha kelajakda egallab turgan kasbini rivojlantirish maqsadida ingliz tilini oʻrganishlari nazarda tutiladi va bu ilm fanda ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun oʻqitish ESP ( English for specific purposes) deb yuritiladi.

Tilshunos boʻlmagan boshqa soha vakillari uchun, ya'ni nofilologik ta'lim yoʻnalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ESP oʻqitish EGP dan anchagina farq qiladi va oʻqituvchi va talabadan ham katta mas'uliyat talab qilinadi. Xorij tajribalarida ESP ning paydo boʻlish sabablariga qiziqadigan boʻlsak, buning uchta umumiy sabablarini mavjud: zamonaviy dunyo talablari, tilshunoslik fanlarining paydo boʻlishi va rivojlanishi, til oʻrganuvchilarga boʻlgan e'tiborning oshishi. Tom Hutchinson va Alan Walterning (1987) fikriga koʻra, ESP ning muomalaga kirib kelishida ikkita muhim tarixiy davr asosiy roʻl oʻynaydi. Birinchidan, ikkinchi jahon urushining tugashi, oʻzi bilan xalqaro miqyosda ilmiy-taxnikaviy va iqtisodiy faoliyatning ulkan va misli koʻrilmagan kengayish davrini olib keldi. Turli xil sabablarga koʻra, Qoʻshma Shtatlarning iqtisodiy qudrati sabali urushdan soʻng xalqaro til sifatida ingliz tilidan foydalanish ommaviy tus oldi. Ikkinchi sabab esa, 1970-yillar boshidagi neft tanqisligi G'arb boylik va bilimlarning neftga boy mamlakatlarga oqib kelishiga olib keldi. Bu hodisa ingliz tili nufuzini yanada koʻtardi va oldin ingliz tili oʻz taqdirini oʻzi hal qilgan boʻlsa, endilikda u til talabalardan tashqari boshqa insonlarning xohish-istak, talab va ehtiyojlariga boʻysuna boshladi. Tilshunoslik fanlarining paydo boʻlishi va rivojlanishi ESPning paydo boʻlishining ikkinchi asosiy sabablaridan edi.

A.K. Krupchenko kasbiy linvodidaktika ob'ektiv ijtimoiy talab asosida, ya'ni turli soxa egalarining chet tillarni xalqaro ma'lumotlar va tajriba almashishda vosita sifatida egallash ehtiyojlari asosida yuzaga kelganini, bu tarmoq ancha avval T. Xatchinson va A. Uolters tomonidan ingliz tilini maxsus maqsadlarda oʻqitish "English for Specific Purposes" sifatida ilgari surilganini ta'kidlaydi [1]

**III. TAHLIL VA NATIJALAR**

ESP yondashuvini turli tadqiqotchilar turlicha tariflagan. Shunday tariflardan biri: "Tilni oʻqitishga yondashuv, unda mazmun va uslub boʻyicha

barcha qarorlar oʻrganuvchining tilni oʻrganish sababiga asoslanadi deb hisoblashadi. Thomas Orr (1998) ning fikriga koʻra, " Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) umumiy maqsadlar uchun ingliz tili (EGP) bilimlari asosiga qurilgan oʻqitish boʻlib, talabalarning aniq maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'lim fanlar yoki kasblarda ishlatiladigan ingliz tili boʻyicha tayyorlashga moʻljallangan". Yuqorida keltirilgan fikrlarga qaraydigan boʻlsak, ikkalasi ham deyarli bir xil mazmunni anglatadi,lekin Thomas Orrning fikri nisbatan aniq va lo'ndaroq,chunki qanday maqsadda ingliz tili oʻqitilmasin, albatta, fundamental umumiy bilimlar kerak boʻladi yani, EGP.

## III. XULOSA VA MUNOZARA

Demak, professional ta'lim muassasalarida chet tillarini oʻqitishda fanlararo aloqa chet tili mashgʻulotlarda bevosita kasbga, sohaga oid autentik materiallardan foydalanish natijasida talabalarning mutaxassislikka oid bilimlarining boyib borishga va sohaga doir eng soʻnggi yangiliklardan xabardor boʻlishga olib keladi va talabaning chet tilni oʻrganishga motivatsiyasining oshishiga yordam beradi. Bizningcha, ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashtirib oʻqitishda ingliz tili mavzulari mutaxassislik fani mavzulari bilan bogʻlashda mutaxassisning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib saralanishi muhim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. **https://lex.uz/docs/-5426736**

2. Tom Hutchinson, Alan Waters. 1987. English for Specific Purposes.Cambridge University Press:Scotland , page 7

3. Hutchinson, T. & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learningcentered approach. Cambridge, UK: Cambridge University Press.

4. Orr, Thomas. (1998). The Language Teacher. ESP for Japanese Universities: A Guide for Intelligent Reform, 22(11), URL: http://www.jaltublications.org/tlt/files/98/nov/orr.html.

5. Strevens, Peter. (1988). ESP after twenty years: A re-appraisal. In M. Tickoo (Ed.), ESP: State of the art (1-13). SEAMEO Regional Language Centre.

# ONA TILI TA'LIMINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON DOSKALARNING O'RNI

***Raxmatillayeva Ezozaxon Zafarjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Magistratura bo'limi O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

*e-mail:* raxmatillayevaezozaxon@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ta'lim vositalari haqida fikr yuritilib, texnik ta'lim vositalaridan biri – elektron doskalarning ona tili va boshqa ta'lim mashg'ulotlaridagi afzalliklari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *interaktiv o'quv mashg'uloti, texnik savodxonlik, ta'lim vositalari, texnik ta'lim vositalari, yozuv taxtasi, elektron interfaol doska , interaktiv doska, «yuqori/quyi faollik» metodi.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются образовательном средства, используемые в образовательном процессе, и описываются преимущества одного из технических средств обучения – електронных досок на родном языке и других образовательных мероприятий.*

***Ключевые слова:*** *интерактивное обучение, техническая грамотность, образовательные инструменты, технические средства обучения, доска для письма, электронная интерактивная доска, интерактив доска, метод «Высокая / низкая активность».*

***Annotation:*** *This article discusses the educational tools used in the educational process and describes the advantages of one of the technical educational tools – electronic boards in native language and other educational activities.*

***Key words:*** *interactive training, technical literacy, educational tools, technical training tools, writing board, electronic interactive board, interactive board, «high/low activity» method.*

Bugungi kunda ta'lim –tarbiya jarayonida interaktiv o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish davrning dolzarb masalasiga aylanmoqda. Bunday dars

mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'minoti va o'quvchi hamda o'qituvchilarning texnik savodxonliklari bo'lishi talab etiladi.

O'quv mashg'ulotlarini ko'rgazmali tarzda olib borish va ta'lim samaradorligini oshirishda ta'lim vositalari ham yetakchi rolga ega. Dars jarayonini amalga oshirishda ko'mak beruvchi vositalar ta'lim vositalari hisoblanadi. Ta'lim vositalariga darsliklar, turli jadvallar, rasmli albomlar, tarqatma materiallar, doskalar, kompyuter vositalari, interaktiv doskalarni misol qilish mumkin.

Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida texnik ta'lim vositalaridan keng ravishda foydalanilmoqda. Texnik ta'lim vositalari – o'quv materiallarini ko'rgazmali va tizimli namoyish etishga yordam beribgina qolmay ,o'quvchilarga dars jarayonini yetarli o'zlashtirishlariga va xotiralarida yaxshiroq eslab qolishlariga imkoniyat yaratib beradi. O'qituvchi qaysi vositani qachon , qay tarzda foydalanishni mashg'ulot mazmunidan kelib chiqib avvaldan rejalashtirib olishi kerak.

Ona tili va adabiyot dars mashg'ulotlarida eng keng foydalaniladigan va eng kam xarajat talab qiladigan ta'lim vositasi doska hisoblanadi. Bizga ma'lumki , har bir sinf xonalari doska bilan ta'minlangan va biz undan dars mavzularini yozish , notanish so'z va iboralarni qayd qilish , turli jadval , grafiklar chizish ,mashqlar bajarish uchun foydalanamiz. Ana shu funksiyalar va boshqa qo'shimcha vazifalarni o'zida mujassam qilgan interaktiv doskalar oddiy yozuv taxtalaridan ko'ra samaraliroq natija bermoqda. Bunday doskalardan ona tili va adabiyot dars jarayonlarida foydalanish imkoniyati katta. Albatta, doskaning bu ikki turidan foydalanishning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

Yozuv taxtalaridan foydalanish uchun yozishga bo'r ,o'chirishga artgich bo'lishi kifoya. Ta'lim jarayonida taxta doskaga doimiy yozish jarayonida uning xiralashuvi, notekis bo'lib ketishi , bo'rning namlanishi sodir bo'lib , mashg'ulot sifatini pasaytirib yuborishi va keragidan ko'proq vaqt talab etishi mumkin. Ammo electron doskalarda bunday muammolarga duch kelmaymiz va uning ichki imkoniyatlari yozuv taxtalariga qaraganda ancha kengroqdir.

Elektron interfaol doskalar – ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lib, kompyuter va proyektordan iborat majmua tarkibida ishlaydi. Elektron doskalar

o'quv mashg'ulotlarini jadallashtirish va o'quvchilarda amaliy hamda nazariy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'ringa ega. Bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarga mavzu mohiyatini ochib berishda yozuv taxtasi va bo'rning o'zi kifoya qilmaydi. Interaktiv doskalar esa ko'pgina funksiyalarga ega:ekranni barmoq bilan erkin boshqarish, kattalashtirish yoki kichiklashtirish mumkin. An'anaviy doskalardan farqli ravishda elektron doskalar bir qator afzalliklarga ega:

1. O'quv materiallarini namoyish qilish va boshqarish oson. Dars jarayonida o'qituvchi kerakli ma'lumotni isboti bilan ko'rsatishi, ma'lum qismlarini ajratib olishi yoki qo'shimchalar kiritib ketishi mumkin.

2. Interfaol doska qurilmalaridan foydalanish raqamli axborot resurslarining bir nechtasini bir vaqtning o'zida tez va qulay tarzda namoyon qilish, bu materiallarni tartibga solish, ko'rsatish va boshqarish mumkin.

3. Doskada bayon etilgan har qanday matn ,jadval, grafik , rasmlarni o'chirmay saqlab qo'yish imkonini beradi. Saqlab qo'yilgan ma'lumotlardan keyingi darslarda yoki kelgusi o'quv yilida foydalanish hamda boshqa hamkasblar bilan birgalikda muhokama qilishda unumli qo'llash mumkin. Bu o'z navbatida, o'qituvchilarda ko'p uchraydigan charchoq va asabiylikni oldini oladi. Har bir sinfda takror yozishga sarflanadigan vaqtni tejab ta'lim oluvchilar bilan ko'proq shug'ullanish imkonini beradi.

4. Interfaol doskalar yordamida turli mavzuga doir rasm, ovozli matn va videolarni namoyish qilish hamda tahrirlash imkonini beradi. Bu jarayon, albatta, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va sinf o'quvchilaring diqqatini tezroq jamlashga ko'maklashadi.

5. O'qituvchilarning kompyuter boshqarish jarayonini ochiq va shaffof bajarishi. Bu talabalarga o'qituvchining dasturiy ta'minotni qanday ishlashini aniq ko'rsatishga imkoniyat beradi. Bu jarayon o'quvchi va o'qituvchilardan egallagan nazariy AKT bilimlarini amaliy qo'llashga imkon beradi. Mashg'ulot vaqtida o'quvchilar mashqlarni doskaga chiqib bajarish jarayonida texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi, o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirib namoyon qilishga ko'mak vazifasini o'taydi.

6. Elektron doskalar ta'lim mashg'ulotlarida kompyuterlarga kirishni osonlashtiradi, doska tizimlari va kompyuter dasturlari bir-birini to'ldiradi.

Interaktiv elektron doskalarda bir vaqtning oʻzida kompyuter dasturlarini namoyish qilish mumkin. Deylik, oʻqituvchi dars jarayonida doskada mavjud boʻlmagan video materialni talabalarga namoyish qilmoqchi. Bu holatda u kompyuterini elektron doskaga ulab talabalarga bu animatsion videoni bemalol namoyish qilishi mumkin. Namoyish jarayonida videoni toʻxtatib ,oʻquvchilar bilan muhokama qilish, kerakli qismini qayta namoyish etish yoki alohida qirqib olish imkoniyatlari ta'lim muhitiga yanada qulayliklar beradi.

7. Bu afzalliklardan tashqari, elektron interaktiv doskalar internet tarmogʻiga ulangan va kuchli qidiruv tizimiga ega. Dars vaqtida oʻqituvchi kerakli materialni internet saytlaridan qidirib, tezda topishi, uni yuklab olishi, talabalarga ulashishi mumkin. Ona tili dars mashgʻulotlarida fan oʻqituvchilari elektron doskadan foydalanish vaqtida «yuqori-quyi faollik» metodini qoʻllasa oʻquv jarayoni yana ham samarali boʻladi. Bunda eng koʻp faoliyat oʻquvchilardan talab qilinadi. Mashgʻulotda oʻquvchilar oʻzlari elektron smart doskada mavzu tinglashadi, uni oʻzlari boshqarishadi, qoʻshimcha manbalarni qidirib, bir-birlari bilan almashishadi. Mavzuga doir topshiriqlarni bajarib, oʻzlari mustaqil muhokama qilib, fikr almashishadi va elektron doska orqali bajargan ishlarini tekshirib, oʻrnida kamchiliklarini toʻgʻrilab olishadi. Bu metodda oʻqituvchi quyi darajada faol boʻladi, ya'ni sinf oʻquvchilarining darsdagi faolligini nazorat qiladi, tushunmagan qismlarida koʻmak beradi. «Yuqori-quyi faollik» metodi qoʻllanilganda ta'lim oluvchilar koʻproq faol boʻlgani tufayli ham yangi mavzuni tez oʻzlashtirishadi, ham amliy texnik bilimdonlik koʻnikmalari sifatli shakllanadi.

Bugungi taraqqiyot davrida ta'lim vositalarining turlari kengaymoqda. Hozirgi zamon oʻqituvchisi shuni unutmasligi lozimki, u qancha koʻp turdagi ta'lim vositalaridan foydalansa, oʻquv mashgʻulotlarining samaradorligi shunchalik ortadi, ona tili materiallarini sifatli va ongli oʻzlashtirilishi ta'minlanadi hamda nutqiy malakalarni takomillashtirish imkoni kengayadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

**1.** Toʻxliyev B.,SHamsiyeva M., Ziyodova T., Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi,2006, 54-56 b.

**2.** Toʻxliyev B., Inogʻomova R., Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, 2008, 22-23-b.

**3.** Agjarov E.M. Informatika va axborot texnologiyalari oʻqituvchilarining kasbiy komponentligi. -2019 –№3. 77-84-b.

**4.** Sobirova M. Ona tilini oʻqitishda raqamli ta'lim vositalarining oʻrni. «Ilm-fan taraqqiyoti:muammolar, yechim va istiqbollar» mavzusida xorijiy olimlar ishtirokidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 19-21-dekabr.

**5.** http://www.youtube.com/@bahodirxurramov2533

## TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

***Mirzayeva Ziyodaxon Abduvohid qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Kimyo yoʻnalishi 2-bosqich talabasi*

***Tel:*** *+998931551205*

***E-mail:*** zmirzayeva323@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ta'limdagi muammolar va ularning yechimlari haqida. Dars olib borish jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy koʻnikmani ham rivojlantirish. Maktablarda qoʻshimcha hunar toʻgaraklarni tashkil etish. Pedagoglarni zamon bilan tengma teng qilgan holatda tayyorlash. Xorjiy tillarni oʻrgatishni takomillashtirish. Maktab va oliy ta'lim oʻqituvchilarni obroʻsini yuqori darajaga koʻtarish. Ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish va ularni faoliyati. Prezident maktablarini tashkil etishdagi ilgʻor texnologiyalar toʻgʻrisida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Аннотация:*** *Об образовательных проблемах и их решениях. Развитие практических навыков наряду с теоретическими знаниями в процессе обучения. Организация дополнительных ремесленных кружков в школах. Подготовка педагогов, идущих в ногу со временем. Совершенствование преподавания иностранных языков. Повышение репутации преподавателей школ и высших учебных заведений. Организация творческих и специализированных школ и их деятельность. Представлена информация о передовых технологиях при создании президентских школ.*

***Abstract:*** *About educational problems and their solutions. Developing practical skills along with theoretical knowledge in the course of teaching. Organization of additional craft clubs in schools. Training of pedagogues in a state of keeping up with the times. Improving the teaching of foreign languages. Raising the reputation of school and higher education teachers. Organization of creative and specialized schools and their activities. Information about advanced technologies in the establishment of presidential schools is presented.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim, jamiyat, malaka, bilim, kadrlar, tarbiya, fan, qobilyat, malaka, texnika, muassasa, ehtiyoj, metod, texnologiya, prezident maktablari.*

***Ключевые слова:*** *образование, общество, навыки, знания, кадры, подготовка, наука, способности, навык, техника, институт, потребность, метод, технология, президентские школы.*

***Key words:*** *education, society, qualification, knowledge, personnel, education, science, ability, qualification, technique, institution, need, method, technology, presidential schools.*

Mamalakatimizda hozirgi kunda ta'limga bo'lgan talab kundan, kunga o'sib bormoqda. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarni hal qilishda katta ro'l o'ynaydi. Ta'limning asosiy omilli yoshlarning bilish, o'rganish qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yili 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimning barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Inson dunyoga kelar ekan, tug'ilishdan boshlab, to o'limgacha turli holatlarga tushadi [1]. Hayoti davomida bilmagan bilimlarni o'rganish uchun doimo izlanishda bo'lmog'i darkor. Ta'lim berish jarayoni avvalo oiladan boshalanadi. Agar ota-ona farzandlariga to'g'ri tarbiya bera olsa, farzandlari ta'lim olishda, jamoat joylarida o'zi uchun yetarlicha ko'nikma oladi. Yurtimizda ta'limga bo'lgan e'tibor kuchayib kelmoqda. Sifatli va malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajada desak, to'g'ri bo'ladi. Kadrlar malakasining yuqoriligi, ta'lim sifatining tubdan isloh bo'lishiga imkon yaratadi. Buyuk allomalarimiz ham ta'lim haqida o'z fikrlarni

bildirishgan va ko‘plab izlanishlar olib borishgan. Shu o‘rinda buyuk shoir Alisher Navoiyning ta’lim haqida bir ajoyib fikrlari bor: “Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado, onging haqin ila [2]. Bu bilan kimki senga bir harf o‘rgatsa, uning haqini bir umr uza olmaysan deb aytiladi. Rostdan ham ta’lim o‘rgatish har bir o‘quvchining dunyoqarashiga qarab muomila qilish, ilm o‘rgatish bu murakkab jarayon. Buni qadriga yetish darkor.

Albatta, mustaqillik yillaridan boshlab yurtimizda ta’lim tizimini isloh etishga katta e’tibor qaratilgan va bugungi kunga kelib bu sohada ma’lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta’lim tizimda, xususan, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim turlarida katta o‘zgarishlar yuz bermoqda [3]. Yoshlarga berilayotgan e’tibor va imkoniyatlar orqali ilm-fan sohasida yutuqlarga erishib kelishmoqda. Yurtimizda ta’lim tizimga e’tibor katta, lekin globallashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalari shiddat bilan rivojlanmoqda. Jahon bilan tengma, teng bo‘lgan holatda ta’lim tizimda ko‘plab islohotlar o‘tkazilmoqda. Lekin shu bilan birga ta’lim tizimda ko‘plab kamchiliklar va muammolar bor. Ta’lim tizimda yechimni kutayotgan muammolari bor. Bularga: kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlarning talab darajasida emasligi, ta’lim jarayonida moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli darajada takomillashmagani, pedagogik darajada malakali kadrlarning kamligi, hozirgi zamon talabiga mos o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarning kamligi yoki umuman yo‘qligi, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro aloqaning zaifligi, maktablarda va oliy ta’limda labaratoriya jihozlari va reaktivlari kamligi yoki umuman yo‘qligi, o‘quvchilarning faqatgina nazariy bilimlarga asoslanib amaliy jihatdan tushunchaning kamligi, dars jarayonlarini olib borishda yangi texnologiyalar va metodlarni o‘rgatilmasligi va shu kabi muammolar uchramoqda. Bularni hal qilishga e’tibor berish darkor.

Bugungi kunda maktab bitiruvchilarda to‘laqonli fikrlash doirasi yetarli emas. Ular katta hayotga qadam qo‘yayotganlarni his qilishmaydi. Shu bois maktab, akademik litsey va boshqa muassasalarni yoshlari bitirganlaridan so‘ng mustaqil hayotda o‘z o‘rinlarni topishda qiynalishadi, ba’zilari esa umuman topa olishmayapti. Buning uchun maktab davrida o‘quvchilarga qo‘shimcha hunar

oʻrgatishga maktablarni moslashtirish lozim. Chunki, oʻqishga qiziqmagan bola, albatta, hunar oʻrganishga qiziqadi va bu orqali kelajakda oilasi va farzandlarini ta'minlab bera oladi. Sir emaski, qisqa muddat ichida oliy ta'limga maktab oʻquvchilarni qamrab olish oldingi paytga qaraganda oshdi. Oldingi paytda oliy ta'limga qamrab olish 10% ni tashkil qilgan boʻlsa, hozirgi kunda 30 % ga oshmoqda. Oʻquvchilarning oliy ta'limga kirishlarida qoʻshimcha ta'lim – repetitorlarning xizmati katta boʻlmoqda.

Ta'lim muassasalari yetarlicha mustaqillik ega emasligi, mehnat bozori bilan teng boʻlishga harakatning kamligi ham ta'lim sifatiga ta'sir etmoqda. Hozirda asta-sekinlik bilan oliy ta'limda moliyaviy mustaqillik berilmoqda. Kadrlar malakasini oshirish uchun maxsus pedadogik institutlarni tashkil etilmoqda. Ta'lim muassalarida oʻquv jarayonlarida faqat nazariy bilimlarga emas, amaliy bilimlarni koʻproq oʻrgatish muhim. Chunki, eshitganidan koʻra koʻproq amaliy bajarish orqali koʻproq eslab qoladi. Kadrlarni ham koʻproq malakaviy amaliyotlarni tashkil etish kerak. Ishlab chiqarish korxonalari bilan koʻproq faoliyat olib borish. Kadrlarni korxona va muassasalariga moslashtirgan holatda, u yerining talab darajasiga mos ravishda tayyorlash, ularni oʻsha yerning muhitiga moslashtirish. Xalqaro standartlar, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini inobatga olgan holda, oʻquv dasturlari, darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari, oʻqitish uslubiyatini muntazam takomillashtirish, ta'limning barcha bosqichlarida tabiiy-ilmiy va muhandislik fanlarini oʻqitishning amaliy tizimni joriy etish, oʻqitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni oʻrganishni kengaytirish lozim [4]. Chunki hozirgi kunda zamon talabiga mos ravishda xorjiy tillarni oʻrganish takomillashmoqda.

Soʻnggi yillarda xalq ta'limini takomillashtirib borilmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda iqtidorli bolalarni aniqlash, oʻqitish va tarbiyalash, ularni yanada qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni shakllantirish maqsadida 2019-yili xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan oʻquv rejalari va dasturlariga muvofiq ta'lim jarayonni ingliz tilida olib boruvchi Prezident maktablarni tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilingan, bu esa ta'lim sifatining ilgʻor andozalari qoʻllanilayotganidan dalolat bermoqda [3]. Bu orqali ota-onalarda farzandlarni prezident maktablarda oʻqitishga talabni oshishiga olib kelmoqda va buning natijasida oʻquvchilarda ham oʻsha yerda

o'qishga talab ortib kelmoqda. Bu albatta, o'z samarasini bermoqda. Oddiy maktablarda ham ilg'or andozlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Maktablarda ham alohida bitta yo'nalishga ixtisoslashgan guruhlarni tashkil etish va ularda har oyda test sinovlarni o'tkazib, natijalarni olish lozim. Oddiy maktablarni ham ixtisoslashgan maktablar darajasiga ko'tarish lozim. Shunda maktablarda oliy ta'limga kirish darajasi ko'tariladi. Bundan tashqari o'qituvchilar kasbini obro'sini yuqori darajaga ko'tarish lozim. Pedagoglarga yuqori darajada ish haqi to'lash darkor. Pedagog faqatgina o'quvchilarga dars berish bilan shug'ullansin. Hozirgi paytda o'qituvchilarning maoshlarni kamligi sababli darsdan tashqari ham qo'shimcha ish bilan shug'ullanishmoqda yoki dars soatlarni ko'paytirish maqsadida 2 yoki 3 ta muassasada ish faoliyatlarni olib borishmoqda. Buning oqibatida sifat darajasi kamayishiga olib kelmoqda. Buning uchun o'qituvchilarga imkoniyatlar eshigini ochish lozim. O'qituvchi maqomini ko'tarish uchun aniq huquqiy asosga ega bo'lishi kerak. Jamiyatda o'qituvchilarga nisbatan hurmatda bo'lish, o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuzlarni oldini olish. Barcha umumta'lim maktablarni ayniqsa, respublikamizning chekka hududlaridagi maktablarni raqamlashtirish va zamonaviy moddiy-texnik bazalar bilan ta'minlab berish lozim.

**Xulosa**

Ta'lim sifatini yaxshilash hozirgi kunda zamon talabi hisoblanadi. Zamon talabiga mos kadrlarni tayyorlashda oliy ta'limning muhim vazifasi. Kadrlarni malakasi yetarli darajada bo'lsa, yurtimizda rivojlanish bo'ladi. Yoshlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanib ta'lim sifatini yaxshilash va qobilyatlarni ko'rsata olish lozim. Maktablar va oliy ta'limlarni moddiy tarafda ta'minlab berish. Mamlakatimizning chekka hududlarga malakali kadrlarni yuborish va yangi texnologiyalarni o'rgatish. Qo'shimcha dars jarayonlarni mukammalashtirish. Chekka hududlardagi pedagoglarni va boshqa kasb egallarni ish haqlarini ko'tarish va ularni mehnatini yuqori darajada baholash maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. https://kitobxon.com/oz/kitob/talim-va-tarbiya
2. "Hurriyat" gazeta Toshkent-2017
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi Toshkent-2023

4. Ziyouz.com kutubxonasi, uz.m.wikipedia.org

# SPORT MEDITSINASINIŃ DENE TÁRBIYASI MENEN BAYLANISLÍLÍĞÍ HÁM RAWAJLANIW DAWIRLERI

***Qaljanov Raxman Polatovich***

*Nókis innovacion instituti "Baslawısh tálim hám gumanitar pánler" kafedrası assistent oqıtıwshısı*

***Joldasbayev Paraxat Muratbayevich***

*Nókis innovacion instituti "Baslawısh tálim hám gumanitar pánler" kafedrası аğа oqıtıwshısı*

***Omirzaqov Ospan Polatovich***

*Dene tárbiya hám sport boyınsha qánigelerdi qayta tayarlaw hám tájriybesin asırıw institutı Nókis filialı oqıtıwshısı*

***Annotacia:*** *Bul ilmiy maqalada hazirgi ku'nde sport tarawında júda ahmiyetli bolǵan baǵdarlardıń biri yaǵniy sport medicinasınıń dene tárbiyasi menen baylanısı hám bul tarawdıń Ózbekistanǵa kirip keliw tariyxi rawajlanıw basqıshları haqqında keń maǵluwmatlar berilgen.*

***Annotatsia:*** *Bu ilmiy maqolada hazirgi kunda sportlar sohasinda júda ahamiyatli bo'lgan yo'nalishlarning biri yani sportlar tibbiyotining jismoniy tarbiya bilan aloqasi va bu sohaning O'zbekistonga kirib kelish tarixi rivojlanish bosqichlari haqida keng malumotlar berilgan.*

***Аннотация:*** *В данной научной статье представлена обширная информация об одном из важнейших направлений в области спорта сегодня, а именно о связи спортивной медицины с физическим воспитанием, а также об исторических этапах развития внедрения этой области в Узбекистане.*

***Tayanish sózleri:*** *Sabaq barisi, dene tárbiya, shınıǵıw, den sawlıq, fizikalıq sapalar, tárbiya, sabaq júklemesi.*

***Kálit sózlar:*** *Dars davomiyligi, jismoniy tarbiya, mashq, sog'lik, jismoniy sifatlar, tarbiya, dars yuklamasi.*

***Ключевые слова:*** *Продолжительность урока, физическое воспитание, физические упражнения, здоровье, физические качества, воспитание, учебная нагрузка.*

Dene tárbiyası teoriyası hám metodologiyasi rawajlanıwınıń házirgi basqıshında bul jónelistiń tiykarģı túsiniklerin anıqlawǵa kompleks jantasıwdı islep shıǵıw máselesi aktual bolıp qaldı. Bul bárinen burın, dene tárbiyasına tiyisli túsiniklerdiń jetekshi uliwma pedagogikaliq termin hám kategoriyalar menen baylanısın ornatıw zárúrshiligi menen baylanıslı.

Mámleketimizdiń rawajlanıwınıń házirgi zaman basqıshında insandı tárbiyalaw, onıń fizikalıq sıpatların rawajlandırıw, salamatlıǵın bekkemlew, bilimlerin asırıw  baǵdarında dene tárbiya hám sporttıń ahmiyeti úlken orın tutadı. Dene tárbiya hám sport-ulıwma xalıq mádeniyatınıń ajıralmas bir bólegi, mámlekettiń hár bir puqarası fizikalıq hám de mánawiy jetilisiwin támiyinlewshi negiz esaplanadı.

Dene mádeniyati teoriyasi hám metodikasi qánigelerin tayarlaw-bul joqarı oqıw orınlarınıń studentleri, magistrları, orta arnawlı tálim mákemeleriniń oqıwshıları ushın baǵdarlanǵan, yag'niy mekteplerde jumis islew barisinda dene ta'rbiya sabaqlari barisinda mug'allimlerdi haqiyqiy ma'nide maman qaniygeler etip ta'rbiyalaw barisi teren' qamtip aliniwi kerek ekenligi aniq aydin ko'rinedi. Dene tárbiyası qánigesine kásip tayarlıǵınıń ilimiy, teoriyalıq hám ámeliy materialların ózinde sáwlelendiriw hám dene tárbiyası procesin shólkemlestiriw máseleleri hám mámleketimizde dene tárbiyanıń tutqan ornı haqqındaǵı bilimlerin bayıtıwǵa járdem beriw ha'zirgi ku'ndegi o'z sheshimin ku'tip turg'an masqalalardan bolip tabiladi.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtıń basshılıǵında mámleketimizde dene tárbiya hám sportqa úlken itibar qaratılmaqta. 2017-jılı 3-iyun dene tárbiya hám xalıq arasında sporttı jane de rawajlandırıw ilajları haqqındaǵı
PQ-3031-sanlı, "Jámiyetimizde  turmıs tárizin qáliplestiriw, xalıqtıń, ásirese dene tárbiyası hám ǵalabalıq sport menen úzliksiz shuǵıllanıwı ushın zaman talaplarına uyqas shárt-sharáyatlar jaratıw, sport jarısları arqalı jaslarda óz shıdamlılıǵı, kúshi

hám múmkinshiliklerine bolǵan isenimdi bekkemlew, mártlik hám ana Watanǵa sadıqlıq sezimlerin kámal taptırıw, sonıń menen birge, jaslar arasınan intalı sportshılardı saralap alıw jumısların sistemalı shólkemlestiriw hám de dene tárbiyası hám ǵalabalıq sporttı jáne de rawajlandırıwǵa jóneltirilgen keń kólemli jumıslar ámelge asırılıp atır.",[1] 2018-jılı 5-marttaǵı «Dene tárbiya hám sport tarawında mámleket basqarıw sistemasın túpten jetilistiriw ilájları haqqındaǵı» PF-5368 sanlı pármanı "Jurtımızda dene tárbiyası hám sporttı ǵalabalastırıw, xalıq, ásirese, jaslar ortasında salamat turmıs tárizi haqqında úgit-násiyat jumısların alıp barıw ushın zárúr shárt-sharáyatlar hám infra strukturanı jaratıw, mámlekettiń xalıq aralıq sport maydanlarında múnásip qatnasıwın támiyinlew boyınsha izbe-iz ilajlar ámelge asırılıp atır" hám qararlarında jurtımız xalıq salamatlıǵın bekkemlewde dene tárbiya tayarlıǵın arttırıw, salamat turmıs tárizin endiriw máselelerine itibar qaratılmaqta.

Fizikalıq mádeniyat túsinigine tómendegiler kiredi:

-miynet hám tirishilik puxtalıq ;

-kiyim, jay hám bólmelerdiń tazalıǵı ;

-jeke gigiyena hám kún rejimine ádetleniw, kún dawamında tuwrı iskerlik hám dem alıw, uyqı, awqatlanıw soǵan uqsaslar ;

-tábiyiy sharáyat ta organizmdi shınıqtırıw : hawa, quyash hám suw járdeminde;

-fizikalıq shınıǵıwlar.

Fizikalıq rawajlanıw adam organizmindegi forma hám wazıypalardıń ózgeriwi, bulshıq etlerdıń ósiwi hám artıwın ańlatatuǵın biologiyalıq process bolıp tabıladı.

Fizikalıq rawajlanıw turmıs nızamları ortalıq hám organizmniń birligi tiykarında ámelge asadı.

Dene tárbiyası insan organizmin morfologik hám funksional rawajlanıwı, onıń fizikalıq sapaları hám qábiletlerin rawajlandırıw, háreket ilmiy tájriybeleri hám kónlikpelerin qáliplestiriw hám de olar menen baylanıslı bolǵan bilimlerdi payda etiw hám bekkemlewge baǵdarlanǵan pedagogikalıq process bolıp tabıladı.

Dene tárbiyası bala organizminiń funksional múmkinshiliklerin asırıp, onıń intellektual iskerligi menen orınlawǵa kómeklesedi, qol háreketleniwi, sóylewdi háreketke keltiretuǵın oraydıń rawajlanıwına unamlı tásir etedi.

Joqarida keltirilgen metodologiyaliq tiykarlardan kelip shig'ip dene ta'rbiyasi pa'nin basqa pa'nler menen baylanisli ta'replerin ken'lew tu'de ko'rip shig'iw orinle bolip tabiladi.

Dene ta'rbiyasi pa'nine en' jaqin bag'darlardin' biri bul adam fiziologiyasi yaki sport meditsinasin ko'rip shig'iw orinli bolip tabiladi. Sport meditsinasi bul o'z aldina ken' bag'dar bolip dene ta'rbiyasi menen yaki sport penen shug'illaniwshilar organizminde islenip atirilg'an ha'reketler komleksinin' paydali yaki zaleli haqqinda ken'nen mag'lwmatlardi, ha'm ilimiy tiykarlang'an pikirlerdi berip o'tegin taraw bolip tabiladi. Xosh bul taraw haqqinda nelerdi bizge belgili sol haqqinda qisqasha ko'rip o'tsek.

Ózbekstanda sport medicinasınıń rawajlanıw tariyxı. Ózbekstanda dene tárbiyasınıń rawajlanıwı menen bir qatarda meditsinaning jańa ǵárezsiz tarmaǵı - dene tárbiyasında medicinalıq qadaǵalaw payda boldı. Turkistonda dene tárbiyası hám sport processleriniń rawajlanıwı respublikanıń ulıwma áskeriy tálim shólkemleri hám den sawlıqtı saqlaw xalıq komiteti tárepinen ámelge asıriladı.

Turkiston respublikalar oraylıq komiteti hám Turkiston fronti áskeriy revolyuciya soveti 1920 jılda ulıwma májburiy áskeriy tálim haqqında dekret shıǵardı. Bunda xalıq bilimlendiriw komiteti tárepinen ulıwma áskeriy tálim járdeminde mektep jasındaǵı jaslardıń jetilisken fizikalıq rawajlanıwı ushın 8-16 jasqa shekem mektep hám 16 -18 jastan óspirimler ushın bolsa áskeriy tayarlıq úyretiw zárúr dep ataladı. Bul wazıypa 2 shıpaker hám 1 dene tárbiyası instruktori bolǵan ulıwma áskeriy tálim shólkemlerine juklenedi. Fizikalıq tayarlıq ótip atırǵan shaxslar ústinen qadaǵalaw respublika xalıq den sawlıqtı saqlaw komitetinde islengen, fizikalıq tayarlıq dárejesin bahalaw bolsa, den sawlıqtı saqlaw bólimine juklenedi. Bul bólimniń shtatı shıpaker, pedagog hám dene tárbiyası instruktoridan ibarat bolǵan. [2;12]

1922 jılda Dene tárbiyası hám tálim programmaları hám jobaların tastıyıqlandi, dene tárbiyası instruktorlari ushın qısqa hám uzaq múddetli kurslar

dúzildi, dene tárbiyası úgit-násiyatlawına dene tárbiyası sarayları, stadion, maydanshalar, antropometrik kabinetler ashıldı.

1923 jılda balalar den sawlıqtı saqlaw bólim rejesine balalar mákemelerine dene tárbiyasın kirgiziw, mekteplerde balalar shólkemlerinde Narkompress shólkemlerinde medicina sanitariya qadaǵalawı máselelerin islep shıǵıw názerde tutildi.

Respublikada birinshi márte shıpakerler Lyubimova hám Ukrantsovalar basshılıǵında mekteplerde balalar dene tárbiyası ushın programmalar islep shıǵıldı, oqıw saatları belgilendi hám fizikalıq shınıǵıwlar hám sporttıń ayırım túrlerinen shınıǵıwlar dúzildi. Respublika xalıq den sawlıqtı saqlaw komiteti dene tárbiyasın medicinalıq xızmeti menen támiyinlewge baǵıshlangan uzaq múddetli programmalardı islep shıǵıwda xalıq den sawlıqtı saqlaw komiteti húkimlerine tiykarlandi, qabıl etilgen qararlarda respublika xalqın eń kishi jastan baslap dene tárbiyasına qosıw zárúr, dep tabıladı. Insannıń biologiyalıq ózgesheligi onıń jası hám psixologiyalıq qásiyetleri menen birgelikte úyreniw máseleleri qoyıldı.

Jańadan dúzilgen programmada dene shınıqtırıw hám shınıǵıwlar, oyınlar, gimnastika hám sport túrleri ósip atırǵan organizmniń talapları tiykarında balalar salamatlıǵın hám psixik iskerligin bekkemlew faktorı retinde ótkeriliwi zárúrligi kórsetiledi.

Shıpakerlerge dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar salamatlıǵın hám fizikalıq rawajlanıwın anıqlaw, olardıń tayarlıǵı hám psixik qásiyetlerine qaray toparlarǵa bólistiriw sıyaqlı wazıypalar juklenedi. Fizikalıq rawajlanıwda kemshilikleri bolǵan shaxslarǵa arnawlı korrektsiyalaytuǵın shınıǵıwlar belgilenedi, onnan tısqarı medicina xızmetkerleri shınıǵıw protsesin hám shınıǵıw ótkeriletuǵın jaylardı turaqlı baqlawları, sonıń menen birge dene tárbiyasınıń miynet processlerine hám balalar salamatlıǵı tásirine ataq beriwleri kerek boladı.

Barlıq 7 jıllıq tálim mektepleriniń oqıw jumıs programmalarinda balalar dene tárbiyası ushın oqıw saatınıń 6/1 bólegi, joqarı dárejeli mekteplerde 5/1 bólegi ajratıladı.

Mektep sanitariya shıpakerleri mektep keńesi quramına kiritiledi. Olar fizikalıq júkleniwlerdi belgilewleri hám fizikalıq shınıǵıwlardıń oqıwshılar organizmine olardıń jası qásiyetlerin esapqa alǵan halda tásirin úyreniwleri,

fizikalıq shınıǵıw menen shuǵıllanatuǵınlar ústinen medicinalıq qadaǵalaw ornatıwları, sonıń menen birge mektep oqıwshılarınıń fizikalıq rawajlanıwın antropometrik usıllar menen úyreniwleri zárúr edi. [3;88]

1924 jılda Qóqonda respublikada ekinshi mektep - profilaktika ambulatoriyasi jumıs basladı. Sol jıl dawamında Tashkent hám Qóqon mektep profilaktikalıq ambulatoriyalar esabatı boyınsha: 4000 oqıwshı hám 1400 ge jaqın óspirimler tekserildi. Biraq mektep-sanitar shıpakerleri fizikalıq shınıǵıwlar menen shuǵıllanip atırǵanlardıń medicinalıq qadaǵalawına jetkilikli dárejede itibar bere almadı. Den sawlıqtı saqlaw xalıq komitetiniń mektep oqıwshılardıń medicinalıq xızmet penen támiyinlew haqqında 1923 jılda qabıl etken programmasın turmısqa tolıq nátiyjeli engiziw qiyin bolip qalǵan edi.

Dene tárbiyası menen shuǵıllanap atırǵan balalardı medicinalıq xızmet penen támiyinlew jáne de uyımlastırılǵan hám de joybarlastirilǵan halda alıp barıladı. Medicinalıq shınıǵıwlar tiykarında jeke medicinalıq kartochkalar toltırıladı, bunda antropometrik kórsetkishler (boy uzınlıǵı, tós sheńberi tınısh jaǵdayında, nápes alǵanda hám nápes shıǵargandagi kórsetkishi) awqatlanıwı, gewde dúzilisi, tayansh-háreket apparatınıń jaǵdayı hám taǵı basqalar, sonıń menen birge fizikalıq tayarlıqları ushın ruxsat haqqında juwmaqlar sáwlelendirildi. 1925 jılda Tashkentte dene tárbiyasınıń kásiplik awqamı bayramın ótkeriw ushın tayarlıq medicinalıq qadaǵalaw jumıslarınıń rawajlanıwı ushın faktor boldı. Ǵalabalıq dene tárbiyası urıs qatnasıwshısıları májburiy túrde dáslepki medicinalıq tekseriwden ótip shıpaker juwmaǵı tiykarında jarıslarda qatnasıw ushın ruxsat alıwları zárúr edi. Urıs qatnasıwshısılardı medicinalıq kórikten ótkeriw mektep-profilaktika ambulatoriya bazasında shıpaker Ukraintsova basshılıǵında alıp barıldı. Jarısta qatnasatuǵın hár bir urıs qatnasıwshısına to'ldi-rilgan medicinalıq kartalarda antropometrik ólshew kórsetkishleri hám salamatlıǵınıń ulıwma jaǵdayı sáwlelendirilgen edi.

Shıpakerler ayırım sport túrleriniń dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar organizmine tásirin úyrendiler. Mısalı, juwırıwdıń sóylewge, xarakterge, háreketlerge, sırtqı kórinisine, dem alıw tezligine hám pulsqa tásiri haqqında maǵlıwmatlar bar. Alınǵan maǵlıwmatlar analiz etildi hám keyingi soǵan uqsas jarıslardı ótkeriwdi usınıs etiw ushın úyrenildi.

1926 jılda Tashkentte Ózbekstanda birinshi ret walayatlarda medicinalıq qadaǵalawdı shólkemlestiriw ushın dene tárbiyasınan shtatlı shıpaker etip Ilinsiy I. P. tayınlandi. Ol barlıq sport jámáátleri "Profinteri", "Dinamo", "Krasniy pechatnik" hám basqa sportshılar, dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlardı medicinalıq xızmet menen támiyinledi, dene tárbiyasın úgit nasiyatlaw salasında úlken jumıslar etdi hám salamatlıq ushın miynet ónimliligin asırıw ushın oniń áhmiyetin ashıp berdi.

1926 jılda Samarqand qalasında Ózbekstannıń birinshi dene tárbiyası kásiplik awqamları bayramın ótkeriwge tayarlıq - medicinalıq qadaǵalaw rawajlanıwında keyingi basqısh bolıp tabıladı. Jarısta qatnasıw ushın sog'ligi qanaatlanǵan bolǵan, fizio-logik hám fizikalıq tayınlıǵın etarli bolǵan shaxslarǵa ruxsat etildi. Jarıs urıs qatnasıwshısıları eki retten medicinalıq kórikten ótkerildi (shınıǵıw, trenirovka baslanıwınan aldın hám jarısqa jiberiwden aldın ). SHaxsiy quram úlken shıpaker, dene tárbiyası instruktori hám kásiplik awqamı baslıǵı tárepinen tastıyıqlandi. Jarıs baslanıwı aldından dene tárbiyası bayramı urıs qatnasıwshısıları arnawlı shıpakerler komissiyasınan qosımsha tekseriwden ótken ediler.

1928 jılda Samarqand, Qo'qon, Andijan wálayat komitet-larida dene tárbiyası bólimlerine shtatlı shıpakerler kirgizildi. Bul qalalarda islep turǵan hám jańa ashılǵan mektep-profilaktikalıq ambulatoriyalarda dene tárbiyası menen shug'ul-lanuvchilarni támiyinlew ushın shıpakerler kabinetleri dúzildi. Tashkentte mektep profilaktikalıq ambulatoriya shtatına dene tárbiyası boyınsha qosımsha shıpaker kiritiledi, bul lawazımǵa shıpaker Fredrix tayınlanadı.

Arxiv materiallarında wálayat dene tárbiyası shıpakerleri esabatlarınıń joq ekenligi olar tárepinen etilgen jumıslar kólemin bahalawǵa múmkinshilik bermeydi. Tek Tashkent medicinalıq dene tárbiyası kabineti jumısları haqqında maǵlıwmatlar bolıp, bunda 1928 jıl dawamında 2777 kisi qabıl etilgen, jumısshılardan 1410 adam er adam (orıslar), 470 adam hayal, 171 ózbek, 726 mektep oqıwshılardı (hár túrlı milletke tiyisli) bolǵan. [4;105]

Medicinalıq tekseriwler nátiyjesinde 744 (29,2) kisige salamatlıǵı hám fizikalıq tayınlıǵı sebepli jarıslarda qatnasıw ruxsat etilmegen.

1928 jıl iyulda ótkerilgen dene tárbiyasınıń II Uluwma Ózbekistan spartakiadasi respublikada medicinalıq qadaǵalawdıń keyingi keleshektegi rawajlanıwı ushın jaqsı faktor boldı. Bul spartakiadani támiyinlew ushın spartakiada baslanıwdan 1,5 ay aldın Uluwma Ózbekistan spartakiadasi shólkemlestirilgen komiteti quraminda respublika den sawlıqtı saqlaw xalıq komiteti tárepinen I.P Ilyansiy baslıqlıǵında bes shıpakerden ibarat bolǵan medicinalıq qadaǵalaw komissiyası dúzildi. Oraylıq medicinalıq qadaǵalaw komissiyasına jarıs urıs qatnasıwshısıların qadaǵalawı hám qayta medicinalıq kórikten ótkeriw, jarıs ótkeriletuǵın orınlardıń sanitariya -gigienik jaǵdaylarınıń ústinen qadaǵalaw, ayırım sport túrleriniń sportshılar organizmine tásirin úyreniw wazıypalari juklenedi. Shipakerler komissiyası aldına jarıs urıs qatnasıwshısılarınıń (velokross - 30 km, kross: er adamlar 8 km hám áyeller 1500 m, juwırıw 5 km, júriw 20 km, gúres hám awır taslardı kóteriw) júrek qan tamır sisteması xızmetlerin, azıqlıq almasınıw processlerin anıqlaw sıyaqlı anıq wazıypalar qoyıldı.

Esabat kórsetkishleri boyınsha 1946 jıl dawamında Tashkentte medicinalıq qadaǵalaw punkitinen 24329 adam tekseriwden ótti, usılardan 10386 adam dene tárbiyası urıs qatnasıwshıları, 6826 - mektep oqıtıwshıları, óner-texnika bilim orınları oqıwshıları hám 7117 joqarı oqıw orınları studentleri edi.

1947 jılda dene tárbiyası hám sport penen shuǵıllanatuǵın adamlardıń salamatlıǵın medicinalıq qadaǵalawǵa alıw ushın qala den sawlıqtı saqlaw bólimine shıpaker shtatı lawazımı kirgizildi. Sol jıldan baslap qala medicinalıq dene tárbiyası kabineti iskerlik kórsete basladı jáne bul kabinet 1948 jılda qala medicinalıq dene tárbiyası orayına aylantırıldi. 1947 jılda dene tárbiyası háreketi salasında eń iri ilajlardan biri Moskvada bolıp ótetuǵın ulıwmalastırılǵan dene tárbiyası kursinda qatnasıw ushın 2000 dene tárbiyasıshı tayarlandi. Kurs urıs qatnasıwshısılarınıń tańlaw jumısları arnawlı tayarlanǵan quramda shıpaker I. P. Ilinskiy, O.G.Mudutseva, O.M. Jegallodan ibarat bolǵan medicinalıq baqlaw komissiyasınan ótkerildi. 1947 jıl Ózbekstanda medicinalıq dene tárbiyası kabinetleri tarmaqların shólkemlestiriwdi tamamlaw hám respublikada dene tárbiyası háreketin medicinalıq xızmet penen támiyinlew islerdiń sapasın jáne de asırıw jılı boldı. Bul waqıtqa kelip xalıq den sawlıqtı saqlaw komiteti tárepinen

respublikada dene tárbiyasınan 35 shıpaker lawazımı, yaǵnıy hár bir wálayatda ortasha 2-3 shıpaker lawazımdı shólkemlestiriw názerde tutildi. Sol jıllarda valantyor sport jámiyetlerde, mektep, joqarı oqıw orınları hám shólkemlerde dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar sanı jáne de asdı. Bul hal den sawlıqtı saqlaw shólkemlerinen dene tárbiyashılardı medicinalıq xızmet menen támiyinlew jumıslarına poliklinika tarmaqları hám shólkemler shıpakerleriniń úlken bólegin qosıwdı talap etedi. Bul waqıtta 147591 kisi medicinalıq kórikten ótti, ol dene tárbiyası menen shuǵıllana arıtǵanlardıń 80% in quradı. Ózbekstan den sawlıqtı saqlaw ministrliginiń bes jıllıq (1946 -1950 jıllar) programmasında medicinalıq dene tárbiyası jumıslarına 230 shıpaker hám emleytuǵın dene tárbiyası boyınsha 230 dane instruktor-metodist tayarlaw názerde tutildi. 1948 jıl iyun ayında Ózbekstan den sawlıqtı saqlaw ministrligi buyrıǵına qaray, Tashkentte iri respublika medicinalıq dene tárbiyası metodikalıq orayı dúzildi Bul oray quramında bes shıpaker bar edi, metodikalıq oray basqarıwshısı etip shıpaker O.M. Jegallo tayınlandi. Tez waqıt ishinde sonday medicinalıq dene tárbiyası orayları iri qalalar Samarkand, Andijan, Ferǵana hám Buxarada dúzildi.

1948 jılda medicinalıq dene tárbiyası kóriginen 151175 kisi ótip, olar medicinalıq gruppalarǵa bolındı. Sonı atap ótiw kerek, gruppalarǵa bolıw 1948 jıldaǵı instruktiv kórsetpe bolıp tabıladı.

1948 jılda respublikada jaslar birinshi ret medicinalıq dene tárbiyası kóriginen ótken, dene tárbiyası menen shuǵıllanatuǵınlar medicinalıq gruppalarǵa bólinedi. Olardıń salamatlıq jaǵdayın, fizikalıq rawajlanıw hám fizikalıq tayarlıǵın esapqa alǵan halda tiykarǵı, kúshli hám kúshsiz medicinalıq gruppalarǵa bolındı. Sol jıldan baslap sportshılardıń shiniqqanlıǵın anıqlawda Letunov sinamasi qollanıla baslandı. Den sawlıqtı saqlaw ministrligi buyrıǵı menen 1950 jılda medicinalıq dene tárbiyası orayları medicinalıq dene tárbiyası dispanserlerine aylantırıladı. Usınıń sebepinen Tashkent shtatında bes kisi bolǵan respublika medicinalıq dene tárbiyası dispanseri dúzildi, baslıq etip V.A. Batokova tayınlandi hám sonıń menen birge qala medicinalıq dene tárbiyası dispanseri shólkemlestirilip, buǵan O.M.Jegallo basshılıq etdi. Buxara, Samarqand, Ferǵana, Andijan hám Namangan shtatında keminde bir dana shıpaker bolǵan wálayat

medicinalıq dene tárbiyası dispanserlari shólkemlestiriledi. Qóqan, Chirchiq hám Urǵenshde bir shtatlı medicinalıq dene tárbiyası kabinetleri saqlanıp qaldı.

1955 jılda húkimet sheshimi tiykarında dispanserlar emlew profilaktikalıq mákemeler qasındaǵı medicinalıq dene tárbiyası jaǵdaylarına ótkeriledi. 1959 jıldan baslap respublikada dene tárbiyası háreketiniń kúshli rawajlanıwı sebepli aldıngı iskerlikte bolǵan medicinalıq dene tárbiyası dispanserlari taǵı qayta tiklendi. 1960 jılda Tashkentte qala hám respublika medicinalıq dene tárbiyası dispanserlari birlestirildi hám baslıq etip shıpaker M. B Frank tayınlandi. M. B. Frank dispenserǵa 40 jıl dawamında basshılıq etdi. Respublikada medicinalıq qadaǵalawdı shólkemlestiriwde jáne onıń rawajlanıwında 1958 jılda islengen Ózbekstan dene tárbiyası instituttıń sport medicinası hám emleytuǵın dene tárbiyası kafedraları zárúrli áhmiyetke iye boldı. Kafedrada studentlerge medicinalıq qadaǵalaw hám emleytuǵın dene tárbiyası usılları uyretildi, kafedra respublikaǵa emlew dene tárbiyasınan instruktorlar, sport massajı boyınsha qánigeler tayarlab beredi.

Within the foreign language technical terms, the specialist researchers focused on topics suitable for accepted study directions at the Faculty of construction Institutions. Therefore, we can demonstrate the appropriate academic study material from English texts on topics such as job application, in which we have prepared to exercise typical language for talking about their work, the most used questions asked during the interview, English work on the narrative on deadline, memos to employees, how to write a report, an apology or complaint letter. we suppose that currently very topical are global environmental issues in which It be focused on issues close to material recycling and the process of burning. Thus, we have prepared a rich offer of testing activities in the context where they have the opportunity to study and verify their knowledge of the above vocational building terminology. Similar issues are solved by students also within foreign languages technical text and language.

## References

1. Bielousova, R. & Gluchmanova, M. (2011). Essential English for Manufacturing Technicians. FVT TU: Prešov.

2. Bukerová, V. (2014). Budúcnosť je online. Profit, 7, 49-51.

3. Glendinning, E.H. (2007). Technology I. Oxford: Oxford University Press.

4. Tomlinson, B. (2011). Materials Development in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

5. Engineer for the Future, (in Polish), accessed: 4.04.2016, http://ip.projekt.put.poznan.pl/projekt/, 2015.

6. Prudnikova, N.N. Nolingvistik universitetlarda talabalarning chet tili kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogic texnologiyasi: dissertatsiya avtoreferati. dis. ...kand. ped. Fanlar: 13.00.01 / N.N. Prudnikova. – Saratov, 2007. – 23 b.

7. Slesarenko, I.V. Zamonaviy texnik universitetda tillarni o'qitish vazifalari / I.V. Slesarenko // Rossiyada oliy ta'lim. –2009. – No 11. – B. 151 – 156

**UDK:** 37.014.3

# TA'LIM OLISH SIFATINI BAHOLASHNING KVALIMETRIK TAMOYIL VA USULLARI

***Samadov Ulug'bek Sameyevich***
*Guliston davlat universiteti mustqil izlanuvchisi,*
*E-mail:* ulugbeksamatov078@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Bugungi kunda kvalimetrik tahlil texnologiyasida invariantlik va diskretlik tamoyillariga asoslangan ta'lim kvalimetriyasi nazariyasi qo'llaniladi. Ta'lim jarayoni sifatini baholash tajribalari yakuniy natijani tahlil qilish va unga erishishning to'g'riligini nazorat qilish asosida amalga oshiriladi. Ta'lim sifatini baholovchi ta'lim dasturlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini statistik nazorat qilish orqali o'lchanadi.Ushbu maqolada kvalimetrik tahlil usulining samaradorligi talabalar ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi bilan tasdiqlanganligi keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:****Kvalimetriya, talabalar, o'quv jarayoni sifatini baholash, ekspert baholash, ta'lim sifati darajasini aniqlash, iyerarxik tuzilma.*

***Аннотация:*** *Сегодня в технологии качественного анализа используется теория образовательной квалиметрии, основанная на принципах инвариантности и дискретности. Эксперименты по оценке качества образовательного процесса проводятся на основе анализа конечного результата и контроля правильности его достижения. Оценка качества образования измеряется путем статистического контроля знаний, навыков и квалификации по образовательным программам. В статье показано, что эффективность метода качественного анализа подтверждается положительной динамикой успеваемости студентов.*

***Ключевые слова:*** *Квалиметрика, студенты, оценка качества образовательного процесса, экспертная оценка, определение уровня качества образования, иерархическая структура.*

***Annotation:*** *Today, the technology of qualitative analysis uses the theory of educational qualimetry, based on the principles of invariance and discreteness.*

*Experiments to assess the quality of the educational process are conducted based on the analysis of the final result and control of the correctness of its achievement. The assessment of the quality of education is measured by statistical control of knowledge, skills and qualifications in educational programs. The article shows that the effectiveness of the qualitative analysis method is confirmed by the positive dynamics of student performance.*

***Keywords:*** *Qualimetrics, students, assessment of the quality of the educational process, expert assessment, determination of the level of quality of education, hierarchical structure.*

**KIRISH.**Yurtimizda Prezidentimiz tomonidan 2023 yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim", deb nomlanishi, barcha islohotlar zamiri "Inson qadri uchun" degan tamoyilga asoslanishini yana bir bor isbotladi. Bugun mamlakatimizda ilm-fanning rivojlanishi, yurtimizning zamonaviy texnologiyalar asosida ravnaq topishida ta'lim tizimiga e'tiborni kuchaytirish eng dolzarb masala hisoblanadi.Respublikamizda ta'limni modernizatsiya qilish konsepsiyasiga muvofiq, sifat menejmenti tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- yagona xalqaro mezonlar tizimi (ISO 9000, ENQA) asosida ta'limga tizimli yondashuv;
- professor-o'qituvchilar tomonidan umumiy sifat menejmenti (TQM) tamoyillarini qo'llash;
- sifat menejmentining tashabbuslari va ilg'or usullarini joriy etish; takomillashtirilishi mumkin bo'lgan jarayonlarning obyektiv, faktlarga asoslangan baholarini olish;
- oliy o'quv yurtlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha zarur harakatlarni muvofiqlashtirilgan tarzda anglash;
- kafedralar, professor-o'qituvchilar va xodimlarning yutuqlarini tan olish va rag'batlantirish imkoniyati [2].

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.**Ta'lim sifatini nazorat qilish quyidagi vazifalarni bajaradi: nazorat qilish (talabalarning bilim, ko'nikma va aqliy rivojlanishini, shuningdek, o'quv ishlarining to'g'ri bajarilishini tekshirish); o'qitish (bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish); diagnostika (xatolar

soni va tabiati, talabalarning bilim va ko‘nikmalaridagi zaif tomonlari haqida ma’lumot); pronozlash (o‘quv jarayoni haqida ilg‘or axborotlarni shakllantirish (ekstrapolyatsiya)); rivojlantirish (talabalarning bilish faolligini rag‘batlantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish); yo‘naltirish (maqsadga erishish darajasi); tarbiyalash (ta’lim olishga mas’ullik bilan munosabat, intizom, aniqlik, halollik).

Hozirgi kunda fanlar sifatini miqdoriy tavsiflashga qaratilgan butun ilmiy yo‘nalish faol rivojlanmoqda, ya’ni kvalimetriya. Kvalimetriya (lotincha “quails (kvali)” – “sifat” va qadimgi yunoncha “metrio (metro)” – “o‘lchash”) – har qanday obyektlar (predmetlar, hodisalar, jarayonlar) sifatini majmuaviy va ba’zi hollarda tizimli miqdoriy baholashni rivojlantirish metodologiyasi va muammolarini o‘rganadigan ilmiy bilimlar sohasidir.

Kvalimetriya – har qanday tabiatdagi obyektlar: jonli yoki jonsiz, obyektlar yoki jarayonlar, mehnat mahsulotlari yoki moddiy yoki ma’naviy tabiatdagi tabiiy mahsulotlar sifatini har tomonlama, miqdoriy baholash metodologiyasi va muammolarini o‘rganadigan ilmiy fan.

Kvalimetriya obyekti – bu sifatni baholash tamoyillari va usullarini o‘rganish, predmeti esa inson o‘zining amaliy faoliyatida aloqada bo‘lgan predmetlar va jarayonlarning sifat tarkibiy xususiyatlarining to‘plamidir. Shuningdek, kvalimetriyaning predmeti sifatni miqdoriy jihatdan baholashdan iborat.

Kvalimetriyaning maqsadi ma’lum bir baholanadigan obyektning sifatini ma’lum bir obyektning ijtimoiy yoki shaxsiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi yagona son bilan ifodalash mumkin bo‘lgan usullarni ishlab chiqish va takomillashtirishdir.Ta’lim kvalimetriyasi ta’lim tizimini isloh qilish, litsenziyalash, attestatsiyalash, ta’lim tizimida davlat akkreditatsiyasi tizimlarini shakllantirish va ta’limning davlat standartlarini ishlab chiqishni rag‘batlantirish ta’siri ostida faol rivojlanmoqda.A.I.Subetto ta’kidlashicha, ta’lim kvalimetriyasi “ta’limning sintetik kvalimetriyasi” bo‘lib, unda sintetik kvalimetriyani uslubiy tashkil etish uchta darajada aks etadi: umumiy kvalimetriya, maxsus va predmet kvalimetriyasi.

**TADQIQOT NATIJALARI.**Kvalimetriya sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, matematika, kibernetika kabi fanlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan,

u matematikadan koʻp oʻlchovli statistik, faktorli va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanadi.Ulardan foydalanish amaliy matematikaning turli boʻlimlarini, xususan, tizimlar nazariyasi, taksonomiya va boshqa bir qator boʻlimlarni qoʻshimcha ravishda ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Bundan tashqari, kvalimetriyada sotsiologik kvalimetriya usullaridan keng foydalaniladi. Shu munosabat bilan bir qator olimlar asarlarida kibernetik va matematik usullardan foydalanishni asoslaydilar.

Bunda kibernetika va matematikaning boshqaruv nazariyasi, matematik modellashtirish nazariyasi, algoritmlar nazariyasi va boshqalar kabi boʻlimlaridan foydalaniladi.

Kvalimetriya uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

1.Sifatga alohida xususiyatlarning yagona birikmasi sifatida yondashish, ularning har biri oʻzining tabiati va boshqa xususiyatlari (ularning salmogʻi va ahamiyatini hisobga olgan holda) bilan bogʻliqligi tufayli mahsulot sifatining iyerarxik tuzilishini shakllantirishga ta’sir qiladi.

2.Har qanday alohida xususiyatlarni ham, ularning birikmalarini ham, shu jumladan majmuaviy yoki integral sifatni ham miqdoriy shaklda oʻlchashning amaliy imkoniyatini nazariy tan olish.

3.Boshqarishning turli darajalarida rejalashtirish va nazorat qilish muammolarini hal qilish uchun mahsulotlarni miqdoriy baholash usullarining amaliy zarurligini tan olish.

Kvalimetriya ilmiy fan sifatida ikkita yoʻnalishga ega: nazariy va amaliy. Amaliy kvalimetriyada turli boʻlimlar shakllangan: geografik kvalimetriya, qurilish kvalimetriyasi, mexanizmlar kvalimetriyasi va boshqalar. Pedagogik kvalimetriya ham mustaqil yoʻnalish sifatida maydonga chiqdi, bunda psixologik, pedagogik va didaktik obyektlarni baholashda kvalimetriya usullarini qoʻllash sifatida tushuniladi.

**XULOSA**. Xulosa qilib aytganda, kvalimetrik yondashuv biz tomonimizdan ta’lim sifatini oliy oʻquv yurtidagi boshqarishning amaliyotga yoʻnaltirilgan taktikasi sifatida koʻrib chiqildi va uni texnologik qoʻllab-quvvatlash uchun kvalimetriya gʻoyalaridan foydalanildi.Shu bilan birga, kvalimetriya keng ma’noda – har qanday obyektlar, hodisalar yoki jarayonlarning sifatini majmuaviy, ayrim

hollarda esa tizimli miqdoriy baholashni ishlab chiqish metodologiyasi va muammolarini oʻrganadigan ilmiy bilim sohasi sifatida talqin etildi. Fikrimizcha, kvalimetrik yondashuvning asosi uni konseptual jihatdan birlashtirilgan va izchil qiladigan tamoyillar va talablar tizimidir. Biz ta'lim sifatini boshqarish muammolariga qoʻllaniladigan kvalimetrik yondashuv asosidagi tamoyillar tizimini, birinchidan, gumanitar fanlardagi tadqiqot usullarini tahlil qilish asosida, ikkinchidan, matematika, mantiq, kibernetikaning imkoniyatlari asosida, uchinchidan, kvalimetriyaning nazariy va uslubiy qoidalari asosida, toʻrtinchidan, boshqaruv nazariyasi va axborot texnologiyalari gʻoyalari asosida yaratamiz. Kvalimetrik yondashuv sifatni alohida xususiyatlarning yagona dinamik birlashmasi sifatida tushunishga asoslangan boʻlib, ularning har biri uning iyerarxik tuzilishini shakllantirishga ta'sir qiladi. Ushbu yondashuv har qanday alohida xususiyatlar va sifatlar hamda ularning birlashmasi kabi miqdoriy shaklda oʻlchashning amaliy imkoniyatlariga asoslanadi. Shu bilan birga, u boshqaruvning turli darajalarida rejalashtirish va nazorat qilish vazifalarini hal qilish uchun mahsulotlarni miqdoriy baholash usullari zarurligini tan olishdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022 (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoev "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026". - Tashkent, 2022).

2. A'loxon Alikariyeva. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. Журнал социальны исследований. Journal of social studies. №1(2023) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-1

3. Abdullayeva Gulchexra Abdullajonovna, Allayarova Soliha Narzulloyevna. Ta'lim muassasasidagi tarbiya / Воспитание в учебном заведении. 2021, 12 (109).63-70 betlar.

4. Abdullayeva G.A. (2021) Oʻquvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini baholashning ayrim masalalari // Academic research in educational sciences. №NUU Conference 1.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarning-ma-naviy-axloqiy-tarbiyasini-baholashning-ayrim-masalalari (дата обращения:

02.12.2021).

5. Nafasov, G. A. (2023). Determination of the Low Pressure Zone of the Water Conducting Tract of Reservoirs. Genius Repository, 25, 28-32.

6. Нафасов, Г. А., & Едгоров, Д. Д. (2023). Развитие когнитивной компетентности учащихся посредством преподавания элементарной математики. Международный научно-практический электронный журнал «моя профессиональная карьера». Выпуск № 52 (том1)(сентябрь, 2023). Дата выхода в свет: 30.09. 2023., 143.

7. Nafasov, GA (2023). Suv omborlarining suv o'tkazuvchi traktining past bosim zonasini aniqlash. Genius ombori , 25 , 28-32.

8. Abdurashidovich, NG (2021). Boshlang'ich matematikani o'qitish jarayonida oliy o'quv yurtlari talabalarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari. Evropa molekulyar va klinik tibbiyot jurnali , 8 (1), 789-806.

9. Abdullayeva, B. S., & Nafasov, G. A. (2019). Current State Of Preparation Of Future Teachers Of Mathematics In Higher Education Institutions. Bulletin of Gulistan State University, 2020(2), 12-17.

10. Nafasova, G., & Pardaveva, E. (2023). Bo'lajak fizika o'qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishda samarali fizika o'qitish metodlari. Евразийскийжурнал математической теории и компьютерных наук, 3(4), 50-53.

11. Abdurashidovich, N. G. Requirements for the selection of content for heuristic tasks in the teaching of elementary mathematics to future mathematics teachers.

12. Нафасов, Г. А., & Мирхайдаров, М. Х. (2022). Изучение интегрирования биномиальных. Research and education, 205.

13. Kengash, J., & Abdurashidovich, N. G. (2023). To approximate solution to a problem of filtration theory for small values of TIME. Texas Journal of Engineering and Technology, 19, 32-37.

14. Abdurashidovich, N. G., Tagayevich, D. U., & Mirkomilovich, K. M. (2023). The Use of Technology in The Approximation of Didactic Units in The Training of Future Mathematics Shooters on The Basis of Innovative Education. Genius Repository, 24, 34-38.

15. Nafasov, G., Xudoyqulov, R., & Usmonov, N. (2023). DEVELOPING

LOGICAL THINKING SKILLS IN MATHEMATICS TEACHERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 229-233.

# KUTUBXONA TIZIMINING MOHIYATI VA UNING JAMIYATDAGI O`RNI

***Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qızı***

*Namangan davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada jamiyat hayotida kutubxona ishining ahamiyati va uning o'ziga xos tizimlari atroflicha tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kutubxona, jamiyat, ma'naviyat, axborot, kutubxona turlari, ma'naviy ehtiyoj, adabiyot*

Uzoq yillik istibdoddan so`ng O`zbekiston respublikasi ham o`z mustaqilligini qo`lga kiritib, ajdodlarning asrlar davomida qalbida yashab kelgan orzu umidlari o`shaladigan bo`ldi. Avlod-ajdodlarimiz bir zamonlar birlamchi ehtiyojinigina zo`rma zo`rakilik bilan qondirgan bo`lsa-da, uning ertangi yorug' kunlari eltuvchi ilm- ma`rifat va ziyoga intilib yashaganlar. Tarix tajribasidan bunga ko`plab misollar keltirish mumkin bo`ladi. Ayni ana shu damlarda ham insonni harakatlarnitiruvchi, ilm-ziyoga chorlagan omil bu kitob bo`lgan. Mustaqillik kutilganidek O`zbekistonga katta ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o`zgarishlarni olib keldi. Markazlashtirilgan buyruqbozlik barham topdi. erkin iqtisodiy aloqalar tizimiga o`tildi. Mustaqillik sharofati bilan bir qancha afzalliklarga erishildi. Ular qatorida insonni ruxan ulg'ayishiga chorlagan ma`naviyatni shakllantirish omili bo`lgan kitob va kutubxonachilikda ham bir qator yangi izlanishlar, modernizatsiya qilish ishlari olib borildi. Jumladan, elektron hisoblash texnikalari, internetdan foydalanish, elektron kataloglaridan foydalanish, adabiyotlarning elektron versiyalaridan foydalanish kitobxonlarga yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Madaniyatlilikning ajralmas tarkibiy qismi-bu kutubxonachilik, ya'ni axborot xizmatidir. Bu xizmat turini amalga oshirilar ekan, kitobning qay darajadagi nodir boylik ekanligini oddiy xalq ongiga singdirish, u ertangi farovon hayotni yaratishda muhim ob`ektiv omil ekanligini uqtirish

lozim. Kitob-yuksak darajada rivojlangan ma'lum tuzilmadir. Kitob-jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismidir. Buni o`tgan ulug' allomalar tomonidan aytilgan ibratomuz ibora va maqollar ham tasdiqlaydi.

G'arb faylasufi A. I. Gertsen fikricha, kitoblar bir avlodning boshqa avlodga qoldirgan ma`naviy vasiyati, umri tugagan keksaning hayotga hayotgaendiqadam qo`ya boshlagan o`smirga pand-nasixati, dam olishga otlangan soqchiningnavbatchilikka turgan soqchiga bergan buyrug'idir.

Insoniyat madaniyati taraqqiyotining eng to`liq va har tomonlama ifodasi sifatida kitobning shaxsni tarbiyalashda uning aqliy rivojlanishida ahamiyati kattadir.

Kutubxona- jarayonlarning birligini, kutubxona sistemasining boshqaruvini ta'minlash va shu asosda kitobxonlarga xizmat ko`rsatish-markazlashtirish tizimining eng muhim mezonidir.Kitoblar-aholini g'oyaviy,siyosiy va axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda ularni umum-ta'lim, madaniyat va kasbiy bilimlarini oshirishda xizmat qiladi. Har bir kutubxona markaziy kutubxona tizimining tarkibiy qismi bo`lib, u tashkilot rahbarligida ishlaydi.

Markaziy kutubxona tizimida abonoment, o`quv zali, kitobxonlarga xizmat ko`rsatish bo`limlari va ixtisoslashgan bo`lim va sektorlar bo`lishi mumkin.

Kitobxonlarga xizmat ko`rsatish bo`limii, adabiyotlarga ishlov berish bo`limi, yagona fond va kutubxonalararo abonomentdan foydalanish bo`limi, markaziy kutubxona tizimining strukturasi (tuzilishi)ni hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda ijtimoiy, madaniy va xalqaro hayotning deyarli barcha sohalarida ijobiy o`zgarishlar Yuz berdi. O`zbekiston jahon hamjamiyatiga qo`shilishi bobida faol va samarali qadamlar qo`yildiki, bu ko`p jihatdan mamlakat fuqorolariga axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish darajasi bilan bog'liqdir. Kishilik jamiyati tarixi bilmaslikdan bilishga tomon tutilgan yo`l, hur fikrlikning jaholatparastlikka qarshi kurashi, aql-idrok va ma`rifatning nodonlik va mutaassiblik ustidan g'alabasi tarixidir. Insoniyat uzluksiz ijtimoiy taraqqiyot yo`lidan olg'a qarab bormoqda. Inson tafakkurining buYuk g'alabalarini o`zida saqlab kelayotgan insoniyatning ijtimoiy xotirasi esa ana shu taraqqiyot asosini tashkil etadi. Ijtimoiy xotira hamma davrlarda axborotni

qayd qilish yoki ro`yxatga olish, satrlash, qaytadan tiklash va avloddan-avlodga etkazishning muayyan davrga mos bo`lgan shakllarini topar edi.Odatda bu shakllar ma`lum sifatga ega bo`ladi.Insoniyat tarixining ibtidosida tilning paydo bo`lishi dastlabki tajribalarni o`zlashtirishda, mehnat qurollarini takomillashtirishda, ulardan foydalanishda hal qiluvchi rol' uynadi. Fikrlarni uzoq vaqt mobaynida saqlashga, ularni bir kishidan ikkinchi kishiga, avloddan-avlodga etkazishga imkon bergan yozuv eng muhim belgilar tuzilmasi bo`lib qoldi.

O`z navbatida kitobning o`zi Yuksak darajada rivojlangan ma`lum tuzilmadir.Ko`p asrlar davomida kitobning tashqi ko`rinishi, mujassam holda namoyon bo`lishi,ishlab chiqarilishi uzluksiz ravishda takomillashib keldi. Antik davrning o`rama kitoblari o`rniga, eramizning IV- asrida, hozirda biz foydalanayotgan muqovalangan qo`lyozma kitob paydo bo`ldi. Bizning davrimiz matn va rasmlarlar bilan berilgai axborotlarni qayta ishlashning elektron uslublarini joriy etish yo`li bilan kitob chikarishni tubdan o`zgartirib Yubordi. Kitob jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismidir. Insoniyat madaniyati taraqqiyotining eng to`liq va har tomonlama ifodasi sifatida kitob ko`p asrlar mobaynida shaxsni tarbiyalashda va uning aqliy rivojlanishida muhim rol' o`ynaydi.

Kutubxonalarning tiplari kutubxonashunoslik fanining eng dolzarb va murakkab muammolaridan biridir. Hozirgi kunda ommaviy, madaniy-ma`rifiy va ilmiy axborot muassasalari bo`lmish kutubxonalarning roli uzluksiz o`sib bormoqda. Kutubxonalar madaniyat Yutuqlaridan foydalanish borasida fuqorolarning asosiy insoniy huquqlarini keng ro`yobga chiqarish imkonini beradi, onglilikni oshirishga ko`maklashadi, faol hayotiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Yozma axborot manbalari (kitob, gazeta, jurnal va hokozolar) jamiyatning ma`naviy va ijtimoiy-maishiy talab-extiyojlarini qondirishga qaratilgan bo`lib, butun insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shu vazifani bajarib keldi. Yozma hujjatlar kishilarning o`zaro fikr almashuv imkoniyatlarini kengaytiradigan bo`lsa, kutubxonalar yozma asarlar umrini uzaytirish vositasi xisoblanadi. Boshqa ijtimoiy muassasalar kabi kutubxonalar

xam jamiyatning eng zaruriy ehtiyojlari asosida vujudga keldi va. rivojlandi. Sababi, ma`lumotlarni kayd qilish va uzatish vositasi sifatida ijtimoiy zaruratga javob beradigan yozuvning paydo bo`lishi bilan eng muhim yozuvlarni tanlay oladigan muassasalarni vujudga keltirish extiyoji xam Yuzaga kelgan edi. Shunday qilib, kutubxonalar avval boshdanoq, jamiyatning mu`tadil mavjudligini ta`minlaydigan uning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Kutubxona bosma va ayrim yozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta`minlovchi madaniy ma`rifiy va ilmiy muassasadir. U muntazam ravishda bosma asarlarni to`plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga etkazish, shuningdek,axborot-biblografiya ishlari bilan shug'ullanadi.

Kutubxona-bu kitoblar va kishilik jamiyati tarixi majmuasidir,shu ma`noda u insonparvar muassasadir. Kutubxonalarda insoniyat erishgan barcha ilmlar turli fan sohalari bo`yicha kitoblar to`plangan. Jamiyat tomonidan, uning asosiy ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida barpo etilgan kutubxonalar zulmatga, nodonlik va jaholatga qarshi kurashdi.U insoniyat borligining buYuk xujjatlashgan guvohi sifatida yashamoqda. Shu sababdan unga zarurat sezgan har bir kishi undan foydalana olishi hamda kutubxonalar hamma uchun ommabop bo`lishi zarur.

Kutubxona tiplari belgilarning umumiyligi(bir xilligi) bo`yicha kutubxonalarning ilmiy tavsifi bo`lib, u kutubxonalarni tiplari, turlari va xillari bo`yicha taqsimlash imkonini beradi.

Kutubxonalar tiplari va turlarini bilish kutubxonalarni, umuman ularning tarmoqlari va sistemalarini tashkil qilishning umumiy o`ziga xos xususiyatlari, vazifalari, aloqalari, munosabatlari, darajalari to`g'risidagi tasavvurlar asosida ularni tabaqalashtirishga imkon beradi. Bu esa, o`z navbatida,kitob fondlari tarkibi va sistemasini shakllantirish, kitobxonlarning talablarini to`laroq qondirish kabi kutubxonachilik qurilishining dolzarb muammolarini tegishli darajada hal etadi va pirovard natijada kutubxonalar yagona sistemasining samarali ishlashini ta`minlaydi.

Turli tip va xildagi kutubxonalar faoliyatining umumiy va o`ziga xos xususiyatlari shundaki, jamg'armaning tuzilishi va jamg'armaning tarkibi ma'lum bir maqsad sari yo`naltirilgan,mutaxasislar va hamkorlar yordamida kitobxonlar

talablarini qondirish, kutubxonalar tizimi shakllarini o`rganish va ish olib borish Bilan kutubxonalar ishini boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo`ladi.

YUNESKOning taklifiga binoan, kutubxonalarni qo`yidagicha tasniflash qabul qilingan:

1.Milliy kutubxonalar.

2.Respublika kutubxonalari.

3.Viloyat ilmiy-universal kutubxonalari.

4.Tuman,shahar kutubxonalari.

5.Qishloq kutubxonalari.

6.FA va boshqa akademiyalar kutubxonalari.

7.Oliy  o`quv Yurtlarining kutubxonalari.

8.Ta’lim tizimidagi kutubxonalari.

9.Vazirliklar,korxonalar,tashkilotlar tasarrufidagi kutubxonalar.

10.Ko`zi ojizlar uchun kutubxonalari.

11.Jamoatchilik tashkilotlarining kutubxonalari..

12.Shaxsiy kutubxonalar.

13.Xorijiy shaxslar,shuningdek,xalqaro tashkilotlarning kutubxonalari.

14.Boshqa ixtisoslashgan kutubxonalar.

Kutubxonalarni tiplarga ajratish katta nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Kutubxonalarning qaerga joylashganligi va xususiyatlari, ularning qanday kitoblarga mo`ljallanganligi va mamlakatning kutubxona mussasalari tizimida tutgan o`rni belgilab olinadi. Kutubxonalarni tiplarga ajratish aholining turli guruhlarining o`ziga xos talablarini aks ettiradi va kitobxonlarga aholida xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish uchun asos bo`ladi.

Kutubxonalarni tiplarga va turlarga ajratish  statistikaga tadbiq qilinadi. Va kutubxonachilik ishini rivojlantirishning ahvoli hamda an’analarini o`rganish imkonini beradi,bu esa kutubxonalarning ishiga rahbarlik qilishni bir qadar osonlashtiradi.

Madaniy merosning vorisligida, avlodlarning jonli aloqasini o`stirishda kutubxonalar xizmati muhim rol o`ynaydi. O`ziga xos qadimiy, madaniy

merosimizning tiklanishida, ona tilimizning saqlanishi va rivojlanishida asosiy o`rin egallaydi.

Kutubxona-bu kitoblar va kishilik jamiyati tarixi majmuasidir. Kutubxonalarda insoniyat erishgan barcha ilmlar turli fan sohalari bo`yicha kitoblar to`plangan. Kutubxonalarning ijtimoiy roli aniq tarixiy sharoitda namoyon bo`ladi. Kutubxonachilik ishi esa o`ziga xos mustaqil yo`llar bilan rivojlanmaydi, balki jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga buysunadi.

Buyuk Xind kutubxonashunos olim Sh.R.Rangatan (1892-1972) tomonidan kutubxonachilik ishining 5 ta qonuni asoslab berilgan:

1.Kitoblar o`qish uchun xizmat qiladi.

2.Har bir kitobning o`z kitobxoni bo`lsin.

3.Xar bir kitobxonning o`z kitobi bo`lsin.

4.Kitobxonlar vaqtini asra.

5.Kutubxona o`sib borayotgan organizmdir.

Bu qonuniyatning 2 chi va 3 chilari bir-birlari bilan uzviy bog’liqdir.

Kutubxonaning kitob fondidan foydalanish qay darajada bo`lishdan qat’iy nazar, uning bilimlar xazinasi ekanligi xaqiqatligicha qoladi, qaysiki unda insoniyatning ruhiy boyliklari, durdonalari to`plangandir.

Haqiqiy kutubxonachi nashrlar ummonidan zarur kitoblarni to`plab, kutubxonalar fondini boyitadigan, shu kitoblarni tartibga keltiradigan va ularni o`z kitobxoniga yetkazadigan shaxsdir.

## ATROF-MUHITNING TABIIY VA ANTROPOGEN YO’LLAR BILAN IFLOSLANISHI

***Tolibayeva Dinara***

*Navoiy davlat konshilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konshilik instituti 2-kurs talabasi*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada atrof-muhit ifloslanishining asosiy sabablari hamda Ifloslanish turlari haqida fikr yuritilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalardan foydalanilgan. Maqola so’nggida xulosa va takliflar keltirib o’tilgan.*

***Kalit so'zlar***: *atrof-muhit, ifloslanish, kimyoviy moddalar, tabiiy ifloslanish.*

***Abstract.*** *This article discusses the main causes of environmental pollution and types of pollution. Reasonable opinions and comments are used throughout the article. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.*

***Key words***: *environment, pollution, chemicals, natural pollution.*

***Аннотация***. *В данной статье рассмотрены основные причины загрязнения окружающей среды и виды загрязнений. На протяжении всей статьи используются обоснованные мнения и комментарии. Выводы и предложения приведены в конце статьи.*

***Ключевые слова***: *окружающая среда, загрязнение, химические вещества, природное загрязнение.*

Sayyoramizdagi hayotiy muhitlar: havo, suv, tuprog'-u zamin va o'simlig-u hayvonlar olami hamda boshqa ko'plab muhim omillarning tabiiy sifat va miqdor ko'rsatkichlari hozirgi davrda keskin o'zgargan. Bunga insonlarning o'zlari sababchi, albatta. Aniqroq fikr bildiradigan bo'lsak, shu paytgacha insonlar barcha tur tabiiy manbalarga, ya'ni organik va noorganik borliqdan foydalanishda atrof — muhitga katta ziyon etkazgan desak, aslo xato bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, hozirgacha yer yuzida 80 mlrd. kishidan ortiq odamlar yashab o'tgan (Fransiyalik olimlarning hisob - kitobi) va so'zsiz, tabiatga turli davrlarda turlicha ta'sir ko'rsatishgan.

Yer yuzida odam zoti paydo bo'libdiki, o'zining barcha hayoti va faoliyati ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida atrof - muhitdagi hayotiy omillarga nisbatan doim tejamsizlik (nooqilona) munosabatida bo'lgan. Albatta, dastlabki davrlarda, ya'ni odamlar son jihatdan unchalik ko'p bo'lmagan ibtidoiy zamonlarda, tabiiy hududlar Yer yuzida yetarli darajada mo'l bo'lgan va atrof —muhit o'z tabiiy ko'rsatkichlarini tiklab turishga muvaffaq hambo'lgan. O'zini o'zi tiklay olish xislati tabiatga xos ekanligi ilmiy manbalarda yetarli darajada asoslab berilgan

Yuqoridagilardan tashqari, qayd etish joizki, o'tgan bir necha ming yilliklarda mehnat qurollari va turli sohalarda ishlatiladigan asbob-uskuna, boshqa vositalar ham hozirgidek, texnik jihatdan murakkab, ayniqsa, unchalik ko'p ham bo'lmagan. Demak, tabiiy muhit va hayotiy manbalarga kuchli ta'sir o'tkazilmagan,

desa bo'ladi. Atrof-muhit va tabiatga ta'sir so'nggi yuz yillik - XX asrda nihoyatda kuchayganligi, asosan, fan-texnika misli ko'rilmagan yuqori darajada bo'lganligidir.

Yer yuzida odamlar sonining jadallik bilan ortishi, shu bilan birga, ayniqsa, texnik taraqqiyot natijasida atrof-muhit va Yer tabiatida chuqur ekologik o'zgarishlar amalga oshdi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1000 yil oldin jami odamzod Yer yuzida atigi bir necha yuz million kishinigina tashkil etgan, XX asr boshiga kelib, 1,5 mlrd dan sal ortiqroq bo'lgan. So'ngra demografik o'sish nihoyatda kuchaygan (Demografiya - aholishunoslik fan sohasi). Fikrimiz isboti uchun ta'kidlash mumkin: 1940 yilda butun dunyoda odamlarsoni 2,3 mlrd, 1980 yili - 4,4 mlrd va 2000 yilga kelib esa, 6 mlrd kishidan ortib ketgan.

O'tgan asrda ilrn-fan va texnik kashfiyot va ixtirolarturlisoha ishlab chiqarishlarida amalda keng qo'llanila boshlandi ham. Buning negizida, so'zsiz - cheksiz ko'payib borgan insoniyat talab-ehtiyojlarini to'laroq qondirish zaruriyati yotadi, albatta. Kerakli barcha modda, mahsulot va materiallar faqat tabiiy manbalardan beayov foydalanish hisobigagina olina boshlandi: o'rmonlar qirqildi, bo'sh yotgan quraq Yerlar qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun o'zlashtirildi, ko'plab suv omborlari tashkil qilindi, turli-tuman yer usti va yer osti qazilma boyliklari qazib olinib, qayta ishlana boshlandi va hokazo. Xullas, dunyo miqyosida har xil sanoat korxonalari, texnika — transport vositalari, energetika inshootlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Ko'pchilikka yaxshi ayonki, deyarli hamma texnik va texnologik qurilmalardan atrof-muhitga tarkib-tuzilmalari bo'yicha o'ta zararli yot unsurlar, chiqindi moddalar sifatida, chiqarib tashlanmoqda.

Ular gaz, suyuq va qattiq holatdagi kimyoviy modda - mahsulotlardir. Aslida, ularni qayta ishlash ham mumkin. Lekin, ko'p hollarda, nafaqat qayta ishlash, hatto, ular yetarli daraj'ada tozalanmay va zararsizlantirilmasdan tashlab yuboriladi. Hozir ham, ko'pincha, shunday. Natijada, hayotiy muhitlar o'z tabiiy ko'rsatkichlarini yo'qotib, o'zgarib, pirovard natijada turli xil muammolar yuzaga keldi. Quyida Yerdagi 4 asosiy hayotiy muhitlar misolida, shu haqda ma'lumot beriladi

Havo muhitining Ifloslanishi. Ma'lumki, barcha tabiiy omillar uchun eng zarur havo muhitidir. Boshqacha aytganda, havo Yerdagi jami tirik organizmlar

(o'simliklar va hayvonlar) hamda jonsiz tabiat — mineral jinslar o'rtasidagi uzluksiz modda — energiya almashinish jarayonlarini amalga oshishini ta'minlaydi. Havo muhiti bo'lmaganda hayot ham bo'lmas edi.

Nihoyat, havo asosiy hayotiy muhit bo'lishi bilan birga, Yer ob-havosi, uning iqlim sharoitini, davriy ravishda, takror shakllanib turishi uchun muhim omildir ham. Fikrimizni tasdiqlash uchun olim va mutaxassislar amalga oshirgan ayrim ilmiy kuzatuv hamda tadqiqot ishlari natijalarini bayon etamiz. Aniqlanishicha, havo muhiti bo'lmasa, Yer yuzida kecha va kunduz haroratlari 200 °S gacha birbiridan farq qilishi mumkin ekan. Tabiiyki, bunday sharoitda hech bir jonzot, yashamasligi aniq, umuman, bunga chidashi ham mumkin emas. Havo, nafas olish manbailigidan tashqari, yuqorida ta'kidlangandek, ko'plab Yerdagi tabiiy jarayonlarni talab darajasida amalga oshishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Birgina misol, har yili qayta-qayta takrorlanib turadigan yil fasllari, ularning o'ziga xos ob-havo, yog'in-sochini va boshqa iqlimiy ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishi aynan atmosfera vositasi tufaylidir.

Yuqoridagilardan tashqari, yangi yaratilgan texnik vositalar, mehnat va urush qurollari, hatto, fazoni tadqiq qilishga mo'ljallangan uchish vosita (raketa) lar sinovi, hamda u yoki bu muayyan Yer hududlarida olib boriladigan turli darajadagi urushlar natijasida ham, ko'plab gaz chiqindilari havoni ifloslantirmoqda. Shu kabi ifloslanishlar sabab ham, Yer atmosferasida turli toifadagi ekologik muammolar yuzaga keldi. «Ozon yorig'i», «Havo dimiqishi» («Parnik effekti»), iqlim va ob-hav

Ifloslantiruvchi moddalar, masalan, pestitsidlar, gerbitsidlar, ifloslantiruvchi gazlar va neft, radiatsiya va shahar chiqindilari kabi boshqa kimyoviy moddalar bo'lishi mumkin. Odamlar turli xil ifloslantiruvchi elementlarning shakllanishini shart qiladigan turli xil iqtisodiy faoliyatga ega. Sanoat, savdo yoki tog'-kon sanoati kabi inson faoliyati yuqorida aytib o'tilgan ushbu ifloslantiruvchi moddalarning ko'pini ishlab chiqarishda.

Atrof muhitning ifloslanishi bevosita mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq. Agar mamlakat rivojlangan bo'lsa, uning ifloslanishi ko'proq bo'lishi odatiy holdir. Shu sababli barcha mamlakatlarda barqaror rivojlanish kontseptsiyasini joriy etish zarur.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., "O'zbekiston", 1999
2. S.Gulomov M, Jo rayev Y. Ekologiya : jinoyat va jazo. T., "O'zbekiston".
3. Roziqov K. Atrof-muhit va inson ekologiyasi muammolari, T.,TITLP,
4. S.Roziqov K, To'xtayev S, Nigmatov A, Sultonov R . Ekologiya va atrof- muhit haqida yetti saboq . T., "Bioekosan", 2004
5. RafiqovA. Geoekologik muammolar. -T., "O'qituvchi", 1998
6. T.Ergashev A. "Umumiy ekologiya" T., "O'qituvchi" 2002

# O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK HOLATNI YAXSHILASH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI

***Tolibayeva Dinara***

*Navoiy davlat konshilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konshilik instituti 2-kurs talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada O'zbekistondagi muhim ekologik muammo bu Orol dengizini qurishidir. Bu holat natijasida dengiz o'rni cho'lga aylangan va atrof muhitda turli xil zararli tuzlarning yoy ilishiga olib kelmoqda. Bu muammoni yechimi sifatida bizning akselerator laboratoriyamiz cho'l o'rniga yashil hudud barpo etmoqda va har bir inson bu loyihaga osonlik bilan o'z hissasini qo'sha oladi.*

***Kalit so'zlar***: *Ekologiya, dolzarb, muammo, sanoat, chiqindi, orol dengizi, atmosfera, muhofaza, akselerator, labaratoriya.*

***Abstract.*** *In this article, an important environmental problem in Uzbekistan is the drying up of the Aral Sea. As a result of this situation, the sea has turned into a desert and causes the spread of various harmful salts in the environment. As a solution to this problem, our accelerator lab is building a green area instead of a desert, and everyone can easily contribute to this project.*

***Key words:*** *Ecology, topical, problem, industry, waste, Aral Sea, atmosphere, protection, accelerator, laboratory, desert, region.*

***Аннотация.*** *В данной статье важной экологической проблемой Узбекистана является высыхание Аральского моря. В результате такой*

*ситуации море превратилось в пустыню и стало причиной распространения различных вредных солей в окружающую среду. В качестве решения этой проблемы наша лаборатория-ускоритель создает вместо пустыни зеленую зону, и ка ждый может легко внести свой вклад в этот проект.*

***Ключевые слова:*** *Экология, актуальная, проблема, промышленность, отходы, Аральское море, атмосфера, защита, ускоритель, лаборатория, пустыня, регион.*

Birinchi Navbatda bir qancha O'zbekistonda hozirgi ekologik muammolar, hukumatning qadamlari, siyosiy qo'llab quvvatlash, infratstruktura va texnologiyalar, aholi organi va qatnashishi, muammo vaqtning o'tishi, kabi jabhalar avvalambor birinchi o'rindadir. Ekologik holatni yaxshilash uchun bir nechta muhim masalalar haqida muloqot qilamiz. Birinchisi, tabiiy resurslarni samarali foydalanish va muhofaza qilishning muhimligi. Bu, suv, ozodlik vaqtida foydalanilishi kerak bo'lgan bir mahsulotdir. O'rmonlar, nafas olish tizimi uchun muhim.

Daryolarda, suv mahsulotlarini saqlash uchun kerak. Bu resurslarni samarali va doimiy foydalanish uchun qonun bilan muhokama qilinadi. Muhim vazifalar, tabiiy resurslarni o'rganish, ularga samarali foydalanish va resurslarni muhofaza qilishdir. Bu jarayonlar o'zaro bog'liqlik bilan bajariladi.

Ekologik holatni yaxshilash uchun atrof-muhitni muhofaza qilishning o'ziga xos ahamiyati bor. Bu holatni yaxshilash uchun faoliyatlar qatlamasiga ko'p choralarni qo'shish kerak.

1. Ma'lumotlarni ommalashtirish: Ommaviy bilimlarni o'stirish va ekologik muammolarni tahlil qilishning muhimligini tushuntirish lozim. Xalqaro ilmiy va amaliy tajribalar bilan hissa olish hamda yangi tekshiruvlarni olib borish kerak.

2. Xalqaro hamkorlik: Ekologik muammolar global vaqtning muammosidir, shuning uchun xalqaro hamkorlik qatlamasini o'rganish va ishlab chiqish kerak. Bunday hamkorlik ekologik muammolarga samarali yechim topishga yordam beradi.

3. Tekshiruvlar va monitoring: Ekologik muhitning holatini o'rganish va baholash uchun dastlabki qadamdir. Suv, havo va tuproq xavfsizligini, o'sishini va yo'lga qo'yilishi zarur. Monitoring jarayonlari samarali va to'liq bo'lishi kerak.

4. Ta'lim va tarbiya: Jamiyat a'zolari, shuningdek, talabalar, o'qituvchilar va ilmiy kadrlar ekologik muhitning muhimligini o'rganish va qadriyatini oshirish lozim. Ekologik madaniyatning rivojlanishi uchun ta'lim tizimini kuchaytirish muhimdir.

5. Teknologik rivojlanish: Ekologik holatni yaxshilash uchun yangi texnologiyalarni rivojlantirish, energiya ta'minoti uchun alternativ variantlarni qo'llash kerak. Iqtisodiy rivojlanish va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan texnologik ilmiy muhandislikning rollari katta.

6. Qonun va siyosat: Ekologik muammolarni yechish uchun qonuniy va siyosiy me'yorlarning belgilanishi kerak. Ekologik muammolarni hal qilishga doir davlat va xalqaro dasturlar, qonunlar va qarorlar amalga oshirilishi kerak.

Bu bosqichlardan o'tkazish orqali, ekologik holatni yaxshilashga doir umumiy yechimlar paydo bo'ladi va bu masalada samarali ishlarni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Aholi organi va ularning qatnashishi ekologiya yaxshilash borasidagi harakatga katta ahamiyatga ega. Ular o'z so'nglarida ekologik muammolar bilan birgalikda yashash, shaharlar va hududlarni hamkorlikda yaxshilash, muhofaza qilish va atrof-muhitni sog'lashning muhim qismlari bo'lib hisoblanadi. Quyidagi sabablarga ko'ra, aholi organining va ularning qatnashishini ekologiya yaxshilash borasidagi harakatga aloqador deb topish mumkin.

Muammo-vaqtning uch olingan yo'nalishlarining muhimligi va ular haqida fikrlarim quyidagicha:

1. Yechim Topish: Muammo-vaqtning olingan yo'nalishlari, muammolarni tan olish va ularni hal qilish uchun yechim topishda ahamiyatga ega. Bu yo'nalishlar, muammolar va muddatlarni aniq tanilashda, ularga to'g'ri yechim topishda yordam beradi.

2. Ehtimol Yechimlarni O'rganish: Muammo-vaqtning olingan yo'nalishlari, ehtimol yechimlarni o'rganish va ularga qaror qilishda yordam beradi. Bu

yo'nalishlar, muammolarni tahlil qilish, ehtimol yechimlarni aniqlash va ularni amalga oshirish uchun strategiyalar rivojlantirishda foydalaniladi.

3. Harakatga O'tish: Muammo-vaqtning olingan yo'nalishlari, muammolarga ko'ra strategiyalarni rivojlantirish va ularni amalga oshirishda juda muhimdir. Bu yo'nalishlar, muammo-vaqtning ehtimol yechimlarni amalga oshirish uchun talablarini va strategiyalarini belgilashda yordam beradi.

Bu uch olingan yo'nalishlar, muammo-vaqtning muhim vaqt bosqichlarida strategiyalarni rivojlantirish, ehtimol yechimlarni o'rganish va ularni amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega.

Ular holatni tahlil qilish, yechim topish va muammolarga qaror qilishda muhim rol o'ynaydi

## REFERENCES

1. B.Ziyomuhammedov Ekologiya va ma'naviyat. - T.: Mehnat, 1997 b.
2. Sh.T.Otaboyev Inson va biosfera. - T.: O'qituvchi, 1995 b 135
3. A.S.To'xtayev Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. - Toshkent: O'qituvchi, 1994 b 27-28
4. Alimov T L Rafikov AA Ekologiya xatolik saboqlari T 1991 b 61
5. Shodimetov Yu Ijtimoiy ekologiyaga kirish T 1991 b 120-121
6. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent "yangi asr avlodi" 2005 y. b 58
7. Ochilov, I. (2023). Importance of pedagogical technologies in forming thinking and skills in history lessons. Science and innovation, 2(B4), 481-484.
8. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic

# USMON NOSIR SHE'RLARI ASOSIDA SIFAT, SON, OLMOSH SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISH METODLARI

***Ortiqova Gulshoda Komiljon qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi*
*1-kurs magistranti*
*(gulshodaortiqova01@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilar va oliy ta'lim talabalariga "Ona tili", "Tilshunoslik" kabi fanlarda "Sifat, son, olmosh so'z turkumlar" mavzusini o'rgatish jarayonida fanlararo integratsiyaga asoslangan metodlardan foydalanish hamda bunda shoir Usmon Nosir asarlari misolida tahlillar o'tkazish usullari haqida so'z boradi. Asosan, fanlararo bog'lanishga asoslangan "Karra jadvali", "Men birinchi", "Rasmlarni tasvirlang", "Savolim bor" kabi noan'anaviy metodlardan foydalanilgan.

**Kalit so'z va iboralar.** Fanlararo integratsiya, Usmon Nosir, "Karra jadvali", "Men birinchi", "Rasmlarni tasvirlang", "Savolim bor" kabi noan'anaviy metodlar, son, sifat, olmosh

## KIRISH

Ma'lumki, hozirgi davrda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yangi interfaol metodlarni joriy etish va darslar davomida qo'llash, natijada esa ta'lim sifatini yanada oshirish kabi dolzarb vazifalar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim muassasalaridagi filologik ta'lim jarayonlarida ham grammatikani o'rgatishda "qoida – misol" tamoyilidan voz kechilib, uning o'rniga til ta'limini adabiyot bilan integratsiya qilish yuqori samara berishi borasidagi tajribaviy inov darslari tashkil etilmoqda. Xususan, "Sifat, son, olmosh so'z turkumlari" mavzusini o'tishda va ularning tahlilida Usmon Nosir ijodiga ham murojaat qilish mumkin. Sababi shoir she'rlarida sifat so'z turkumining go'zal namunalarini uchratamiz. Shuningdek, shoir lirikasida olmosh so'z turkumiga oid so'zlar shu qadar o'rinli va poetik jihatdan go'zal tarzda qo'llanganki, ularni o'qigan o'quvchi beixtiyor ham adabiyotga oshno bo'ladi, ham grammatikaga doir mavzuni oson o'zlashtiradi, ham dars davomida fanlararo bog'lanish tashkil etiladi. Ushbu maqolamiz davomida yuqoridagi fikrlarning amaliy isbotini ko'rib chiqamiz.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolani yozish jarayonida metodikaga aloqador darslik va o'quv qo'llanmalari, umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim uchun taviya etilgan darsliklar, shuningdek, Usmon Nosirning she'riy to'plamlaridan foydalanildi. Xususan, pedagogika fanlari doktori, professor Mahbuba Sobirovaning 2023-yil nashrdan chiqqan "O'zbek tili va adbiyotini o'qitish metodikasi" darsligidan asosiy

manba sifatida foydalanildi.[1.512] Unda til ta'limida darslarni integratsion tarzda tashkil etishning ijobiy taraflari va foydalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, darslar umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida olib borilishini hisobga olgan holda Ra'no Sayfullayevaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" hamda A.Mavlanovning "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" darsliklaridan ham asosiy manba etib foydalanildi. Albatta, til ta'limida mavzularni mustahkamlash va badiiy matnlar asosida tahlil qilish uchun adabiyotga murojaat qilamiz. Bu jarayonda esa shoir Usmon Nosirning "Yurak" hamda "Ertani sevinib kutaman" nomli she'riy to'plamlaridan ham foydalanildi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada mavzusidagi ushbu kichik tadqiqot ishi kuzatuv, sinov-tajriba, qiyoslash kabi metodologik yo'nalishlarda olib borilgan. Unga ko'ra dastlar "Sifat, son, olmosh" mavzusi o'quvchilar(talabalar)ga an'anaviy tarzda tashkil etildi. So'ngra boshqa bir guruhda fanlararo integratsiyaga asoslangan holda dars olib borildi va ushbu guruhdagi dars sifati, natijaviyligi, darsda o'quvchilarning faolligi avvalgi guruhga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Demak, bundan ko'rinadiki, fanlararo bog'lanishga asoslangan darslar o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari bilan hamkorlikda "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" fanidan "Sifat, son, olmosh" mavzusidagi amaliy mashg'ulot ikkita guruhda (birida an'anaviy tarzda, ikkinchisida noan'anaviy tarzda) tashkil etildi. Mavzuga doir topshiriqlar Usmon Nosir she'rlari misolida bajarildi. Natijalarga ko'ra integratsion dars tashkil etilgan guruhda o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori ekanligi aniqlandi. Quyida ushbu darsning matniy varianti, tahlillari va natijalari haqida so'z boradi.

Darsning tashkiliy qismi va o'tilgan mavzu mutahkamlangandan so'ng yangi mavzu – "Sifat, son, olmosh" mavzusi dastlab o'qituvchi tomonidan taqdimot yordamida yoritib berildi. Mavzu qamrovining kattaligini inobatga olgan holda talabalar uch guruhga ("Sifat", "Son", "Olmosh" guruhlariga) ajratildi. Har bir guruh o'z nomiga asosan mazkur so'z turkumi bo'yicha ishlab, topshiriqlarni

bajardi. Barcha topshiriqlar fanlararo integratsiyaga asoslangan yangi interfaol metodlar orqali tashkil etildi. Topshiriq turlari quyidagicha:

1-topshiriq. "Yuksak cho'qqilar" metodi. Usmon Nosirning "Yurak" she'ri tarkibidagi sifatlarni, sonlarni, otlarni topish va tahlil qilish, ya'ni "Sifat to'sig'i", "Son to'sig'i", "Olmosh to'sig'i"ni bosib o'tish orqali "Yuksak cho'qqilar"ga chiqish.

*Yurak, sensan mening sozim,*
*Tilimni nayga joʻr etding.*
*Koʻzimga oyni berkitding,*
*Yurak, sensan ishqibozim.*

***

*Senga tor keldi bu koʻkrak,*
*Sevinching toshdi qirgʻoqdan.*
*Tilim charchar, ajab, gohi*
*Seni tarjima qilmoqdan.*

***

*Sen ey, sen - oʻynoqi dilbar,*
*Zafardan izla yoringni.*
*Toʻlib qayna, toshib oʻyna,*
*Tirikman, kuyla boringni.*

***

*Itoat et!*
*Agar sendan*
*Vatan rozi emas boʻlsa,*
*Yoril, chaqmoqqa aylan sen,*
*Yoril! Mayli, tamom oʻlsam!..[2.42-43]*

2-topshiriq. "Karra jadvali" metodi. Bunda karra jadvalidagi miollarning javoblari ortiga yashiringan harflarni topish, ular yordamida mavzuga aloqador terminlarni aniqlash va bu atamalarni izohlash.

| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | A | Q | F | S | X | H | G | O | I |
| | W | V | **S** | X | F | Q | W | H | B |
| | I | J | L | M | P | E | **T** | A | Z |
| | W | Z | T | E | **I** | T | U | D | K |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | A | Q | W | R | V | U | N | D | Z |
| | E | F | F | P | O | I | T | C | Z |
| | Z | A | Q | D | X | H | Y | B | E |
| | O | A | J | I | X | A | S | Ng | B |
| | Sh | E | Y | Z | Ch | U | W | H | I |

Misollar:

3x2=6[s]

5x4=20[i]

2x6=12[f]

6x8=48[a]

7x3=21[t]

Mazkur jadvalga sifat terminidan boshqa yana son, olmosh kabilarni ham kikritish mumkin. O'quvchilar ushbu atamalarni aniqlagandan so'ng sifat haqida ma'lumot berishadi va Usmon Nosir she'rlari asosida tahlil qilishadi. Masalan:

She'rim, yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsam gullar sharmanda…[3.17]

misralaridagi yaxshi va sharmanda so'zlari sifat. Tahlili esa shunday: yaxshi – xusuiyat bildiruvchi sifat, asliy sifat, sodda sifat, oddiy darajada kabi bo'ladi. Shu tarzda yangi grammatik mavzu ham mustahkamlanadi va talabalar Usmon Nosir lirikasining lingvopoetik tomonini chuqur o'rganadilar.

## XULOSALAR

Yuqoridagi yangi metodlar asosida dars tashkil etilishi, albatta, yuqori natijaga erishishda yordam beradi. Xususan, dars davomida qo'llangan "Yuksak cho'qqilar" metodining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda barcha talabalar guruhga ajratilgan holda ham, individual tarzda ham ishlaydilar. Faqatgina grammatikaga aloqador mavzuni o'rganib qolmay, ma'lum bir ijodkorning asarini ham lingvopoetik jihatdan tahlil qilish orqali adabiyotni o'zlashtiradilar. "Karra jadvali" metodi yordamida esa matematika fani bilan integratsiya yo'lga qo'yiladi. Matematika – ona tili bog'lanishi esa boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari va talabalari uchun juda muhum hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, bugun ta'lim dargohlari uchun mana shunday yuqori samarali interfaol metodlar va dars o'tish texnologiyalari zarur. Sababi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek,

bugun maktablarda dars usuli o’zgarmas ekan, ta’lim sifati ham, mazmuni ham o’zgarmaydi!

**ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Sobirova M. O’zbek tili va adabiyotini o’qitish metodikasi. Darslik. – Namangan: ARJUMAND MEDIA, 2023. – b.512
2. S. Olim va boshqalar. Darslik/Matn. – Toshkent. Respublika ta’lim markazi, 2018. – 326-b
3. Usmon Nosir. Yurak. She’rlar to’plami. – Namangan: NAMANGAN, 2014. – B.84
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. adabiyot o’qitish metodikasi. – 2018
5. Internet saytlari: ziyo.net, dictionary.ru

## SHARTNOMAVIY MAJBURIYATLAR: SHARQ MAMLAKATLARIDA

***Sultanova Zarina Abdujabbor qizi***
*NamDPI, Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi talabasi*
*Tel: +998-93-484-60-03*
*E-mail:* sultanovazarina965@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada shartnomaviy majburiyatlarni bajarish sohasidagi harakatlar sharq mamlakatlari misolida ko’rib chiqilgan bo’lib, unda sharq mamlakatlari ananalari va o’zaro ishonchlariga quriladigan shartnomalarni bajarishga bo’lgan majburiyatlari va ma’suliyatlari haqida so’z boradi.*

***Abstract:*** *In this article, the activities in the field of fulfilling contractual obligations are considered on the example of eastern countries, and it talks about the obligations and responsibilities of the eastern countries to fulfill the contracts built on the traditions and mutual trust.*

***Аннотация:*** *В данной статье деятельность в сфере исполнения договорных обязательств рассматривается на примере восточных стран, и говорится об обязательствах и ответственности восточных стран по выполнению договоров, построенных на традициях и взаимном доверии.*

***Kalit so'zlar:*** *Sharq mamlakatlarining boy tarixi, Shartnoma, Majburiyat, manfaatli biznes, o'zaro ishonchga asoslangan shartnoma.*

***Key words:*** *rich history of Eastern countries, Contract, Obligation, beneficial business, contract based on mutual trust.*

***Ключевые слова:*** *богатая история стран Востока, Договор, Обязательство, выгодный бизнес, договор, основанный на взаимном доверии.*

Sharq mamlakatlaridagi shartnoma munosabatlari haqida so'z ketganda G'arb mamlakatlaridagidan farq qilishi mumkin bo'lgan madaniy ananalar, qonunchilik asoslari va ishbilarmonlik amaliyotini ta'kidlash zarur. Sharq mamlakatlarida biznes hamkorlik shartnomalari ko'pincha shaxsiy munosabatlar va ishonchlarga asoslanadi. Biznes hamkorlar bilan shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish uchun vaqt va kuch sarflash shartnoma munosabatlarning muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'pgina Sharq madaniyatlarida yuzma-yuz muloqot qilish juda qadrlanadi. Iloji bo'lsa, shartnoma shartlarini muhokama qilish va muzokara qilish uchun shaxsan uchrashish ham katta ahamiyatga egadir. Bu bizning biznes munosabatlarimizda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu madaniy, huquqiy va ishbilarmonlik nuqtayi nazarlaridan qaraganimizda, biz Sharqiy mamlakatlardagi shartnomaviy munosabatlarni samarali boshqarishimiz va yo'naltirishimiz mumkin, bu esa muvaffaqiyatli va o'zaro manfaatli biznes sherikliklarga olib kelishi mumkin.

Qadimda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni berilgan so'zga ishonch, lafz, halollik singari insoniy fazilatlar tartibga solib turgan. Zamonlar o'zgarishi, taraqqiyot tezlashuvi bilan mazkur munosabatlar ham takomillashib bordi. Fan va texnika asriga kelib, axborot almashuvining mislsiz suratda oshishi o'zaro aloqalarning yangi bosqichiga yo'l ochdi. Ahdlashuvlarni o'zaro tenglik va adolat meyorlariga asoslangan yangi turi shartnomalar vujudga keldi va mantiqiy ravishda jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.[1]

Bugungi kunda shartnoma mahsulot oluvchi bilan uni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi ahdlashuv bo'lib, unda bir tomon mahsulotni o'z vaqtida yetkazib berish, ikkinchi tomon esa o'z vaqtida pulini to'lash majburiyatini oladi. Mazkur

shartnomaviy hujjatda tomonlarning huquq va majburiyatlari yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

Shariatda shartnomaga tomonlarning oʻzaro bitimidan kelib chiqadigan aloqa sifatida qaralardi. Biroq bu tomonlarning mulkiy notengligi sharoitlarida sof rasmiy xarakterga ega edi. Shartnoma shartlari har qanday koʻrinishda hujjatda, norasmiy xatda, ogʻzaki tarzda ifoda etilishi mumkin edi. Tuzilgan shartnomalar mustahkam va oʻzgarmas hisoblanardi. Qur'onda «shartnomalarga» rioya qilish majburiyatiga muqaddas burch sifatida qaralgan: «Ular (moʻminlar) (odamlarning bergan) omonatlariga va (oʻzaro) ahdlariga rioya etuvchi zotdirlar» (23-Mo"minun surasi, 8-oyat). Eng muhimi, unda talab va taklif mutanosibligi, yani o'zaro manfaatlar o'z aksini topadi.[2]

**Shartnoma bu** tomonlar o'rtasida o'rnatilgan yoki to'xtatilgan (bekor qilingan) huquq va majburiyatlar to'grisidagi kelishuv, yokida bitim hisoblanadi. Tomonlar barcha muhim bandlar bo'yicha kelishgan holdagina (qonun talab etgan tarzda) shartnoma qabul qilingan hisoblanadi. Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan bo`lsa, ularda ko`rsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar qonun hujjatlarida majburiyatni bajarish sharti ko`rsatilmagan bo`lsa, majburiyatlar o`zaro kelishib qo`yiladigan talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki taraf xo`jalik aloqalarining rivojlanishini ko`zlab, tejamlilik bilan va o`zaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.[3]

Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlarini chuqur tahlil qilish, ularni tajribasi va salohiyatini ilmiy jihatdan toʻgʻri baholash va xolisona xulosa chiqarish singari masalalar sharqshunos-siyosatshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-aprelda qabul qilgan "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarorida ham Sharq mamlakatlari siyosati, ularning xalqaro maydondagi nufuzi, Sharq zamonaviy siyosiy jarayonlarini ilmiy jihatdan oʻrganish, mazkur yoʻnalishda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash hamda mahalliy va xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish masalalari alohida

qayd etiladi. O'z navbatida, O'zbekiston zamonaviy tashqi siyosat va diplomatik faoliyatida Sharq mamlakatlari asosiy ustuvor yo'nalish ekanligini e'tiborga olgan holda qayd etish mumkinki, bugungi kunda yetuk va professional sharqshunos-siyosatshunos kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda va bu istiqbolda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.[4] Sharq mamlakatlari ro'yxatiga boy tarix va madaniy merosga ega ko'plab davlatlar kiritilgan. Tarixchilarning fikriga ko'ra, bu yerda nafaqat sivilizatsiya tug'ilgan - bu davlatlar hali ham butun dunyoga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yaqin Sharq, shuningdek, Uzoq Sharq mamlakatlari o'zlarining madaniy va diniy xususiyatlariga ko'ra Yevropa davlatlaridan sezilarli darajada farq qiladi, biroq ularning barchasi siyosiy va iqtisodiy maydonlarda muvaffaqiyatli o'zaro hamkorlik va faol shartnoma hamkorliklarini davom ettirmoqda.[5]

O'zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan zamonaviy Sharq dunyosi tillari, tarixi va siyosiy tafakkurini puxta va sinchiklab o'rganishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, sharqshunos-siyosatshunoslar ilmiy jamoatchiligi oldida ham bunday munosabatlar bilan hamohang tadqiqotlarni izchil davom ettirish vazifasi tobora dolzarblashib boradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, Sharqiy mamlakatlarda shartnoma majburiyatlarini qo'llab-quvvatlash G'arb mamlakatlaridagiga o'xshash prinsiplarni o'z ichiga oladi, lekin ba'zi noyob madaniy, huquqiy va biznes mulohazalarni ham esdan chiqarmasligimiz zarurdir. Sharqiy mamlakatlarda shartnoma majburiyatlarini hal qilishda e'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy fikrlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak birinchi navbatda Shartnoma tuzilayotgan Sharq mamlakatining madaniy me'yorlari va amaliyotlarini tushunish va hurmat qilishimiz zarurdir. Chunki, Ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni o'rnatish shartnoma majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun shartnoma Sharqiy mamlakatning mahalliy tiliga to'g'ri tarjima qilinganligiga ishonch hosil qilish kerak. Mahalliy qonunlarga rioya etilishini ta'minlash uchun Sharqiy mamlakatning qonunchilik bazasi va me'yoriy talablari bilan tanishib chiqishimiz kerak. Ko'pgina Sharq mamlakatlarida biznes aloqalari shaxsiy aloqalar va ishonchga asoslanadi. Ko'pgina Sharq madaniyatlari ierarxiya

va hokimiyatga hurmatni qadrlaydi. Sharq mamlakatlarida kutilmagan oʻzgarishlar yoki kechikishlarga tayyor bo'lishimiz kerak, chunki biznes amaliyoti va vaqt jadvallari Gʻarb mamlakatlaridagidan farq qilishi mumkin. Mahalliy urf-odat va an'analarni hisobga olgan holda shartnomaga nizolarni hal etishning madaniy jihatdan mos tamoyillarni kiritamiz. Sharqiy mamlakatlarda nizolarni hal qilishda vositachilik yo'lini afzal ko'rishi mumkin. Ularning tajribasi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va shartnomaning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi. Ushbu madaniy, huquqiy va ishbilarmonlik omillarini hisobga olgan holda, tomonlar Sharq mamlakatlarida o'zlarining shartnoma majburiyatlarini samarali qo'llab-quvvatlashlari va bajarishlari, ijobiy va muvaffaqiyatli biznes aloqalarini rivojlantirishlari mumkin. Biz shugʻullanayotgan muayyan Sharq mamlakatining madaniy qadriyatlari va urf-odatlarini tushunishimiz va hurmat qilishimiz muhimdir. Ishonchni mustahkamlash va mustahkam munosabatlarni rivojlantirish Sharq madaniyatlarida muvaffaqiyatli shartnoma munosabatlarining asosiy ustunidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://sorbon.ru/la/Sartnomatugrisidatusuncavauningturlari_la/
2. XORIJIY MAMLAKATLAR DAVLATI VA HUQUQI TARIXI (Oʻrta asrlar davlati va huquqi tarixi) II qism Toshkent-2005
3. FUQAROLIK HUQUQI" DARSLIK Toshkent – 2019
4. https://xs.uz/uz/post/sharq-mamlakatlari-khalqaro-munosabatlari-transformatsiyasi-sharqshunos-siyosatshunoslar-nigohida
5. https://uz.vogueindustry.com/17225470-countries-of-the-middle-east-and-their-features

# CHEMICAL COMPOSITION OF ESSENTIAL OIL IN PLANTS

***Husayn Tursunbayev is the son of Khabibullo***

*Student of Namangan State University, Faculty of Natural Sciences, Chemistry (by types).* tursunboyevxusaynjon@gmail.com

***Abstract:*** *essential oil was extracted for the first time from the flowering plant Phlomoides isochila by the hydrodistillation method.*

***Key words:*** *Plant, chemical composition, stability, Chromato-Mass-Spectrometry Gas-Liquid.*

***Аннотация:*** *из цветкового растения Phlomoides isochila методом гидродистилляции впервые выделено эфирное масло.*

***Ключевые слова:*** *Растение, химический состав, стабильность, хромато-масс-спектрометрия газ-жидкость.*

From the point of view of medicine, the most important components of plants are flavonoids, alkaloids, glycosides and many other organic substances that are pharmacologically active compounds. Many chemical elements have a limited range between deficiency and toxicity for the human body. The amount of trace elements in plants is determined by the geochemical properties of the soil where the plant grows and the ability of plants to selectively accumulate elements. Plants can accumulate elements from the surrounding air or water environment, which allows some plants to be used as biomonitors for environmental pollution. The geographical origin of plants belonging to the same species can lead to different concentrations of elements and their bioavailability depending on soil properties and environmental pollution.

Phlomoides isochila (even-lipped flomoides) is a thick hairy perennial herb. Height up to 40-50 cm. The leaves are entire, oval or rounded. The flowers are single, forming rings of 4-6. The cup is funnel-shaped, the diameter is 30-40 mm, the back is membrane-like, the teeth are short, wide, pointed. The inflorescence is pale yellow, 30-35 mm long. From the plains to the bottom of the mountains. It blooms in May-June, bears fruit in June-July [1].

Ph. The above-ground part of the isochila plant (200 g) Clevenger's apparatus was hydrodistilled for 2 hours using Received with dichloromethane to extract the essential oil from the distillate extracted and dried using anhydrous sodium sulfate. Received essential oil in a glass container in a dark place at -4°C until experiment saved. Ph. Isochila essential oil composition Agilent 5977A mass-selective detector (Agilent Technologies) in a VF-Wax CP 9205 column (100% polyethylene glycol, 30

m × 0.25 mm, film thickness 0.25 µm, Agilent Technologies, The Netherlands) from an Agilent 7890B gas-liquid chromatograph was analyzed using [2]. The obtained results were identified using the chromato-mass spectrometric data library, Wiley Registry of Mass Spectral Data (9th edition), NIST Mass Spectral Library (2011) database and catalogs [3, 4].

Ph. The chemical composition of isochila plant essential oil is presented in Table 1. During the research results, 62 substances were identified from the composition of essential oil. The essential oil contains α-Pinene (1.73%), Camphene (1.76%), Thuyopsene (1.18%), Ledene (2.96%), Caryophyllene (3.19%), α-Humulene (4.75%), 1,8-Cineole (12.12 %), α-Thyone (9.63%), Camphor (18.03%), and β-Thyone (29.76%) were found to be major substances.

Essential oils and their components obtained from aromatic and medicinal plants have been proven to have antibacterial, antifungal and preservative properties against various pathogens.

As a result of the inspections, the following substances were found to be the most abundant: Bi (2-ethylhexyl) phthalate - 41.27%, 1,2-Benzenedicarboxylic acid, bi (2-methylpropyl) ether - 12.53%, Tetracosane - 9.59%, Hexadecanoic acid, methyl ether – 8.55%, Methyl stearate – 5.89%, L-(+)- Ascorbic acid 2,6-didecanate – 5.29%, 2-methylhexacosane – 3.38%, octadecanoic acid – 3.24%. As a result of the comparison, it was found for the first time that similar substances are found in the composition of these two plants.

## Used literature

1. Флора Узбекистана т. 5, ст. 345.

2. Mamadalieva N.Z., Abdullaeva N.S., Rosenau T., Fakhrutdinova M., Azimova S.S., Böhmdorfer S. Composition of essential oils from four Apiaceae and Asteraceae species growing in Uzbekistan // Nat. Prod. Res. –2017. 32, 1118-1122.

3. R.P. Adams. Identification of Essential Oil Components by Gas Chromatography /Mass Spectrometry, Allured Publishing Corporation, Carol Stream, Illinois, US, 2007, 804 pp.

4. V. I. Babushok, P. J. Linstrom and I. G. Zenkevich, *J. Phys. Chem. Ref. Data,* **40**, 1 (2011).

# DASHTI QIPCHOQ LOCHINLARI (ABULXAYRXON VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON TIMSOLIDA)

***Ruxshona Abduvohidova,***
*Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi*
*E-mail: ruxshona01062005@gmail.com*
*Tel: +998931021725*
*Ilmiy rahbar :* ***Zoxid Madrahimov,***
*NamDU, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.*

***Anotatsiya:****Ushbu maqolada Oltin O'rda davlati negizida Dashti Qipchoq hududlarida tashkil topgan, o'zbek davlatlaridan bo'lmish "O'zbek ulusi" yoki Shayboniylar davlati va uning qudratli hukmdorlari – Abulxayrxon va Muhammad Shayboniyxonlarning faoliyati haqida ma'lumotlar beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, "O'zbek ulusi", Movarounnahr, Xorazm, Eron, Shayboniylar, Abulxayrxon, Muhammad Shohbaxt, Ismoil Safaviy, "Zamona imomi va xalifasi".*

***Аннотация:*** *В данной статье преставлены сведения о деятельности "Узбекское ханство" или Шайбанского государства, одного из узбекских государств, образовавшегося в Кипчакском районе Дашти на основе Золотоордынского государства, и деятельности его могущественных правителей - Абулхаирхан и Мухаммад Шайбанихан.*

***Ключевые слова:*** *Дашти Кипчак, Золотая Орда, "Узбекское ханство", Мовароуннахр, Хорезм, Иран, Шайбаниты, Абулхаирхан, Мухаммад Шахбахт, Исмаил Сефеви, "Имом и халиф той епохи".*

***Anotation:*** *This article provides information about the activities of the "Uzbek Khanate" or Shaibani state, one of the Uzbek states, which was formed in the Kipchak region of the Dashti on the basis of the Golden Horde state, and the activities of its powerful rulers - Abulkhairkhan and Muhammad Shaibanikhan.*

***Keywords:*** *Dashti Kipchak, Golden Horde," Uzbek Khanate", Movarounnahr, Khorezm, Iran, Shaibanis, Abulkhairkhan, Muhammad Shahbakht, Ismail Safavi, "Imam and caliph of the era".*

*O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur!*

**Shavkat Mirziyoyev,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.**

Bizga tarix zarvaraqlaridan ma'lumki, buyuk mo'g'ul hukmdori Chingizxon vafotidan oldin o'z davlatini to'rt o'g'liga ulus qilib bergan edi. Bunda eng katta o'g'li Jo'jiga Qipchoq Dashti va Rus yerlari, asl Mo'g'ulistonning g'arbidagi eng uzoq yerlari ulus va yurt qilib berilgan bo'lib, bu yerlarning asosiy qismi ko'proq dasht hisoblangan. Bu juda ham katta hudud bo'lib, Dnepr va Qora dengizning shimoliy qirg'oqlaridan tortib, Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha cho'zilgan, janubda Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaradosh juda keng dasht XI asrdan boshlab arab va fors adabiyotlarida Qipchoq Dashti – Dashti Qipchoq deb yuritilgan (ba'zi adabiyotlarda Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyan'shanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan dashtlar deb ham aytiladi [2. – B. 5.]. Bu bepayon o'lka 1236-yilda Jo'jining o'g'li Botuxon tomonidan istilo qilingan edi. Mo'g'ullar istilosi natijasida, Dashti Qipchoq va unga tutash viloyatlarni o'z ichiga olgan katta davlat vujudga kelgan bo'lib, Sharq manbalarida Jo'ji ulusi yoki Ko'k O'rda, rus yilnomalarida esa Oltin O'rda davlati deb atalgan [1. – B. 9.].

Oltin O'rda tarkibiga shimoli-sharqda Bulg'or va uning viloyatlari, shimolda esa chegara rus knyazliklaridan o'tgan, janubda bir tomondan Qrim va uning dengiz bo'yidagi shaharlari, ikkinchi tomondan Darbandgacha cho'zilib borgan Kavkaz va ba'zan esa Bokugacha kirgan. Shimoliy Xorazm va uning Urganch shahri, g'arbda Dnestrdan boshlangan dashtliklar, sharqda esa G'arbiy Sibir Sirdaryo etaklarigacha boradigan yerlar ham kirgan [1. – B. 9.].

Vaqt har bir narsaga o'z hukmini o'tkazgani kabi, vaqt o'tishi bilan Oltin O'rda markaziy hokimiyati ham zaiflasha boshlaydi. Oltin O'rda Jo'jixonning o'g'illari o'rtasida uluslarga bo'linishi natijasida, Dashti Qipchoqning sharqiy qismi (Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismga ajratib turgan) Jo'jixonning 5-o'g'li Shaybonga tegadi [2. – B. 5.].

Shaybon ulusida ham vaqt o’tishi bilan markaziy hokimiyat zaiflasha boshlagan. Ulus kichik-kichik qismlarga bo’linib ketadi. Toj-u taxt uchun kurash kuchayadi. Ayniqsa, 1425-yilda hukmdor Davlatshayxning vafotidan so’ng, o’zaro nifoq avj oladi. Shu payt kurash maydoniga Abulxayrxon chiqadi. U yosh bo’lishiga qaramay, kuchli sarkardalalik qobiliyatiga ega edi. Taxt uchun kurashlardan xalq aziyat chekkanligi bois Abulxayrxonni ba’zi o’zbek qabilalari va ruhoniylar qo’llab-quvvatladilar. Natijada Abulxayrxon 1428-yilda “O’zbek ulusi” deb atalgan davlatga asos soladi. Janubi-g’arbiy Sibirdagi Tura shahri poytaxt etib belgilanadi. 1431-yilda Abulxayrxon o’z davlatini Oltin O’rdadan mustaqil deb e’lon qiladi. 1446-yilda Sirdaryoning o’rta oqimida joylashgan Sig’noq, Oqqo’rg’on, Arquq, O’zgan va Suzoq shaharlarini bosib oladi va poytaxtini Sig’noqqa ko’chiradi [2. – B. 6.].

Abulxayrxon 1431-yilda Xorazmni bosib oladi. Bu esa Shayboniylarning temuriylar bilan o’zaro ziddiyatga kirganligidan dalolat beradi. Abulxayrxon Xorazm bilan cheklanmay, 1447-yilda temuriy Shohrux Mirzo vafotidan so’ng, Mirzo Ulug’bek mamlakatda yo’qligidan foydalanib, Samarqand va Buxoro atrofiga harbiy yurish uyushtiradi [3. – B. 234]. 1448-yilda Samarqandni qamal qiladi. 1451-yilda o’zidan yordam so’ragan temuriyzoda Abu Saidga Samarqandni qo’lga kiritishga ko’maklashadi [11. – B. 175]. Bu yordam evaziga Abu Said Abulxayrxonga sovg’a-salomlar bilan birgalikda Mirzo Ulug’bekning qizi Robiya Sultonbegimni nikohlab beradi [3. B-235.] 1468-yilda Abulxayrxon vafot etgach, u tuzgan davlat parchalanib ketadi. Uning dushmanlari tomonidan Abulxayrxonning qarindoshlari va tarafdorlari qirg’in qilinadi. Faqatgina, Robiya Sultonbegimdan bo’lgan farzandlari Ko’chkunchixon va Suyunchxoja, nabiralaridan Muhammad Shayboniy va uning ukasi Mahmud Sultonlargina omon qolgan xolos [2. – B. 6.].

Manbalarning (Mulla Shodi, “Fathnoma”) ma’lumot berishicha, 864-hijriy yili (1459-1460-yy) Abulxayrxonning katta o’g’li Shohbudog’ vafot etadi. Undan qolgan Muhammad Shayboniy va Mahmud uyg’ur qavmidan bo’lgan Boyshayx Ko’kaldosh tarbiyasiga beriladi [4. – B. 173.].

Muhammad Shayboniyxon 1451-yilda tavallud topgan. Bobosi Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo’ygan. Shayboniyxon g’oyat yuksak jismoniy kuchga, sarkardalik qobiliyatiga ega bo’lganligi uchun “Boburnoma” asarida u “Shayboqxon” ya’ni “kuch-qudrat egasi” deb qayd etilgan [8. – B. 37.]. Muhammad 14 yoshga

to'lar-to'lmas otasidan ayriladi, keyin onasi Oqqo'zibegim dunyodan ko'z yumdi. Hali bu paytda bobosi Abulxayrxon hayot edi. Shuning uchun Muhammad ham, inisi Sulton Mahmud ham g'ariblik dashtida sargardon bo'lmadilar. Ularni padari Shohbudoqning sodiq xizmatkori Qorachabek bag'riga oldi [7. – B. 7.]. So'ngra, Turkiston va O'tror hokimi Muhammad Mazid Tarxonlar homiylik qilganlar. Keyinchalik aka-uka Muhammad va Mahmudlar bir muddat Buxoroda istiqomat qilishgan [4. – B. 173.].

Shayboniyxon, ba'zi olimlar o'ylaganiday, besavod, qo'pol bir ko'chmanchi emas edi. U zamonasiga yarasha yetarli darajada, keng ma'lumotli odam, qolaversa, istedodli shoir ham edi [12. – B. 248.]. U qator taxalluslar bilan she'rlar ham yozgan.

Mazid Tarxon Sulton Mahmudni yonida olib qolib, Shayboniyxonni o'ziga yaqin kishilar homiyligida Buxoroga jo'natadi. U yerda Xo'ja Ahmad Yassaviy sulukining peshvosi Muhammad Xitoiydan Yassaviy zamonidan beri saqlanib qolgan tariqat odobidan tahsil oladi. Xitoiydan keyin allomai davron Shayx Mansurdan fiqh, qiyos, ijmo masalalarini o'rganadi [7. – B. 9.].

Muhammad Shayboniyxon shayboniylar xonadonining bobosidan keyingi yorqin vakili hisoblanadi. Muhammad Shayboniyxon o'z yurtida mavqeini mustahkamlab olgach, XV asr oxirida, bu paytda ichki kelishmovchiliklar girdobida qolgan temuriylarga qarshi harbiy harakatlar boshlab yuboradi. 1498-yilgi ilk urinishda Samarqandni egallay olmagan bo'lsa-da, 1500-yilda uni jangsiz qo'lga kiritadi. Shu yiliyoq Buxoro ham zabt etilgan. To'g'ri, Zahiriddin Muhammad Bobur 1500-yili bir muddat Samarqandni qaytarib olishga muvaffaq bo'lgan. Biroq 1501-yili shahar yana Muhammad Shayboniyxon qo'liga o'tadi [5. – B. 230].

Ma'lumotlarga qaraganda, Muhammad Shayboniyxon o'ng qo'lining o'rta barmog'iga tikilgan olmos ko'zli uzukka "MENING ISMIM SHAYBONIYXON SHOHBAXT" degan so'zlarni o'yib yozdirgan edi. Har safar jang oldidan ana shu muhrga qarab qo'yadi-yu, Ollohdan madad so'rab, otga qamchi urardi [7. – B. 11.].

Samarqand egallangandan so'ng, Shayboniyxon 1503-yil bahorida asosiy qo'shinlari bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg'ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib, Toshkent viloyatidagi Shohruxiya va boshqa ko'pgina qal'alarni bosib olishga erishadi. Farg'onadagi Arxian qal'asi yaqinida bo'lgan jangda

Mahmudxon halok bo'ladi va Toshkentda qoldirilgan uning o'g'li Muhammad Sulton Shayboniyxon qo'shinlari kelayotganini eshitib, Toshkentdan qochib ketadi. Toshkentda mustahkam o'rnashib olgan Shayboniyxon qo'shinlarining katta qismi uning ukasi Mahmud Sulton boshchiligida Xorazmga yurish boshladilar. Kat va Buldumsoz qal'alarini egallagan Mahmud Sulton bu hududlardagi aholini bir qismini majburan Buxoroga ko'chirishga buyruq berdi. 1505-yilda 10 oylik qamaldan so'ng Shayboniylar Urganch shahrini egallaydilar [9. – B. 304.].

1506-yilda Balx, 1507-yilda Hirotda ham Shayboniyxon hokimiyati o'rnatgach, keyingi ikki yil ichida Xurosonning boshqa bo'laklari, jumladan, Darg'om, Astrabod, Mashhadni ham egallanadi. Shu tariqa, Abu Saiddan so'ng birorta temuriy bajara olmagan ishni Muhammad Shayboniyxon amalga oshirgan – shimolda Sirdaryodan Qandahorgacha, sharqda Xitoydan, g'arbda Kaspiy dengizigacha yastangan ulkan tarixiy kenglikni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. [13. – B. 230.]. Shunday qilib, Shayboniylar davlati chegaralari Erondagi Safaviylar davlati chegarasigacha cho'zilib bordi. Natijada, ikki o'rtada ya'ni shayboniylar bilan safaviylar o'rtasida urush kelib chiqqan. Taqdirning hukmi ila ikki sarkarda (Muhammad Shayboniyxon bilan shoh Ismoil Safaviy) o'rtasidagi xal qiluvchi jang 1510-yilda Marv shahri yaqinida bo'lib o'tadi. Muhammad Shayboniyxonning kam sonli qo'shinlari bu jangda mag'lubiyatga uchragan. Zamondoshlari tomonidan "Xalifa ur-Rahmon va Imom az-Zamon" ("Zamona imomi va xalifasi") deb ulug'langan Muhammad Shayboniyxon bu jangda halok bo'lgan [9. – B. 305.].

Muhammad Shayboniy tomonidan Movarounnahr va Xurosonning qisqa muddatda egallanishi va bu hududda unga qarshi tura oladigan munosib raqibning deyarli yo'qligining asosiy sababi shundaki, XV asr oxirida temuriy hukmdorlarning birin-ketin vafot etishi (1494-yil Farg'ona hukmdori Umarshayx Mirzo, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad, keyinchalik, uning taxtini egallagan Sulton Mahmud Mirzo 1495-yilda vafot etdi), ularning o'rnini egallagan yosh hukmdorlarda harbiy siyosiy tajribaning yetishmaganligi, hali mustahkam hokimiyat tuza olmaganligi hamda bir-biri bilan o'zaro diplomatik munosabatlarni mustahkamlab olmaganligi bo'ldi. Natijada, ular tajribali, harbiy sohani yaxshi biladigan, kuchli intizomga ega bo'lgan sarkardaga qarshi tura olmay qoldilar. Shayboniyxonning Xurosonga yurishi oldidan bu yerda ham huddi shunday vaziyatning yuzaga kelishi (1506-yil

Husayn Bayqaroning vafot etishi) shayboniylar imkoniyatining ortishiga sabab bo'lgan. Chunki, mamlakatda qo'shhokimlik yuzaga kelib, Bayqaroning ikkita o'g'li bir paytning o'zida hukmdor deb e'lon qilingan. Muhammad Shohbaxt esa har bir shahzodani alohida-alohida holda, osonlik bilan mag'lubiyatga uchratgan [10. – B. 106.].

Ko'plab tarixiy manbalarda, Muhammad Shayboniyxon haqida turlicha, bir-biriga qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ayrim tarixchi olimlar uni mo'g'il naslidan deya temuriylarga qarshi qo'ygan bo'lsalar, ayrim tarixchilar, masalan, Z.Muqimov va boshqalar Shayboniylarni ham turkiy qavmlardan biri sifatida, ya'ni Oltin O'rdada allaqachonlar islomni qabul qilgan va Dashti Qipchoqlik o'zbeklar bilan birlashib, aralashib, ularning tillari ham, o'zlari ham turkiylashgan deya to'g'ri xulosaga kelganlar [6. – B. 16.].

Mintaqada shayboniylar sulolasini temuriylar sulolasi o'rnida qaror topishi, O'zbekxondan keyin Movarounnahr va Xurosonning katta qismini egallab, Turkistonda o'zbeklarning barcha turkiy qavmlarning umumiy nomi sifatida aytilishiga asos solgan shoh bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. O'zbek nomi bayrog'i ostida barlos, mang'it, qo'ng'irot va boshqa qavmlar birlashib, qo'shilib ketdilar [6. – B. 17.].

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Muhammad Shayboniyxon buyuk sarkarda davlar arbobi, har tomonlana yetuk tarixiy shaxsdir. U temuriylar davlatini parokanda qilgan hukmdor emas, balki ich-ichidan yemirilgan davlatni boshqa nom ila birlashtirgan hukmdordir. Qardosh xalqlarni, qavmlarni umumiy nom bilan "o'zbeklar" deb atalishiga ham sababchi bo'lgan shoh desak mubolag'a bo'lmaydi. U faqat jang-u jadallar ichida emas balki, adabiyot-she'riyat, manaviyat bo'stonida ham munosib qilich va qalam tebrata oldi. Uning davrida aholi osoyishtalikda, tinchlik va hotirjamlikda yashashdi. Chunki, undan oldingi davrda ya'ni so'nggi temuriy hukmdorlarning davrida xalq juda ko'p jabr-zulm va aziyatlar iskanjasida edi. O'zbek qavmlari Muhammad Shayboniyxon timsolida tinchlik va farovonlik kelajagini ko'ra olishdi va unga ishonishdi. Xalqning qo'llab-quvvatlashi oqibatida Muhammad Shayboniyxon dastlabki o'zbek davlatini tuza oldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muqimov Ziyodulla. Shayboniylar davlati va huquqi: Tarixiy-huquqiy tadqiqot. – T.: Adolat, 2007.

2. Jo’rayev U. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. – T.: O’qituvchi, 2019.

3. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.

4. Eshov B. J., Odilov A. A. O’zbekiston tarixi: XIV asr o’rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha. – T.: “Donishmand Ziyosi”, 2020.

5. Asqarov A., Ziyo A., Maqsudov F. va boshqalar. O’zbekiston tarixi: eng qadimgi davrdan bugungi kungacha ( I jild ). – T.: Ma’naviyat, 2023.

6. Boboyev H., Xidirov Z., Shodiyev J., Ahmedova M. O’zbek davlatchiligi tarixi (II kitob ). – T.: Fan va texnologiya, 2009.

7. Siyoyev S. Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon qissasi. – T.: Navro’z, 2021.

8. Sultonov F., Bozorboyev F. O’zbekiston hukmdorlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

9. Eshov B. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.

10. Zamonov A. O’rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma’lum sahifalari. – T.: BAYOZ, 2020.

11. To’rayev H. O’zbekiston tarixi: Buxoro tarixi (X jild ). –T.: O’zbekiston, 2023.

12. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O’qituvchi, 1994.

13. O’zbekiston tarixi: Xrestomatiya. V jild / mas’ul muharrir N.Habibullayev. – T.: O’zbekiston, 2023.

## BIBIXONIM – TARIX SAHNASIDA

***Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi,***

*Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Madraximov Zoxid Sharofovich*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola qudratli malika, buyuk Amir Temurning sevimli rafiqasi Bibixonim nomi bilan ham tanilgan Saroy Mulk xonimning ibratli hayot yo’li va davlat boshqaruvidagi o’rniga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:*** *Qozonxon, amir Husayn, Amir Temur, Saroymulkxonim, Bibixonim, temuriylar sulolasi, davlat boshqaruvi, madrasa, maqbara.*

***Аннотация:*** *эта статья посвящена образцовому жизненному пути и месту госпожи Сарай-Мульк, также известной как Бибиханим, могущественной принцессы, любимой жены великого эмира Тимура, в управлении государством.*

***Ключевые слова:*** *Казан-Хан, Амир Хусейн, Амир Темур, Сарайм-Мульканим, Бибиханим, династия Тимуридов, государственное управление, медресе, мавзолей.*

***Annotation:*** *this article is dedicated to the noble life of the Lady of the Palace estate, also known as Bibihonim, the beloved wife of the powerful Queen, The Great Emir Timur, and the Orni in public administration.*

***Keywords:*** *Kazan, amir Husayn, Amir Temur, Saroymulkhanim, Bibikhonim, Timurid dynasty, public administration, madrasa, mausoleum.*

Yurtimiz tarixida o'ziga xos iz qoldirgan mashhur ayollardan biri – shak-shubxasiz Amir Temurning sevimli rafiqasi Bibixonim nomi bilan ham tanilgan Saroy Mulk xonimdir.

Saroy Mulk xonim Chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. Qozonxon taxtdan azl etilib, qatl qilingan chog'da Saroy Mulk xonim hali besh yoshda edi. Saroy Mulk xonim balog'atga yetgach, 1355-yilda Movarounnahr hukmdori amir Qozog'onning nabirasi amir Husayn nikohiga kirgan. 1370-yilda sohibqiron Amir Temur jangda amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahr hukmronligini o'z qo'liga oladi. Tabiiyki, amir Husaynning bir necha xotinlari bo'lib, haramning ulug' bekasi – Tarmashirinxonning qizi Suyunch Qutlug' Og'o edi. Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi – Saroy Mulk xonimni, Bayon Sulduzning qizi – Ulus Og'oni, Xizr Yasuriyning qizi – Islom Og'oni hamda Tag'oy Turkon Xotunni tanlab olib, idda muddati uch oy o'tgach, o'z nikohiga oladi.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o'z nikohiga kiritgach, "ko'ragon" unvoniga musharraf bo'lgan. "Ko'ragon" iborasi mo'g'ulcha so'z bo'lib,

“kuyov” degan ma’noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulk xonim mo‘g‘ul xonlaridan birining qizi bo‘lgani tufayli sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul xonining kuyovi, ya’ni “Amir Temur Ko‘ragon” nomini olgan edi.

Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, “katta xonim” yoxud “Bibixonim” degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy Mulk xonim ko‘pincha birga yurgan. Tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergan ma’lumotlariga ko‘ra, o‘ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulk xonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan.

Ma’lumki, Amir Temur va temuriylar davrida ayollarga, xotin-qizlarga o’zgacha, ijobiy munosabatda bo’lishgan. Ular muntazam davlat tadbirlarida ishtirok etib turishgan. Xususan, Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko‘ra, chet ellik elchilarni qabul qilish marosimlarida hukmdor yonida xotinlari ham ishtirok etishgan. Ispaniya qiroli Genrix III ning Samarqand hukmdori Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning yozishicha, 1404-yil 8-sentyabr dushanba kuni Amir Temur Samarqand chetidagi “Dilkusho” bog‘ida elchilarni qabul qiladi. Qabul marosimi katta ziyofat va tantana bilan boshlangan. Klavixoning hikoya qilishicha, qabul marosimida hukmdor Temurning yonida Saroy Mulk xokim boshliq boshqa xotinlari ham yuzlariga parda tashlab o‘tirganlar. Ispan qiroli yuborgan hadyalar orasida hukmdorga ko‘proq qizil movut

ma'qul bo'lgan. Bu haqda u o'z xotinlari, avvalo Saroy Mulk xonim bilan fikrlashadi. 1404 yil 17-oktyabr juma kuni Saroy Mulk xonim ham katta ziyofat beradi. Ziyofatda boshqa elchilar qatorida ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo ham qatnashadi. Klavixo Temur bog'larida berilgan ziyofatlarning to'kin-sochinligi, bog'lardagi rang-barang ipak chodirlar, undagi oltin-kumush jihozlaru bog'larning o'ta did va farosat bilan jihozlangani haqida maroq ila hikoya qiladi.

Naql qilishlaricha, Saroy Mulk xonim kunlardan bir kun o'z jamg'armasi hisobiga, savoblik uchun xudo yo'lida bir madrasa bino qildirishga eri Amir Temurdan ijozat so'raydi. Hukmdordan ruxsat bo'lgach, otasi Qozonxon tomonidan sovg'a qilingan bir juft olmos baldog'ini sotuvga qo'yib, bu mablag'ni madrasa qurilishiga sarflaydi. Saroy Mulk xonim madrasa qurilishi jarayonnda qurilish maydoniga tez-tez kelib ish boshqaruvchilarga fikrini aytadi. Madrasa qurilishi nihoyasiga yetayotganda ham Saroy Mulk xonim odati bo'yicha o'z kanizlari bilan qurilish maydoniga kelib, ustaboshiga binoning kam-ko'stlari haqida ko'rsatmalar beradi. Ustaboshi Saroy Mulk xonimning yuzini ko'rmagan bo'lsa-da, uning jozibali so'z ohanglaridan oqila va o'tkir zehnli ayol ekanligiga imoni komil bo'ladi. Malika ketgach, ustaboshi xonim bilan bo'lgan bir nafaslik muloqotdan olgan taassurotini ichiga sig'dirolmay, hissiyoti g'alaba qilib, atrofidagi ustalarga: – Yopiray, ayol zoti ham shunchalik dono va oqila bo'ladimu?.. Xonim haqida shu kungacha eshitgan barcha ta'rif-tavsiflarning hammasi to'g'ri ekan. Qani endi hamma ayollar ham shunday nafosatga ega bo'lsaydi, – deb chuqur uf tortadi. Ustaboshining beg'ubor so'zlari tez orada qurilishdagi barcha korfarmon, usta va mardikorlar orasida tarqaladi. Bir-ikki kun o'tgach, mish-mishlar zo'rayib, "nima deysan, ustaboshi xonimga g'oyibona oshiq bo'lib qolgan emish", degan so'zlar tarqab ketadi. Tabiyki, bu mish-mishlar Saroy Mulk xonim qulog'iga yetib boradi. Ustaboshi o'zining bemulohazaligidan o'kinib, suyaksiz tilning jarohatidan nolib turgan bir vaqtda, Saroy Mulk xonimning xos kanizlaridan biri qo'lidagi ro'molga o'ralgan laganchani ustaboshiga uzatarkan: – Xonim ushbu tuxumlarni sizga yubormishlar. Toki mazkur yetti xil rangga bo'yalgan yetti dona tuxumni tanovul aylab, alarning mazasi bir xilmu yoxud har birining mazasi alohidamu, ushbuni farqlab bergaysiz. Javobini ertaga qiyom paytida eshiturmiz,– deb qaytib ketadi.

Ustaboshi ro'molni ochib, yetti xil rangdagi tuxumni o'z ko'zi bilan ko'rgach, xonim nimaga shama qilayotganini tushunib, chuqur iztirobga tushadi.

Noyob me'moriy inshoot hisoblangan Bibixonim masjidi davr o'tishi mobaynida zilzilalar ta'sirida ancha futurdan ketib, vayronaga aylangan. Hozirgi kunda Bibixonim masjidi bir-biri bilan bog'lanmagan olti bo'lakdan iborat bo'lib, hovlining yuqori qismida mehrobli baland peshtoqli bino, poygakda masjidning ikkiga ajralgan peshtoqi hamda shimoli-g'arb qismida yakka holda saqlanib qolgan minora. O'z davrida mazkur bo'laklar uch qator oq marmar ustunli, yengil ravoqli peshayvonlar bilan bir-biriga birlashtirilib, ularning ustida 400 ta gumbazchalar bo'lgan. Ustunlarning jami 480 ta bo'lib, oralig'i – 3,5 metr, ostki qismi maxsus tagkursili, o'rta qismi o'yma naqshkor, yuqori qismi rangli koshinlar bilan qubba shaklida ishlangan. Hovli o'rtasiga marmar toshdan ulkan lavh – Qur'on qo'yib o'qiladigan maxsus kursi qo'yilgan. U avvallari asosiy bino ichida bo'lib, 1875-yilda gumbazning qulash xavfi tug'ilganda hovli o'rtasiga chiqarib qo'yilgan. Mazkur lavh Ulug'bek Mirzo ko'ragonning farmoni bilan yasalgan. Lavhga "Sultoni a'zam, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Hanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton ibn Sulton amir al-mo'minin Ulug'bek ko'ragon" deb yozilgan.

Bibixonim masjidiga kiraverishdagi katta peshtoqning ustki qismi 1897-yilgi zilzilada qulab tushgan. Peshtoqning ichki qismida kichikroq ikkinchi ravoq va uning o'yma marmar hoshiyali darvozasi ham bo'lgan. Darvoza ustiga o'rnatilgan lavhada masjidning qurilgan yili va amir Temurning shajarasi bitilgan. Masjidning "haft jo'sh" – yetti xil metall qotishmasidan yasalgan qo'sh tabaqali darvozasi bo'lgan.

Bu darvoza keyinchalik yo'qolib ketgan. Bibixonim masjidi ayni davrda vayrona holda bo'lsa-da, serhasham bezaklarning o'ta nafisligi kishi diqqatini o'ziga jalb etadi. Rang-barang shakl va naqshlar o'sha davr ustalarining nozik did va yuksak mahoratidan dalolat berib turadi.

1405-yil 8-fevralda sohibqiron Amir Temur O'trorda vafot qilgach, Samarqand taxtiga uning nabirasi Xalil Sulton Mirzo (1384 – 1411) o'tirgan. Ibn Arabshohning bergan ma'lumotiga ko'ra, Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk begim 1408-yilda Saroy Mulk xonimni zaharlab o'ldirgan. Saroy Mulk xonimning jasadini o'zi qurdirgan madrasasi yonidagi maqbaraga "tosh tobut"ga solib,

mo'miyolanib dafn qilingan. 1941-yil iyun oyida Go'ri Amir maqbarasida abadiy uyquga ketgan amir Temur, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo va Ulug'bek Mirzolarning qabrlari ochib tekshiriladi. Saroy Mulk xonim qabri ham ochilib, jasadni tekshirish maqsadida Toshkentga olib kelishgan. Keyinchalik yana Samarqandga olib borib qo'yilgan.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand ko'rmagan. Ammo sohibqiron o'z o'g'li Shohruh Mirzoni, suyukli iabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo va boshqa mirzolarii bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi.

## Xulosalar

Saroy Mulk xonimning siyosiy strateg, madaniy homiy va me'moriy vizyoner sifatida merosi uning Temuriylar sulolasi va Markaziy Osiyo tarixiga sezilarli ta'sirini ta'kidlaydi. Uning hayoti va hissalari o'rta asr Islom jamiyatlarida ayollarning roli to'g'risida qimmatli tushunchalarni beradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar Saroy Mulk xonimning merosini yanada chuqurroq tushunish uchun quyidagi yo'nalishlarni o'rganishi mumkin:

Qiyosiy tahlil: Saroy Mulk xonim va Islom tarixidagi boshqa taniqli ayollarning qiyosiy tadqiqoti ayollarning siyosiy va madaniy sohalardagi roli haqida kengroq ma'lumot berishi mumkin.

Arxitektura tadqiqotlari: Bibixonim masjidi va uning homiyligi bilan bog'liq boshqa binolarning batafsil me'moriy tahlili davrning badiiy va texnik yangiliklari haqida ko'proq ma'lumot berishi mumkin.

Tarixiy rivoyatlar: sud xronikalari va boshqa asosiy manbalarni tergov qilish uning shaxsiy hayoti, munosabatlari va Temuriylar sudidagi ta'siri haqida ko'proq ma'lumot berishi mumkin.

## Adabiyotlar:

1. Эгамбердиев А. Жанровая живопись Узбекистана. – Т.: Изд. Гафур Гулям, 1989.

2. Omonov D. E., Kholikov J. T., Egamova Sh.X. The Role and Importance of Using Graphic Programs in Shaping Students' Knowledge and Skills. // Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7578 http://innosci.org/ 45 | Page

3. Izbasarov I. U., Suvonkulov I. Sh., Omonov D.E. Spatial Imagination and Logical Thinking as a Pedagogical Basis for Teaching Students to Design // Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7578 http://innosci.org/ 37 | Page
4. Omonov D. E. Conceptual Bases of the Production of Teaching Technologies in Exposure and Practical Training (In the Example of the Engineering Graphics Course) Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7551 http://innosci.org 104 | Page

## SHARTNOMAVIY MAJBURIYATLAR: G'ARB MAMLAKATLARIDA

***Sultanova Zarina Abdujabbor qizi.***
*NamDPI, Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*
*Tel: +998-93-484-60-03*
*E-mail:* sultanovazarina965@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada shartnoma majburiyatlarini bajarilishi g'arb davlatlari misolida ko'rib chiqilgan bo'lib, unda shartnomaviy javobgarlik va delikt javobgarliklarga alohida tariflar berilgan hamda G'arb davlatlarida shartnomaviy majburiyatlarni bajarilish prinsiplariga to'xtalib o'tilgan.*

***Abstract:*** *In this article, the performance of contractual obligations is considered in the case of Western countries, in which separate tariffs are given for contractual liability and delict liability, and the principles of performance of contractual obligations in Western countries are discussed*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается исполнение договорных обязательств на примере западных стран, в которых установлены отдельные тарифы на договорную ответственность и деликтную ответственность, а также обсуждаются принципы исполнения договорных обязательств в западных странах.*

***Kalit so'zlar:*** *Majburiylik prinsipi, oshkoralik va javobgarlik, shartnomaviy javobgarlik, delikt javobgarlik, shaffoflik, responsabilite civile(davlat javobgarligi), Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, konseptual toifalar*

***Key words:*** *Principle of obligation, transparency and responsibility, contractual responsibility, delict responsibility, transparency, responsabilite civile (state responsibility), protection of consumer rights, conceptual categories*

***Ключевые слова:*** *Принцип обязательности, прозрачность и ответственность, договорная ответственность, деликтная ответственность, прозрачность, responsabilite Civile (ответственность государства), защита прав потребителей, концептуальные категории.*

G'arb mamlakatlarida shartnoma majburiyatlarini bajarish odatda juda jiddiy tarzda qabul qilinadi va yaxshi o'rnatilgan huquqiy tizimlar bilan tartibga solinadi. G'arb davlatlari shartnomalar bajarilishini va nizolarni adolatli hal etilishini ta'minlash uchun mustahkam qonunchilik asoslari va ijro mexanizmlarini qurib qo'ygan davlatlar hisoblanadi. G'arb mamlakatlarida shartnoma majburiyatlarining bajarilishi mustahkam huquqiy asoslar, samarali ijro mexanizmlari va qonun ustuvorligini ta'minlash majburiyati bilan qo'llab-quvvatlanadi. Korxonalar va jismoniy shaxslar o'zlarining shartnomaviy huquqlarini himoya qilish va shartnomalar shartlariga muvofiq bajarilishini ta'minlash uchun odatda huquqiy tizimlarga tayanishi mumkin. G'arb davlatlari shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kirishi hech kimga sir emas. Ushbu obro'-e'tibor shartnomalarning mustahkam bajarilishiga va G'arb huquqiy tizimlarida biznes bitimlarining ishonchliligiga hissa qo'shadigan bir qancha omillardan kelib chiqadi. G'arb davlatlari bu borada ko'pincha yetakchi mamlakatlar sifatida ko'rilishining ba'zi sabablariga to'xtaladigan bo'lsak birinchi navbatda Kuchli huquqiy tizimlarning shakllanganligiga e'tibor qaratishimiz muhimdir. G'arb mamlakatlarida odatda shartnomalarni bajarish uchun aniq qoidalar va tartiblarni ta'minlovchi yaxshi tashkil etilgan huquqiy tizimlar mavjud bo'lib , ushbu huquqiy tizimlar tomonlarning huquqlarini himoya qilish, kelishuvlarni bajarilishini ta'minlashga, hamda nizolarni adolatli va samarali hal qilish uchun mo'ljallangandir. Bundan tashqari Majburiylik prinsipi ham mavjud bo'lib, G'arb mamlakatlaridagi shartnomalar odatda huquqiy tizim orqali amalga oshiriladi, ya'ni shartnoma buzilgan taqdirda tomonlar huquqiy himoya vositalarini izlashlari mumkin. Sudlar

tomonlarni o'z majburiyatlarini bajarishga majburlash yoki yetkazilgan har qanday zararni qoplash huquqiga egadirlar.

Fuqarolik huquqiy javobgarlik institutining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ingliz va kontinental Yevropa huquqi uchun o'ziga xos zamin bo'lgan Rim xususiy huquqi na fuqarolik javobgarligining umumiy tushunchasini, na shartnomani buzganlik uchun javobgarlik va na delikt javobgarlikning o'ziga xos toifalarini yaratmagan.[1]

Har qanday demokratik jamiyatda Oshkoralik va javobgarlik muhim ahamiyatga egadir. G'arb huquqiy tizimlari shartnomaviy munosabatlarda shaffoflik va javobgarlikka ko'proq urg'u beradi. Shartnoma majburiyatlarini olgan tomonlar vijdonan harakat qilishlari, tegishli ma'lumotlarni oshkor qilishlari va shartnoma shartlari bo'yicha o'z majburiyatlariga rioya qilishlarini talab qiladi.

Ta'kidlash lozimki, fuqarolik huquqiy javobgarlik institutiga katta e'tibor beradigan fransuz huquqshunosligida ham "responsabilite civile" atamasi faqat XVIII asrning oxirida paydo bo'lgan. Faqat 1804-yilgi Napoleonning fuqarolik kodeksida tuzilgan shartnomani bajarmaganlik (1174-modda) va fuqarolik huquqbuzarliklarini sodir etganlik (1382-modda) uchun javobgarlikning umumiy formulalari, avvalambor, fransuz doktrinasi uchun yaratilgan.[1]

Shuningdek, ushbu kodeks bilan fuqarolik javobgarligi hodisalari bir emas, balki ikkita konseptual toifalar doirasida – shartnomaviy javobgarlik va delikt javobgarlik turlariga ajratildi.

Shartnomaviy javobgarlik deganda tovon oluvchining javobgarligini o'z zimmasiga olish emas, balki javobgarlikdan kelib chiqadigan moliyaviy oqibatlarni o'z ichiga oladi . To'lov oluvchi tasodifan uchinchi shaxsga shikast yetkazsa yoki da'vo qilsa ham, tovon oluvchi bu javobgarlik uchun javob beradi. Shunday qilib, shikastlanish yoki zarar uchun uchinchi shaxs oldidagi javobgarlikni shikastlanish yoki zarar yetkazgan shaxsdan boshqa hech kim o'z zimmasiga olmaydi. Buning o'rniga tovon oluvchi tomonidan tovon oluvchiga o'tkaziladigan narsa, belgilangan tovon oluvchining javobgarligining moliyaviy oqibatlari (ya'ni, pul zararlari) kiradi.[2] Delikt atamasining o'zi O'zbekiston qonunchiligida qo'llanilmaydi. Fuqarolik huquqida bir shaxsning fuqarolik huquqbuzarligi natijasida boshqa shaxsga mulkiy zarar yetkazishi tufayli Delikt javobgarligi yuzaga keladi.[3]

Romano-german yuridik oilasining koʻplab mamlakatlari uchun fuqarolik huquqining manbasiga aylangan nemis fuqarolik huquqida fuqarolik javobgarligi qarzdorga uning xatti-harakatlari bilan kreditorda yuzaga keladigan salbiy oqibatlar oʻrtasida sababiy bogʻlanish boʻlsagina yuklanadi. Ya’ni shartnomada belgilangan majburiyatni bajarmaslik va kreditorga yetkazilgan zarar oʻzaro bogʻliq boʻlganda, qarzdor fuqarolik huquqiy javobgarlikka tortiladi.[1]

G'arb huquqiy tizimlari shartnoma erkinligini qadrlaydi, bu esa tomonlarga erkin muzokaralar olib borish va o'z ehtiyojlariga eng mos keladigan bitimlar tuzish imkonini beradi. Ushbu moslashuvchanlik samarali va samarali biznes aloqalarini rag'batlantirishga yordam beradi.

Koʻpgina Gʻarb davlatlari shartnoma huquqi bilan bogʻliq xalqaro standartlar va konventsiyalarga amal qiladi, bu transchegaraviy operatsiyalarni osonlashtiradi va turli mamlakatlardan kelgan tomonlar oʻrtasida shartnomaviy munosabatlarda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo’yicha ham G'arb mamlakatlarida shartnomaviy munosabatlarda shaxslarga adolatli munosabatda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan qonunlari mavjud. Ushbu qonunlar ko'pincha shartnomalarning aniq va tushunarli bo'lishini talab qiladigan qoidalarni, shuningdek, nizolarni hal qilish va har qanday qoidabuzarliklarni bartaraf etish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, mustahkam huquqiy asoslar, shartnomalarning bajarilishi, qonun ustuvorligiga rioya qilish, shaffoflik va javobgarlikka sodiqlik kombinatsiyasi Gʻarb davlatlarining shartnoma majburiyatlarini bajarishda yetakchi boʻlishiga yordam beradi.

G'arb mamlakatlarida shartnoma majburiyatlarini bajarish shartnoma huquqi va tadbirkorlik amaliyotining asosiy tamoyilidir. Shartnomalar tomonlar o'rtasida qonuniy kuchga ega bo'lgan shartnomalar bo'lib, bu shartnomalarni buzish huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. G'arb mamlakatlarida odatda shartnomalar bajarilishini ta'minlash va shartnoma majburiyatlarini buzish natijasida kelib chiqadigan nizolarni hal qilish mexanizmlarini ta'minlovchi yaxshi tashkil etilgan huquqiy tizimlar mavjud.

Ingliz huquqiy doktrinasining pragmatik tabiati, birinchi navbatda, shartnoma javobgarligini huquqiy tartibga solish muammolari, shartnoma buzilishining oqibatlari kabi aniq jihatlarga e'tibor qaratdi. Shartnoma buzilishi konsepsiyasining asosiy qoidasi, ushbu munosabatlarning tuzilishini oldindan belgilab beradi ya'ni shartnoma bajarilmasligi natijasida yuzaga kelgan zarar uchun qarzdorning javobgarligi uni buzish fakti bilan asoslanadi. Qarzdor o'zining shartnomaviy majburiyatlarini bajargan yoki bajarmaganligi, ijroni kechiktirgan yoki kechiktirmaganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, chunki shartnomaning buzilish faktini ifodalash uchun va'da qilingan muvaffaqiyatga erishilmaganligi, qarzdor tarafidan berilgan kafolatning yo'qolishi fikoya. Bundan tashqari, zararni qoplashni talab qilish huquqining paydo bo'lishi sababi qarzdorning shartnomani bajarmaganligi uchun aybdor yoki yo'qligiga bog'liq emas. 1979-yil "Tovarlarni sotish to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida tegishli shartnomalarni bajarish muddatlari to'g'risida qoidalar mavjud bo'lib, shartnomani buzishning boshqa turlaridan farqli o'laroq, ular faqat ijro muddatini buzish oqibatlarini tartibga soladigan maxsus qoidalarni o'z ichiga olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ingliz qonunchiligi ushbu shartnoma buzilishiga xos bo'lgan huquqiy oqibatlarni aniqlash naqtayi nazaridan kech bajarilishini (ijro muddatining buzilishini) ta'kidlamasdan, shartnomani buzish haqidagi umumiy tushunchaga asoslanadi.[4]

Tomonlar G'arb davlatlarida shartnoma tuzganda, shartnomada kelishilgan holda o'z majburiyatlarini bajarishlari kutiladi. Bu shartnomada ko'rsatilgan muayyan majburiyatlarni, yoki va'dalarni belgilangan muddatlarda va kelishilgan shartlarga muvofiq bajarishni o'z ichiga oladi. Agar tomon G'arb davlatida o'z shartnoma majburiyatlarini bajarmasa, shartnomani buzmagan tomon shartnomani bajarish uchun qonuniy choralar ko'rishi mumkin. Ushbu himoya vositalari pul zararini qoplashni, muayyan ishlarni bajarishni (sud qonunbuzar tomonni o'z majburiyatlarini bajarishni buyurganida) yoki shartnomani bekor qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, G'arb mamlakatlarida faoliyat yurituvchi korxonalar va jismoniy shaxslar o'z shartnomalarining qonuniy talablari va majburiyatlarini tushunishlari va ularga rioya etilishini ta'minlash va shartnoma shartlarini buzmasliklari juda muhimdir. Yuridik maslahat so'rash,

aniq va keng qamrovli shartnomalar tuzish va tomonlar o'rtasida yaxshi muloqotni saqlash G'arb mamlakatlarida nizolarning oldini olishga va shartnoma majburiyatlarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlashga yordam beradi. Xorijiy davlatlar va O‘zbekiston o‘rtasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarishdagi farqlarga to’taladigan bo’lsak asosan, huquqiy tizimlarning mustahkamligi va yetukligi, ijro mexanizmlari, xalqaro standartlarga rioya etilishi, amaldagi shaffoflik, hisobdorlik va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish me’yorlarining ko‘lami bilan bog‘liq. Xorijiy mamlakatlarda shartnoma majburiyatlarining ishonchli bajarilishini qo‘llab-quvvatlovchi yanada mustahkamlangan huquqiy baza va amaliyotlar mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston bu boradagi huquqiy infratuzilma va amaliyotni takomillashtirish ustida ishlamoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** https://buxoro-mamuriy.sud.uz/shartnoma-majburiyatlarini-bajarmaganlik-uchun-fuqarolik-huquqiy-javobgarlik/

**2.** https://propedia.org/uz/topic/643399-pshartnomaviy-javobgarlik-sugurtasi-tarifi-va-qamrovi

**3.** https://uz.wikipedia.org/wiki/Delikt

**4.** https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-milliy-huquqimizda-shartnomaviyjavobgarlikning-asoslari

## III. MAXSUS PEDAGOGIKA

# IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR – IMKONIYATI CHEKSIZ BOLALAR SAFIDA

***Rahimjanova Mashhura***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi*
*E-mail:@rahimjanovamashhura7@gmail.com*
*Tel:+998940281026*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotida imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim va tarbiya berish, imkoniyati cheksiz bolalar safiga qo’shish, psixologik taktikalar haqida batafsil bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В статье подробно описана психологическая тактика обеспечения образования и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в дошкольной организации образования, пополнения их рядов детей без инвалидности.*

***Abstract:*** *This article describes in detail the psychological tactics of providing education and training to children with disabilities in the preschool education organization, adding them to the ranks of children without disabilities.*

***Kalit so‘zlar:*** *inklyuziv ta’lim, integratsion ta’lim, innovatsion yondashuv, imkoniyati cheklangan bolalar, konsepsiya.*

***Ключевые слова:*** *инклюзивное образование, интегрированное образование, инновационный подход, дети с ограниченными возможностями, концепция.*

***Key words:*** *inclusive education, integrated education, innovative approach, children with disabilities, concept.*

## KIRISH

Yangi O‘zbekistonning yangi Renessans davrida ta’lim tizimida berilayotgan islohotlarning barchasi o‘z samarasini ko‘rsatib, xalqimizning ertangi kelajagi uchun yangi zamin yaratmoqda. Jumladan, inklyuziv ta’lim ham bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib qoldi. Prezidentimizning yoshlarga oid davlat

siyosatlarida ustuvor vazifalarining ilk pog'onasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim va tarbiya sifatini yanada yaxshilash, tibbiy muolajalarni doimiy nazorat ostiga olish nazarda tutilmoqda. Bu ustuvor vazifalar qatorida Prezidentning 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi, [1] Vazirlar Mahkamasining qarori bilan maktabgacha va maktab ta'limi uchun "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori imzolandi.[2] Bosh qomusimiz – Yangi Konstitutsiyamizda ham ilk marotaba inklyuziv ta'lim tushunchasini kiritlishi inklyuziv ta'lim sohasidagi eng katta o'zgarishlardan biri bo'ldi desam, mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni, Yangi Konstitutsiyadagi tahrirga muvofiq ikkinchi bo'lim, to'qqizinchi bobning 50-moddasida:" Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi."

Ma'lumotlarning qayd etishicha, o'tgan yil holatiga ko'ra, yurtimizda 710 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxs ro'yxatga olingan. Ular yurtimizning turli hududlarida, turli sharoitlarda yashaydilar. Eng achinarlisi, ularning atigi 10%i oliy ma'lumotli. Ta'lim bilan qamrab olinmagan nogiron yoshlar qancha... Umuman, tizimga ichkari kirib borsangiz, yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Jahon tarixiga nazar solsak, dunyoning mashhur bastakori Betxoven tug'ma ojiz bo'lgan, AQSHning to'rt marta prezidenti etib saylangan Franklin Ruzvelt esa bolalar falaji kasalligini boshidan o'tkazgan. Mashhur ingliz yozuvchisi Jon Milton 43 yoshida ko'zlari ojiz bo'lib qolgan va shunga qaramay o'zining shoh asari – "Yo'qolgan jannat"ni yaratgan. [3] Umuman bu kabi misollarni sanasak adog'i yo'q. Hammasi avvalo insonning o'ziga bog'liq deysiz, to'g'ri. Ammo hamma narsaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatdagi muhitga ham bir qadar bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Imkoniyati cheklangan bolalar ruhiy, aqliy , jismoniy jihatdan
nosog'lom bolishi mumkin, lekin o'qish, ta'lim imkoniyatidan cheklangan emas. Imkoniyati cheklangan bolalalar Maktabgacha ta'lim tashkilotida aqliy, ruhiy, jismoniy jihatdan bolalar bilan ta'lim olar ekan, imkoniyati cheklangan bolalarning

insoniylik qadriga dastavval putur yetadi.Chunki bola ruhiy jihatdan nosog'lom bo'lsa-da, aqliy jihatdan atrofidagi shaxslarning suhbatini idrok etib tura oladi. Nima uchun imkoniyati cheklangan bolalar soni ortib bormoqda?

- - Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ hujjatlarida qayd qilinmaganligi;
- - Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat:
- - imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosi;
- - Imkoniyati cheklangan bolalarning MTT da ko'rinmaslik muammosi;
- - Moddiy mablag' muammolari:

1. =Ta'lim tashkilotini moslashtirish;

- - Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar sonining ko'pligi;
- - Kambag'allik, imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;
- - Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar, kadrlar masalasidagi
- muammolar.[4]

Haqli savol tug'iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib, inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor? Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining nafli jihati juda ko'p ular sirasiga quyidagilar kiradi:

1. -Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
2. -Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
3. -Kamsitishlarni oldini oladi;
4. -Inklyuziv ta;lim yanada inklyuzivlikka olib keladi. [5]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, inklyuziv ta'lim tizimi bo'lmaganda edi, imkoniyati cheklangan bolalar hozir ta'lim olmayotgan bo'lar edi. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash zarur. Chunki birgina oddiy salbiy munosabat bolaning ruhiyatiga ta'sir etishi mumkin. Salbiy munosabat maxsus ehtiyojli bolalarning Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim - tarbiya olishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, tashkilot hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning

o'zlaridagi tashkilotlarda ta'lim-tarbiya olishlariga nisbatan qarshiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab, nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ota- onalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.Zero, imkoniyati cheklangan bolalar, ta'lim olishdan cheklangan emas. Bo'lajak yetuk kadrlar yetishib chiqayotgan ekan, imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim va tarbiya olish natijasida sog'lom bolib boraveradi. Taklifim shundan iboratki, aqli zaif, ruhiy jihatdan ortda qolgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan holda, oila bilan hamkorlik ishlari tashkil etilsa, kun kelib, inklyuziv ta'lim oz samarasini beradi. Faqatgina bolani har qanday holda qo'llab- quvvatlash, uni rag'batlantirish, o'zida mavjud bo'lgan iqtidorini, iste'dodini namoyon eta olish uchun barcha sharoitlarni yaratib berish darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi.
2. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 25-yanvardagi 46-sonli qarori.
3. https://yuz.uz//news sayti materiallari.
4. " Inklyuziv ta'lim asoslari " O'quv uslubiy qo'llanma. Urganch.2020.
5. R.Sh. Shomaxmudova ,, Maxsus va inklyuziv ta'lim xalqaro va milliy tajribalar"-o'quv uslubiy qo'llanma.Toshkent 2011.

## IV. ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR

# ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

***Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи***

*старший преподаватель кафедры педагогики и психологии University Of Business And Science негосударственное высшее учебное заведение*

*orcid.org/0009-0005-5691-3196*

***Аннотация:*** *в статье акцентируется внимание на достоинства инновационных технологий на уроках русского языка и литературы, даётся обоснование необходимости применения элементов данных технологий в педагогической практике. Показано, как при помощи различных педагогических приёмов и форм можно добиться высокой результативности обучения учащихся при постоянном стимулировании их деятельности на учебных занятиях. Использование инновационных технологий на уроках необходимо для решения практических задач, обозначенных в программе по русскому языку и литературе.*

***Ключевые слова:*** *задача, приёмы, программа, русский язык и литература, результативность, технология, деятельность.*

***Annotation:*** *the article focuses on the advantages of innovative technologies in Russian language and literature lessons, provides a justification for the need to use elements of these technologies in pedagogical practice. It is shown how, with the help of various pedagogical techniques and forms, it is possible to achieve high performance in teaching students with constant stimulation of their activities in the classroom. The use of innovative technologies in the classroom is necessary to solve practical problems identified in the Russian language and literature program.*

***Keywords:*** *task, techniques, program, Russian language and literature, effectiveness, technology, activity.*

Основная задача современного школьного образования - это не только накопление учеником определённой суммы знаний, умений, навыков, но и подготовка школьника как самостоятельного субъекта образовательной деятельности. Для достижения этих задач педагогам необходимо использовать в учебном процессе инновационные образовательные технологии, в основе которых должна лежать активность ученика, направляемая учителем. Потому что инновационные технологии активизируют мыслительную деятельность учащихся, повышают качество и прочность знаний, развивают речевые навыки и творческие способности. Новые образовательные технологии предлагают инновационные модели построения такого учебного процесса, где на первый план выдвигается взаимосвязанная деятельность учителя и ученика, нацеленная на решение как учебной, так и практически значимой задачи.

Обучение русскому языку и литературе по инновационным технологиям – это организация учебного процесса по-новому, ориентированная на стремление учащихся к активной коммуникативной деятельности, к диалогу, включение в познавательную деятельность его эмоционального, интеллектуального потенциала.

**Инновационные технологии в образовании** - это организация образовательного процесса, построенная на качественно иных принципах, средствах, методах и технологиях и позволяющая достигнуть образовательных эффектов.

**Основными целями использования инновационных технологий являются:**

- развитие интеллектуальных, коммуникативных, лингвистических и творческих способностей учащихся;
- формирование личностных качеств учащихся;
- выработка умений, влияющих на учебно-познавательную деятельность и переход на уровень продуктивного творчества;
- формирование ключевых компетентностей учащихся.

**Данными целями определяются и задачи инновационного обучения:**

- повышение мотивации, интереса к изучаемому предмету;

- усиление познавательной деятельности;
- создание комфортной обстановки, атмосферы взаимопонимания и поддержки в процессе коммуникации на изучаемом языке
- раскрытие творческого потенциала, развитие инициативы
- создание комфортной обстановки, атмосферы взаимопонимания и сотрудничества ученика и учителя в процессе коммуникации на изучаемом языке;
- тщательный отбор материала и способов его подачи.

Использование инновационных технологий на уроках русского языка и литературы позволяет мне индивидуализировать и дифференцировать процесс обучения, контролировать деятельность каждого ученика, активизировать творческие и познавательные способности обучающихся, оптимизировать учебный процесс, значительно увеличить темп работы.

На своих уроках я использую следующие инновационные технологии:

- проблемное обучение,
- метод проектов,
- развитие критического мышления через чтение и письмо,
- технологию модульного обучения,
- дифференцированный подход к обучению,
- информационные технологии,
- игровые технологии.

При использовании инновационных технологий в обучении успешно применяю следующие приемы и формы работы:

- опорный конспект;
- мозговая атака;
- групповая дискуссия;
- чтение с остановками и Вопросы Блюма;
- кластеры;
- синквейн;
- перепутанные логические цепочки;
- дидактическая игра;
- работа с тестами;

- групповая форма работы;
- коллективная форма работы;
  - ассоциативный ряд;
  - лингвистические карты;
  - лингвистические задачи;
  - исследование текста;
  - задания поискового характера.

Проблемное обучение – это форма организации учебного процесса с помощью учебных задач и ситуаций, которые придают обучению исследовательский и поисковый характер. Такая технология позволяет включить мыслительный аппарат ребенка в процесс познания. Это может быть простейшая догадка, сопоставление фактов, вывод правила. А может быть трудная задача, связанная с обобщением, переносом каких-то положений, трансформацией знаний. Наконец, проблемное обучение - это

Технология развития критического мышления через чтение и письмо позволяет вырабатывать умение не только овладеть информацией, но и критически ее оценить, осмыслить, применить. Встречаясь с новой информацией, обучающиеся должны уметь рассматривать ее вдумчиво, критически, оценивать новые идеи с различных точек зрения.

Использование игровых технологий на уроках русского языка и литературы привлекательно тем, что они позволяют в непринужденной форме решать сложные задачи, а именно:

1. Дидактические: расширение кругозора, формирование определенных умений и навыков, необходимых в практической деятельности.
2. Воспитывающие: формирование нравственных, эстетических и мировоззренческих установок; воспитание сотрудничества, чувства коллективизма, воспитание самостоятельности, и воли.
3. Развивающие: развитие внимания, мышления, творческих способностей, умений сравнивать, сопоставлять, находить аналогии, оптимальные решения; развитие мотивации учебной деятельности.

4. Социализирующие: приобщение к нормам и ценностям общества; адаптация к условиям среды; стрессовый контроль, обучение общению; психотерапия.

Чаще всего для организации разносторонней работы учащихся по освоению ими новых знаний, умений, навыков в практике своей работы нами используются такие формы, как

- урок - викторина;
- урок - ролевая игра;
- урок – КВН;
- урок – театр;
- урок –конкурс;
- урок – диспут;
- урок – аукцион знаний;
- урок – концерт и др.

Игровые формы я использую и как элемент урока. Они легко подбираются по тематическому принципу для каждого раздела учебного курса. Игры являются удобной формой актуализации; «разминки», необходимой по ходу урока, контроля в конце учебного занятия.

***Виды игр на уроках***

*Игра «Верю-не верю»*

Хорошо подходит для проверки домашнего задания. Задаются вопросы по теме. Учащиеся соглашаются либо не соглашаются с утверждениями учителя. Вопросы начинаются с фразы: «Верите ли вы, что…».

Игры-соревнования. Такие игры включают все виды дидактических игр. Учащиеся соревнуются, разделившись на команды.

*«Стихотворный бой»*

Такую игру можно провести на уроке литературы, когда пройдена тема лирики, и класс уже освоил несколько произведений поэзии того или иного поэта. Правила игры просты: команды друг другу по очереди рассказывают по стихотворению, проиграла та команда, чей участник не смог вспомнить стихотворные строки.

*«Эстафета восторга»* **Хорошо** подходит при изучении глагола. Используя данные глаголы, обозначающие чувства (любить, радоваться, восхищаться, восторгаться, наслаждаться, обожать), составьте словосочетания или предложения.

Условие: для выполнения этого игрового задания школьники делятся на две команды и рассаживаются по рядам друг за другом. Ведущий дает членам команд, сидящим первыми, карточки с записанными на них глаголами чувства. Выполнив задания, члены команд передают карточки сидящим сзади. Побеждает та команда, которая быстрее и правильнее (выразительнее) составит словосочетания и предложения. Вместо глаголов можно подставить существительные или прилагательные.

**«Найди пару»**

Соединить половинки сложных предложений. Выделить среди них главное и придаточное. Побеждает та команда, которая соберет больше предложений.

Очень часто использую на уроке кроссворды, они не только разнообразят урок, но и заставляют учащихся мобилизовать все знания, полученные ими во время обучения. Это своеобразный тест на проверку знаний и умений их применить на практике.

***Литературные викторины*** используются в познавательных играх, где на первый план выступает также наличие знаний. Игра должна соответствовать знаниям, которыми располагают учащиеся, и в этом случае надо определить, кому следует адресовать ту или иную игру. Очень часто на уроке можно найти время для небольшой викторины по произведениям, изучаемым в школе.

***Ролевые игры*** позволяют учитывать индивидуальные особенности учащихся, их интересы, расширяют контекст деятельности, выступают как эффективное средство создания мотива к диалогическому общению, способствуют реализации деятельностного подхода в обучении, когда в центре внимания находится учащийся со своими интересами и потребностями. Использования данной группы игр на уроке усиливает эмоциональное восприятие материала. Сюжетно-ролевые игры – это эффективный приём

работы, вызывающий интерес у учащихся, активизирующий их деятельность, дающий им возможность проявить свои творческие способности.

Опыт работы показывает, что применение игровых форм на уроке создает предпосылки для активизации познавательной деятельности, для эффективности восприятия и понимания учащимся учебного материала, для раскрытия творческих способностей обучающихся. Игра на уроке создает ситуацию психологической раскованности, способствует повышению общего развития, умению ориентироваться в различных жизненных обстоятельствах. Таким образом, использование игровой технологии на уроках литературы отражает всё многообразие человеческой деятельности: интеллектуальную, эстетическую, нравственно-психологическую, коммуникативную и другие.

**ПРИЕМ «КОРЗИНА» ИДЕЙ, ПОНЯТИЙ, ИМЕН»**

Это прием организации индивидуальной и групповой работы учащихся использую в основном на начальной стадии урока, когда идет актуализация имеющегося у них опыта и знаний. Он позволяет выяснить все, что знают или думают учащиеся по обсуждаемой теме урока. Применяемый на стадии «вызова», данный прием актуализирует и обобщает имеющиеся знания по данной теме или проблеме, вызывает устойчивый интерес к изучаемой теме, мотивирует к учебной деятельности.

На доске можно нарисовать значок корзины, в которой условно будет собрано все то, что все ученики вместе знают об изучаемой теме. В данном случае это тема «И.С. Тургенев. Жизнь и творчество». Она не вызывает трудностей, так как опирается на знания учащиеся, приобретенные в основной школе.

Работа проводится в два этапа.

Этап 1. Перед обучающимися ставится проблема:

- написать на листке все, что они знают о жизненном и творческом пути И.И.Тургенева.

Это *индивидуальная работа.* Вспомнив самостоятельно все, что они знают, записывают свои варианты ответа.

Учитель на доске записывает все возможные варианты ответов детей, складывая их в «корзину».

2 этап. *Коллективная работа.* Вместе с «сильными» учащимися находим неверные ответы и убираем «гнилые грибы» (то есть неверные ответы) из корзины.

Этот прием действен тем, что активизируют у учащихся мыслительную деятельность, способствуют хорошему усвоению знаний, учит видеть свои ошибки («гнилые грибы») и позволяет в дальнейшем избежать их при характеристике жизни и творчества писателя.

## ПРИЁМ «ВЕРНЫЕ – НЕВЕРНЫЕ УТВЕРЖДЕНИЯ»

Приём «*верные – неверные утверждения*» (*или «Верите ли вы?»)* хорош тем, что является нетрадиционным и вызывает живой интерес у учащихся. Используется чаще всего на стадии вызова: предлагается несколько утверждений по ещё не изученной теме. Учащиеся выбирают «верные» утверждения, полагаясь на собственный опыт или просто угадывая. Идёт настраивание на изучение новой темы, выделяются ключевые моменты.

Затем на одном из следующих уроков возвращаемся к этому приёму, чтобы выяснить, какие из утверждений были верными. Полученные результаты совместно обсуждаются. Такая работа позволяет обучающимся, встречаясь с любой информацией, рассматривать её вдумчиво, критически, делать выводы о точности и ценности данной информации.

Использовать прием «*верные – неверные утверждения*» можно и на стадии осмысления, рефлексии.

Приведем пример данного приема.

*Тема: «Индивидуалистический бунт Раскольникова».*

1.Раскольников сочувствует «униженным и оскорбленным».

2. Раскольников идет на убийство, чтобы помочь бедным подняться из нищеты.

3. Преступление Раскольникова состоит в том, что он поделил людей на «низших» и «высших», разрешив «кровь по совести».

5. Слова «… кто у нас на Руси себя Наполеоном теперь не считает?» принадлежат Свидригайлову».

6. В начале «Эпилога» Раскольников не раскаивается в своей теории.

## НЕТРАДИЦИОННЫЕ УРОКИ

Развитию критического мышления способствуют и нетрадиционные уроки, которые позволяют повысить интерес ученика как к предмету, так и к обучению в целом. Попадая в необычную ситуацию, он включается в деятельность, сотрудничество, что способствует созданию положительного эмоционального фона. Начинают активно функционировать интеллектуальная и волевая сферы, легче усваиваются знания, быстрее формируются умения и навыки. Этому способствует создание на нестандартных уроках условий для мобилизации творческих резервов и ученика, и учителя.

В своей практике я наиболее удачно использую несколько нетрадиционных форм урока: практикум, викторина, исследование, путешествие, диалог на основе проблемной ситуации, деловая игра, зачет, урок-семинар. Выбор зависит от нескольких условий: во-первых, учитываю возрастные особенности учащихся, во-вторых, задачи, цели, содержание обучения в связи с изучаемой темой.

Применение вышеперечисленных педагогических технологий и приёмов обеспечивает:

- создание на уроке атмосферы заинтересованности, ситуации успеха,
- стимулирование обучающихся к использованию разнообразных способов деятельности,
- выполнение заданий без боязни ошибиться, получить неправильный ответ,
- использование карточек-тренажёров для достижения обучающимися уровня обязательной подготовки, разноуровневых контрольных работ,
- развитие слуховой и зрительной памяти обучающихся, образного мышления,
- поощрение высказывания оригинальных идей,
- использование личного примера творческого подхода к решению проблемы,
- высокое качество организации образовательного процесса,
- формирование устойчивой мотивации школьников к обучению
- получение ими прочных знаний по русскому языку и литературе.

Наша цель помочь ученику увидеть его роль на уроке, перевести учебную деятельность школьника в творческую. Применение новых технологий помогает мне сделать урок эффективным, результативным, а процесс получения знаний для учащихся – интересным и продуктивным.

**Список литературы:**

1. Развитие творческих способностей и личности учащихся. / Русский язык в школе. – 2001. - № 6.с.21-25.
2. Инновационное обучение: методика, технология, школьная практика. -С.-Петербург, 1997. -480 с.
3. ali Mamadaliyev, M., & Bobayeva, Z. (2024). O'SMIRLAR YOSHLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING VAQTINCHALIK VA DAVOMLI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, *4*(2), 68-72.
4. Бобаева, З. (2023). РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 789-795.
5. Бобаева, З. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. *Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya*, 229-232.
6. Бобаева, З. М. (2023). Педагогические особенности логического мышления младших школьников и пути его развития в процессе обучения. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 183-191.
7. Bobayeva, Z. M. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intelektual qobilyatlarini rivojlantirish. *Science and Education*, *4*(2), 973-977.

## ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARNING DARS JARAYONIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

***Abdurahimova Maftuna Orifjon qizi***
*Namangan Davlat pedagogika instituti*
*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda*

*Xorijiy til [ingliz tili] yo'nalishi talabasi*

***Dehqanova Guljahon***

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti*

*O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi*

*e-mail: guljahondekhonova90@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'quv muassasalarida ta'lim berish jarayonining samaradorligini ta'minlash va ilm oluvchilarning tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy didaktik vositalardan foydalanishning ijobiy tomonlari bilan birgalikda mashg'ulot samaradorligiga erishish usullari haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *zamonaviy didaktika, texnologiya, vositalar, ta'lim, kadrlar, o'rganuvchilar.*

***Abstract:*** *This article describes the ways to ensure the effectiveness of the educational process in educational institutions and to achieve the effectiveness of training together with the positive aspects of using modern didactic tools that have a positive effect on the development of thinking of students.*

***Key words***: *modern, didactic,texnology, tool, education,personnel, learners*

***Аннотация:*** *В данной статье описаны пути обеспечения еффективности образовательного процесса в образовательныхеж учреждениях и достижения еффективности обучения а также положительные стороны использования совроны использования совроменных дидактических средств положительно влияющих на развитие мышления учащихся*

***Ключевые слова***: *современный дидактический технологии инструменты образование персонал, учащиеся.*

21-asr texnologiyalar asri. Yangi texnologiyalar ko'payib rivojlanib bormoqda va barcha sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.Albatta, bu ta'lim sohasida ham o'ziga xos katta imkoniyatlarni yaratmoqda.Xususan, ilm-fan taraqqiy etib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy texnologiyalarning kun sayin rivojlanib borishi, axborotlarning ko'p va tezligi shuningdek,ta'lim jarayonida zamonaviy

didaktik vositalarda foydalanish kelajakda professional kadrlarni tayyorlashda muhimdir.Rivojlanib borayotgan hozirgi davrda OTMlarda bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalari xususan, elektron ma'lumotnomalar elktron ensiklopediyalar elktron darsliklar, elktron o'quv qo'llanmalar, elktron masalalar to'plami, elktron praktikumlar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, elktron o'quv metodik majmua[EO'MM],mabil ilovalar va shu kabi boshqa ko'plab zamonaviy didaktik vositalarisiz tasavvur etish qiyin.

Zamonaviy didaktik vositalarining professional ta'limda faol qo'llanishi an'anaviy o'quv- metodik vositalarga nisbatan yangi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi.Zamonaviy o'quv texnik vositalarga kompyuter sinfidagi texnik vositalar, videoproektor, multiproektor ,elktron doska, kolonkalar, videoglaz, mikrofon,smart mobil telefonlar ,kompyuter sinflari kiradi.Bularning barchasini o'z tasnifi, ishlash prinsiplari, qoidalari bor. Bu zamonaviy qurilmalarining yana bir yutug'i shundan iboratki,internet tizimidan erkin foydalana olishligidir.Bu esa ta'lim oluvchilarga katta imkoniyat beradi.Dars mashg'ulotlaridan tashqari mustaqil ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.Ilm oluvchilar o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtira olishadi.O'quv mashg'ulotlarida faol qo'llaniladigan videoproektorprotsessor bilan o'zini ulab ekranda fleshkadagi,kompyuterdagi ma'lumotlarni katta qilib chiqarish mumkin.Ta'lim sohasida qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan asosiy yana biri-interfaol eltkron doskalar hisoblanadi.Ular oddiy markerli doskalar kabi ko'rinishga ega bo'lib ularda yozilayotgan har bir matn, grafik ko'rinish,chizma ,jadval kabilar tez fursatda ekranda paydo bo'ladi va o'qituvchiga dars mashg'ulotini samarali olib borishda yordam beradi.Interfaol elktron doskalar aqliy hujumlar uchun ajoyib vositadir.Unda yozilgan axboratlarni ,nafaqat muhokoma qilish davrida xotirada saqlanadi , balki uni ketma –ket tiklash imkonini ham beradi.Zamonaviy didaktik vositalardan o'qitish mobaynida foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilar;

- O'qish sur'atini yaxshilaydi.

-Mavzuni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

-Ta'limni chuqurroq individuallashtirish va osonroq o'rganish imkonini beradi.

Shunindek , zamonaviy didaktik vositalardan ta'lim tizimida unumli foydalanish o 'quvchilarni faol bo'lish bilan birga tanqidiy fikrlashga undaydi.Faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmasdan amaliy mashg'ulotlar, loyihalar, mashqlar va topshiriqlarni bajarishda ma'ruza va seminarlarda faol qo'llaniladi va bu ta'lim sifatini oshirishga katta yordam beradi.

Didaktik vositalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish masalasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar koʻrsatishicha, elektron darsliklar va kitoblar ma'lum bir standart va talablarga javob berishi kerak. Oʻzbekiston olimlaridan N.A. Muslimovning tadqiqotiga koʻra, elektron darsliklar quyidagi talablarga muvofiq boʻlishi lozim:

1. Oʻquv dasturi va metodik ishlar: Elektron darsliklar oʻquv dasturi va oʻquv-metodik ishlarni nashr etishda qoʻyiladigan talablarga javob berishi, fakultet ilmiy-metodik kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

2. Tayyorlanish formati: Darslik soha yoʻnalishiga mos boʻlib, avval nashr etilgan yoki yangidan tayyorlangan metodik qoʻllanmaning elektron versiyasi sifatida yaratilgan boʻlishi zarur.

3. Hajm va mazmun: Darsliklar ma'lum oʻquv kursi yoki uning bir qismi boʻyicha oʻquv maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan darajada hajmli va mazmunan keng boʻlishi lozim.

4. Koʻrgazmali elementlar: Kompyuterning multimedia imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishi, oʻquvchilarni koʻrgazmali tarzda qoʻllab-quvvatlashi kerak.

5. Monitor va tarmoq boʻylab ishlash: Darslik materiallari kompyuter monitoridan oʻqish va tarmoq boʻylab joylashtirish imkoniyatlarini hisobga olib ishlab chiqilishi zarur.

6. Gipermurojaatlar va axborot resurslari: Matnda gipermurojaatlar mavjud boʻlishi bilan birga, zarur hollarda WEB manbalariga va boshqa axborot resurslariga yoʻllanmalar boʻlishi kerak.

7. Nazorat savollari: Ta'lim oluvchining bilim darajasini oʻzi mustaqil baholashiga imkon beradigan nazorat savollari bilan jihozlangan boʻlishi kerak.

8. Til va imkoniyati cheklangan talabalar uchun moslik: Elektron darslik bir nechta tilda ishlash imkoniyatiga ega boʻlib, imkoniyati cheklangan talabalar uchun maxsus sharoitlar yaratilishi talab qilinadi.

9. Oʻzlashtirish darajasini nazorat qilish: Elektron kitob ta'lim oluvchi va beruvchilarning muloqot doirasini kengaytirish bilan birga, oʻquvchining mavzuni oʻzlashtirish jarayonini nazorat qilish imkoniyatini taqdim etishi lozim. Bu kitob ta'lim oluvchining bilim darajasini baholashda ham qoʻl kelishi kerak.

Elektron darsliklar aynan shu talablarga javob bergandagina ta'lim jarayonida samarali qoʻllanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,zamonaviy didaktik vositalari izlanuvchilarga aniq maqsad va vazifalarga belgilash va ularni amalga oshirishda yordam beradi. Zamonaviy talablar asosida olib borilayotgan darslar va yaratilayotgan darsliklar o'qitish samaradorligini oshiradi.O'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishni ta'minlaydi. Ijobiy qobilyatlarini rivojlantiradi.O'rganishga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.Ta'lim jarayonida didaktik vositalardan foydalanish va ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish,amaliy mashg'ulotlarda qo'llash va o'rganish bo'lajak kadrlar uchun ularning kelajak faoliyatida kata yordam beradi

Zamonaviy o'quv jarayonida didaktik vositalarni qo'llash orqali elktron o'quv qo'llanmalar, vertual stendlar orqali murakkab texnalogiyalarni qisqa vaqtda mukammallashtirishga erishilyapti.Shuningdek, masofadan turib o'qitishga imkon yaratilyapti. O'quv jarayonida olib borilayotgan mashg'ulotlarda biz faqat og'zaki tushuntirish bilan kifoyalanmasdan,zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali darslarni yanada osonroq tushunishga imkon yaratamiz. Bundan tashqari, har bir didaktik vositaning imkoniyatlarini bilgan holda , o'qituvchilar tomonidan ularning har biri qaysi vazifani qanday bajarilishini tushuntirib berilsa o'rganuvchilar uchun dars yanada tushunarli va samaraliroq bo'ladi.

## Adabiyotlar roʻyxati:

1. Ter-Minasova S. G. Yazyk i mezhkulturnaya kommunikatsiya [Language and intercultural communication]. Moscow, 2000. 624 p.
2. Tatarnitseva S. N. Metodika obucheniya inostrannym yazykam: teoriya i praktika [Methods of teaching foreign languages: theory and practice] electronic

textbook. Togliatti: TSU Publ., 2021. – Available at: https://dspace.tltsu.ru/bitstream/123456789/18839 / (accessed 20 July 2022).

3.Dehqanova G.A (2024. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451

4. Dehqanova G.A (2024).. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451

# XALQARO BAHOLASHNING BUGUNGI KUNDAGI YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

***Tursunboyeva Shirin Farhodjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*"Pedagogika nazariyasi va tarixi "*

*yo'nalishi 1 kurs magistratura talabasi*

mijoza310699@gmail.comb

*+99894-880-08-99*

***Annotatsiya:*** *Xalqaro baholash — mamlakatlararo ta'lim tizimlarini solishtirish hamda ularning samaradorligini baholash bilan amalga oshiriladigan jarayon. Hozirgi kunda xalqaro baholashlar, masalan, PISA, TIMSS va PIRLS kabi tadqiqotlar orqali ta'lim sifatini o'lchashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu baholashlar ta'lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Xalqaro baholash, ta'lim tizimi, PISA,TIMSS,Samaradorlik, Ta'lim sifatini baholash.*

**Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi** (inglizcha: *Programme for International Student Assessment*) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur sanaladi.

PISA testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o‘tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo‘nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo‘ladi. 2000-yilda ilk bor o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan.

Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo‘lgan davlatlar ishtirok etadi.

So'nggi yillarda yurtimizda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o’zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko’zdan kechirishni taqazo etmoqda. Hozirgi kunda butun dunyo bo’ylab har bir sohada globallashuv va integratsiya jarayonlari o’z aksini ko’rsatmoqda. Shu qatorda ta'lim ham davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi va ushbu sohada ta'limni yangicha innovatsion g’oyalar asosida rivojlantirish bo’yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Jamiyat va hayotda sodir bo’layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o’rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

**PISA** tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo‘lib va turli mamlakatlardagi ta’lim tizimlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash hamda solishtirish, ta’lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig‘ida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda — Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — Finlandiya, Estoniya, Shveytsariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rta ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan.

**PIRLS** dasturi 2001-yilda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Har besh yilda o’tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o’quvchilarining o’qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. O’qish savodxonligi o’quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o’sishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. So’nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo’lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o’z-o’zidan o’quvchilarimizning darslarga qiziqishlarini oshirish va o’qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

**Xalqaro baholashlarning yutuqlari quyidagilardan iborat:**

1. **Ta'lim sifatini oshirish**: Baholash natijalari mamlakatlarga o'z ta'lim tizimlarida qaysi sohalarda rivojlanish zarurligini ko'rsatadi.

2. **Mamlakatlararo hamkorlik**: Baholashlar orqali mamlakatlar o'z tajribalarini almashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. **O'qituvchilarni tayyorlash**: Natijalar o'qituvchilarni tayyorlashda yangi metodlarni joriy etishga yordam beradi.

**Biroq, xalqaro baholashlarning kamchiliklari ham mavjud:**

1. **Madaniyat farqlari**: Baholash metodologiyasi turli madaniyatlarni hisobga olmaydi, bu esa natijalarni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin.

2. **O'qitish uslublari**: Turli mamlakatlarda ta'lim uslublarining farqlari natijalarga ta'sir qiladi.

3. **Stress va bosim**: O'quvchilar uchun baholash jarayoni stressli bo'lishi mumkin, bu esa ularning haqiqiy bilim darajasini aks ettirmasligi mumkin.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O`quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg`oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o`rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni takidlash joizki, ushbu dastur zamon bilan birgalikda qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

Xalqaro baholashlar ta'lim tizimlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali mamlakatlar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ta'lim sifatini oshirishga harakat qiladilar. Biroq, baholash jarayonidagi kamchiliklar e'tiborga olinishi lozim. Madaniyat farqlari va o'qitish uslublarini hisobga olish, baholash natijalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

**Xulosa:** Xalqaro baholashlar ta'lim tizimlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ta'lim sifatini oshirishga, yoshlarning bilim olish va ularning saviyalarini oshirishga qiziqtirish uchun hamda mamlakatlararo hamkorlikni kuchaytirishga va o'qituvchilarni tayyorlashda yangi yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi. Biroq, madaniyat farqlari va boshqalar kabi kamchiliklarni inobatga olish zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD (2020). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do.

2. Mullis, I.V.S., & Martin, M.O. (2018). TIMSS 2015 International Results in Mathematics and Science.

3. PIRLS (2021). Progress in International Reading Literacy Study 2021.

4. Umarova, G., & Toshpo'latov, A. (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал междисциплинарных

исследований и исследований в области управления, 1(10), 49–55. Извлечено от.https://inacademy.uz/index.php/cajmrms/article/view/33393
https://t.me/innovatsion_akademic

5. Umarova, G. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING O'QISHGA BO'LGAN KLASTERLI YONDASHUVI. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 2, Выпуск 6, сс. 116–122). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.11542450 https://t.me/innovatsion_akademic

6. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi

8.https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-baholash-tizimining-asosiy-xususiyatlari-va-ta-lim-sohasidagi-ahamiyati

# XALQARO VA MILLIY TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY METODIKALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

***Nizomiddinova Dilfuza Xoshimjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-fanlar fakulteti "Maktabgacha va boshlang`ich ta`limda xorijiy til ingliz tili" yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel;+99893 200 49 09*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada ta'lim tizimida zamonaviy metodlarning afzalliklar, ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalari hamda ijodiy fikrlash va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limning o'rni va mustaqil ta'limning afzalliklari xususida fikrlar yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim tizimi, metod, electron kitob, an'anaviy va noan'anaviy metodlar, masofaviy ta'lim.*

***Annotation.*** *This article discusses the advantages of modern methods in the educational system,the role of modern education in the development of student's life*

*skills and creative thinking and decision-making skills, and the advantages of independent education.*

***Key words:*** *educational system,method,e-book,traditional and non-traditional methods,distance education.*

***Аннотация.*** *В данной статьи рассматриваютсия преимущества современных методов в системе образавания, роль современного образования в развитии жизненных навыков учащихсия, творческого мышления и навыков принятия решений, а также преимущества самостоятельного образования.*

***Ключевь слова;*** *образовательная система , метод, електронная книга, традиционные и нетрадиционные методы,дистанционное образование.*

Ta'lim lotincha so'zdan olingan bo'lib, "educatum", "educare" biror narsani o'rganish, bilish va olib borish ma'nosini bildiradi. Hozirgi paytda ta'lim shu nuqtai nazarda qaraladi. Bizga ma'lumki, prezidentimiz tomonidan ta'lim – tarbiyaga alohida e'tibor qaratayotganligi, yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish, ularni milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash to'g'risida qarorlar qabul qilish natijasida kelajak avlodimizning har tomonlama hayotga tayyor va malakali kadr bo'lib yetishini ta'minlashga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim savdo, fan va san'atning fanlariga e'tibor qaratadi, balki yoshlar ijodiy fikrlash, hayotiy ko'nikmalar, qadriyatlar va ko'nikmalar, qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek zamonaviy ta'lim talabalarga bilim berish va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qilish uchun mobil ilovalardan foydalanish, YouTube, podkastlar, electron kitoblar, filmlar kabi yangi texnologiyalardan foydalanadi.

Yutboshimiz "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, rivojlanishning tamal toshi ham, mamlakat qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm – fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, prezident: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifat ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", - deb ta'kidlaganlarida "Uchinchi Renessans poydevori"ni ta'lim islohotlarida ko'rdi.

Nima deb o'ylaysiz, nima uchun zamonaviy ta'lim muhim? Zamonaviy ta'lim an'anaviy o'qitish usullaridan sezilarli darajada farq qiladi, bugungi kunda o'rta va oliy ta'limda fan va texnologiyaga ko'proq e'tibor qaratilyapti. Ta'lim jarayoni

uzluksiz bo'lib, uning shakllanish bosqichma – bosqich amalga oshiraladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog'liqdir. Asosan umumiy o'rta ta'limning ilk bo'sag'asi hisoblangan boshlang'ich ta'limga e'tibor qaratimiz lozim. Ta'limga zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish, o'quv dasturlariga e'tibor qaratilishi lozim. Avvalo, maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish lozim. Bu borada Amerika tajribasi misol qilib keltiriladi. Ushbu mamlakat umumiy savadxonlik, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. Ta'lim olishning asosiy vositasi bo'lgan darsliklarni yangilamay turib, o'quvhi va o'qituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib bo'lmaydi. Hozirda ta'lim tizimida kechayotgan islohatlar bo'lajak mutaxassislarning malaka va kasb ko'nikmalarini shakllantirish, kadrlar yetishtirish kabi umumiy maqsadlarni o'z ichiga oladi. O'qitishni metodik boyitish afzalliklari iqtisodiy va ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi juda katta o'zgarishlarga olib keladi. O'qituvchilar ko'proq innovatsion texnologiyalarr yordamida dars o'tish hozirgi kunning dolzarb ta'lim masalasi sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim tizimida an'anaviy va noan'anaviy metodlarni qo'llashning afzalliklarini metodik omillar misolida tavsiyalarini keltirish mumkin. Interektiv metodlarning an'anaviy metodlardan farqi shundaki, interektiv metodlar o'quvchining mustaqil erkin fikr yuritishi va o'qituvchiga hamkorlikda ishlashga qaratilgan metoddir. An'anaviy metodlar esa o'quvchining faktlarni esda saqlab qolish qobilyativa va uning dars o'tish metodidir. Boshlang'ich maktab o'quvchilarning umumiy ta'lim jarayonidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. To'rt yil ichida u nafaqat fanlarning dasturiy materialini o'zlashtirishi, balki – "yaxshi o'quvchi" bo'lishni ham o'rganishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining mas'uliyati doimo eksklyuziv bo'lishi lozim. Boshlang'ish matkabda olingan bilim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobilyatlari, o'qishga qiziqishi, qobilyatni shakllantirish, ma'naviy – axloq va estetik tarbiya, bilim va ko'nikmalarni oshirish, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, bolalarni qo'llab – quvvatlash lozim. Jahon ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, rivojlangan davlatning boshlang'ich ta'limida alohida ustivorlikka

ega jihatlar mavjud. Xitoyda 6 yoshga to'lgan bolalar boshlang'ich maktab yoki o'rta maktabga kiradilar va u yerda 6 yil o'qiydilar. Boshlang'ich maktabda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Asosan o'quvchilar jismoniy tarbiya darslariga ko'p vaqt ajratadi, ingliz tili va rus tiliga katta e'tibor qaratiladi. U yerda asosan 7:00 da boshlanadi. Har kuni ertalab barcha o'quvchilar o'qituvchilar bilan birgalikda jismoniy mashqlar qiladilar. Soat 8:00 dan 12:00 gacha tabiiy va matematika fanlari o'rganiladi. Soat 12:00 dan 13:00 gacha tushlik vaqti, bolalar maktabda uxlashlari mumkin, tushdan keyin esa gumanitar fanlar bo'yicha dars bo'ladi. Keyin bolalar uy vazifallarini bajaradilar vas oat 16:00 da uyga qaytadilar. Asosiy bilimni boshlang'ich ta'limdan oladi.

Yurtimizda asosan an'anavit ta'lim asosida dars o'tiladi. An'anaviy o'qitish metodlari ta'lim tizimida o'quv jarayoni doimiy tarzda o'tiladi. An'anaviy dars o'tishda o'qituvchi ko'proq faol ishtirok etadi. Shu sababli, an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonida passiv ishtirokchilarga aylanib qoladilar. Bu bilan an'anaviy metodlarni chegaralab o'qitshimiz kerak degan xulosa emas, balki faqatgina til o'rganuvchining bilish faolligini va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan effektiv usul va vositalarni qoyishi kerak xolos.

An'anaviy ta'limda o'quvchilar ma'lum bir vaqtda bilim va ko'nikmalar to'plashadi. An'anaviy ta'limning o'qitish uslubi o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi. O'quvchilar tushinmagan mavzularini tengdoshlari bilan muhokama qilishadi yoki darsdan keyin o'qituvchi bilan muloqot qilishadi. O'quvchining olgan bilimi o'qituvchining bilimiga bog'liq. Avvalo an'anaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqaylik.

O'quvchilar har bir dars uchun ma'lum vaqt va tanaffus uchun vaqt ajratadilar. Qisqa muddat ichida barchasini rejalashtirib oladilar. Shu reja asosida ta'lim oladilar. O'quvchilar o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda bo'lib, ularga xarakterni shakllantirishda yordam beradi. Bundan tashqari, o'quvchilar darsdan so'ng mashg'ulotlarga qatnashidi. Bunda o'quvchilar yashirin iste'dodlarini boshqalarga namoyish qilish imkoniyatini beradi. Bu ularga o'z iste'dodlari uchun tan olishga va hayotda ustun bo'lishiga yordam beradi. An'anaviy ta'limda yuzma –

yuz muloqot o'quvchilar erkin holda o'qituvchi bilan muloqot qila oladi. Ular o'zlarining qiziqtirgan sohalari bo'yicha savollar berishi mumkin.

Noan'anaviy o'qitish metodlarining afzalliklari o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi, tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratiladi, o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi, mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarni shakllanishiga yordam berishi, nafaqat o'quvchilartanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish, muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi, o'qitish jarayonida an'anaviy va noan'anaviy texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llay olishi lozim. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustaqil va mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarni oshirish lozim. Fanlarda innovatsion texnologiyalarni mavzularga mos holda qo'llay olishi lozim, o'quvchilar bilim darajasi va dunyoqarashini kengaytirishda interaktiv metodlardan o'rinli va samarali foydalanish lozim.

Shuni takidlash lozim, hozirgi kunda o'quvchilarni zamonaviy pedagogic texnologiyalar to'liq aytadigan bo'lsak interaktiv metodlar asosida o'qitish dolzarb masalaga aylangan. Interektiv metodlarning an'anaviy metodlardan farqi shundaki o'quvchining o'zi mustaqil holda erkin fikr yuritiladi, o'qituvchilar bilan birgalikda ishlaydi. An'anaviy metod esa o'quvchining faktlarini esda saqlab qolish qobilayati va uning hajmiga asoslanadi. An'anaviy ta'lim metodlari bugungi kunda kamchiliklari bor. Bunda o'quvchilar passiv ishtirokchilar bo'lib qoladilar, dars mashg'ulotlari asosiy boshqaruvchilik rolida o'qituvchining turganligi bunday passivlikka olib keladi. O'qituvchining nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi. Chunki o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha harakatlar qat'iy talab asosida sodir bo'ladi. Bunda o'quvchining ijodiy tashabbusni uyg'otmaydi. Yana eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda har xil, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin. Ya'ni, an'anaviy ta'limda mashg'ulotga va bilish jarayoniga o'quvchining qiziqtiruvchi har xil bo'ladi. Mustaqil o'rganish uchun sharoitlar yaratilmaydi o'quvchini ijodiy fikrlashga undovchi kuchning mavjud emasligi yangi g'oyalarni ishlab chiqish uchun sharoitlarni yuzaga keltirmaydi.

An’anaviy ta’limda talabalar o’z o’qituvchilarini tinglashlari lozim. Ba’zan o’quvchilar o’qituvchilarni tinglashga harakat qilmaydilar. Ular darslarga qiziqishmaydi va passiv tinglovchiga aylanib qolishadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”.

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma’lumki, insonning til qobilyati 4 xil kognitiv malakaning o‘zaro bog‘liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qib tushunish, fikrini yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og‘zaki nutq shakli bilan bog‘liq, o‘qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan, eshitib tushunish va o‘qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapirish va yozish esa nutq jarayonidir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ta’lim tizimining ijobiy va salbiy tomonlari bor. Zamonaviy ta’lim tizimi an’anaviy ta’lim tizimidan yaxshiroq. Zamonaviy ta’lim tizimida ayniqsa, ta’lim jarayonini mazmunli va samarili tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o’qitish va shunga o’xshash axborot – kommunikatsiya texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish samarasini bermoqda.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o’qituvchi tomonidan o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligini rag’batlantirib turilishi lozim, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishiga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.V.Karimova, F.Akromova.pedagogika. Darslik.-T. TDIU, 2007-183 bet
2.V.Yoʻldasheva, S .Usmonova, F Jumaboeva .Pedagogika texnologiya asoslari.Oʻquv qoʻllanma.-T.2004.-140 bet
3.S.U.Pulatova. USTKI KIYIMNI TIKISH TEXNOLOGIYASI. "TURON NASHRIYOT" Toshkent – 2021
4. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
5. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
6. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KOʻZI OJIZ OʻQUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA OʻQITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
7. Hamidullo oʻgʻli, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo oʻgʻli, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN OʻQUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653

## GULNING MORFOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI. ANDROSEY VA GINESEY

***Xakimbekova Muslima Otabek qizi***

*Namagan davlat pedagogika instituti*

*Biologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

***Tel:*** *+(99893) 683 06 81*

***E-mail:*** xakimjonovamuslima05@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada gulning morfologik tuzilishi, gulning kelib chiqishidagi asosiy 3 ta nazaryalar, androtsey va ginesey haqida tushunchalar, yopiq urug'li o'simliklarning o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayoni qo'sh urug'lanish va murtakdan shakllangan yangi embrionning tuzilishi haqida so'z yuritilgan.*

***Аннотация:*** *В этой статье рассматривается морфологическая структура цветка основные 3 теории происхождения цветка, сложный процесс, свойственный немногим комнатным семенным растениям, двойное оплодотворение, и строение нового зародыша, сформировавшегося из хряща.*

***Annotation:*** *this article covers the morphological structure of the flower , the main 3 theories of the origin of the flower , the complex process of closed-seeded plants, characteristic of its own, was discussed about double fertilization and the structure of a new embryo formed from a mortar.*

***Kalit so'zlar:*** *abaksial gul, adaksial gul, gomoxlomid, geteroxlomid, gaploxlomid, axlomid gullar, psevdont, strobilyar, telom nazaryalar*

***Ключевые слова:*** *абаксиальный цветок, адаксиальный цветок, гомохломид, гетерохломид, гаплохломид, ахломид цветок, псевдонт, стробиляр, телом теории*

***Keywords:*** *Abaxial flower, adaxial flower, homochlomid, heterochlomid, gaploxlomid, axlomid flowers, pseudont, strobilar, telom theorists*

**KIRISH** Gul yopiq urug'li yoki gulli o'simliklarning reproduktiv (lot. re- yangidan, produksio – xosil qilish) organi xisoblanadi. Gulli yopuq urug'li o'simliklar mezazoy erasining bo'r davri o'rtalarida, Osiyo qit'asining janubiy sharqiy qismida joylashgan Agara yerida paydo bo'lgan va juda tezlik bilan yer yuzini hamma qit'alarida tarqalgan.

Yopiq urug'li o'smliklar boshqa o'simliklardan murakkab tuuzilgan generativ (lot. generare – hosil bo'lish, yaratilish) organlari bilan farq qiladi.

Urug'lanishdan keyin shakllangan – o'zgargan urug'chi va tugunchadan meva, urug'kurtakdan esa urug' hosil bo'ladi.Bunday organ faqat yopiq urug'li o'siliklarga xosdir. Yopiq urug'li o'simliklarning xususiyatli belgilaridan yana biri shundan iboratki, urug'kurtaklar gul tuguni ichida bo'lganligi sababli, ularga ochiq urug'lilarga o'xshab changlar to'g'ridan – to'g'ri kelib tusholmaydi.Changlar odatda,

yopishqoq suyuqlik chiqaradigan og'izchaga turli yo'l bilan kelib tushadi va pirovardida changlanish ro'y beradi. Changlanish esa har – xil usul bilan ( shamol, hasharotlar, qushlar, suv va insonlar ) yordamida changlanadi.

Yopiq urug'li o'simliklarning eng muhim belgilaridan biri, qo'sh urug'lanishdir. Bu hodisani 1898 yili S.G. Navashin aniqlagan.Qo'sh urug'lanish chang urug'chining tumshuqchasiga tushgandan so'ng o'sib, uning yadrosi ikkiga bo'linadi va hosil bo'lgan sperma yadro urug'murtagining ikkilamchi yadrosi bilan qo'shilib undan uchlamchi to'qima – endosperma taraqqiy etadi. [1].




Gulli o'simliklarning qo'sh urug'lanishi

1. Changchi, 2. changdon, 3. chang donalari, 4.chang donachasining kesimi,5.urug'chi, 6.urug'kutak, 7. murtak xaltachasi, 8.markaziy hujayra, 9.tuxum hujayra, 10. endosperim, 11. maysa, 12.chang nayi, 13. spermiya

**GULNING KELIB CHIQISHI**

Yopiq urug'li o'simliklarning gullari turli - tuman shaklda bo'lib, ochiq urug'li o'simliklarning gulidan keskin farq qiladi. Gulning kelib chiqishi tog'risidagi masala ko'pincha olimlarni qiziqtirdi va ilmiy izlanishlar natijasida bu sohada keng tarqaalgan 3 ta nazarya bor.

**Psevdant** (yunoncha psevdos – soxta, antos – gul ) nazaryasi. Bu nazaryani avstralyalik botanik – morfolog, sistematik, botanik – geograf olim professor Rixard Vetshteyn yaratgan. Uning fikricha, yopiq urug'li o'simliklarning ikki jinsli guli

ochiq urug’li o’simliklar( genetumsimonlar sinfi) ning ko’pgina sodda tuzilgan bir jinsli changchi va urug’chi gullarning to’plamidan “to’pgul ” yuzaga kelgan.

Urug’chilar (megasporafillar) markazga joylashgan. Bu nazaryaga muvofiq, yopiq urug’li o’simliklar shamol yordamida changlanadigan mayda – mayda ko’rimsiz qoplag’ichsiz gullarga ega bo’lgan (qayindoshlar, bug’doydoshlar, qayrag’ochdoshlar) da gul bir uyli, bir jinsli bo’lib ochiq urug’lilarning **stobillarini** (yunonchastrobilis g’udda) eslatadi. Ventshteyin yopiq urug’li o’simliklar gulining rivojlanishini uch xil bosqichdan iborat deb takidlaydi. Birinchi bosqich erkak “to’pgul” changchilari taraqqiy etgan. Ikkinchi bosqich changchilar soni ortib borgan gul yonbarglari atrofida joylashgan. Uchinchi bosqichda erkak “to’pgul” ikki jinsli gulga aylangan.Bu nazaryani hozirgi vaqtda olimlar ma’qullamaydi, shuning uchun psevdant nazarya faqat tarixiy ahamyatga ega.

**Stobilyar nazarya.** Uilanda degan olim 1906-yil bennititlar degan o’simlik qoldig’ini topadi Bu o’simliklar mezazoy erasining ochiq urug’li o’simliklarga mansub bo’lib, evolyutsiya jarayonida butunlay yoqolib ketgan. Bu nazaryaga muvofiq urug’kurtak atrofidagi megasporafillar va mikrosporangiylarning soni kamayib to’rttagacha saqlanib qolgan. Urug’kurtak atrofidagi megasporofillarning chetlari bir – biri bilan birikib yopiq mevachabarglarni yuzaga keltirgan, ular changni ushlashga moslashib antostrobil, ya’ni strobilga o’xshash gul rivojlangan.

**Telom nazaryasi.** Bu nazarya asoschisi nemis botanigi Shimmerman hisoblanadi. Telom nazaryasiga binoan, yuksak darajali o’smliklarning hamma organlari dixotomik shoxlangan telomdan paydo bo’ladi degan farazlar hali bor. Evolyutsiya davomida telomlar bir tekislikda bir biri bilan qo’shilib steril, fertil, sintelomlarga aylangan.

Keyingi yillarda gul to’g’risidagi keng tarqalgan va yuqorida bayon etilgan nazaryalardan tashqari xar xil nazaryalar paydo bo’lgan. [2].




**ANDROSEY VA GINESEY**

Androsey(yunoncha Andros – erkak oyikos – uy) bitta guldagi changchilar soni yig'indisi. Bitta gulda changchilar miqdori har xil bo'lib, sodda o'simliklarda spiral, rivojlangan o'simliklarda xalqa shaklida joylashadi. Androtsey 2 xil bo'ladi. Birinchsi oligomer (yunoncha, oligos – oz, kam, meros - bo'lak) bu o'simliklarda changchilarning soni juda kam bo'ladi. Ikkinchisi polimer ( yunoncha,poli – ko'p, meros – bo'lak) deb ataladi. Bunda changchilar soni juda ko'p bo'ladi.

**Changchilarni kelib chiqish.** Ko'pchilik olimlar fikricha hozirgi yopiq urug'li o'simliklarning changchilari, ochiq urug'li sodda ajdodlari mikrosporofillarning reduksiyalanishidan yuzaga kelgan. Demak eng qadimgi o'simliklar changchilarining shakli barchaga o'xshash yassi bo'lishi kerak. Keying vaqtda xuddi shunday shakl tuzilishga ega bo'lgan o'simliklar ko'p mevalilar orasida topilgan. [3].

**Ginesey–** guldagi bir yoki bir necha urug'chibarglar ( megasporafillar) ning yig'indisi bir yoki bir necha ginesey ( gina – ayol, urug'chi) ni hosil qiladi. Urug'chibarg kelib chiqish jihatdan barg bilan bog'liq. Lekin morfologik tuzilishi va faolyati jihatidan bargdan keskin farq qilib, ko'proq megasporafill barglarga o'xshash bo'ladi. Gineseyning eng muhim qismi urug'chi hisoblaadi. Unda urug'kurtak joylashadi. Gul tugunining ustida ingichka ustuncha, uning ichida shakli har xil tumshuqcha joylashadi.[4].

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Gul o'simlikni vegatativ ko'payish organi hisbolanadi. Gulda bo'ladigan turli xil murakkab jarayonlar borki, bu jarayon ochilmagan sir sinoatlarga boy hisoblanadi. Kundalik hayotda iste'mol qiladigan mevalarimizni ham hosil bo'lish jarayoni juda murakkabdir. Gul faqat yopiq urug'li o'simliklarda uchraydi va ular uchun hos bo'lagan reproduktiv organ hisoblanadi. Biologiya fanini o'rganib borar ekanmiz hali sir sinoatlari ochilmagan turli xil jarayonlar, yangi o'simlik navlari, hayvon zotlari, mikroorganizm shtammlarini yaratish biz yoshlar bu ilmiy ishlarni davom ettirib Vatanimiz ravnaqiga o'z xissamizni qo'shishimiz va biz buning uchun qattiq mehnat qilishimiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**:

1. Abdukarimov A, G'ofurov A. T, Nishonboyev K.N.va boshq. Biologiya: Akademik litsey va kasb-hunar kollej lari o'quvchilari uchun darslik // Mualliflar jamoasi: — T. «Sharq», 2014. — 275 b.

2. Pratov O', To'xtayev A, Azimova F. O', Saparboyev I.Z, Umaraliyeva M.T.darslik uchun qo'llanma.- "O'zbekiston"-2017.

3. Ikromov M. I., Normurodov X.N.Yo'ldashev A.S. "Botanika" "O'zbekiston"-2002. TOSHKENT

4. A. G'ofurov, A.Abdukarimov 9-sinf darslik qo'llanma: «Sharq nashriyoti», Toshkent-2017

## V. TA’LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKA

# PSIXOLOGIYADA ASSERTIV XULQ TUSHUNCHASI

***Sh.G‘anieva***
*NamDPI Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*
*Ilmiy rahbar: D.D.Oribboyeva*

***Annotasiya.*** *Ushbu maqolada assertiv xulq to‘g‘risidagi psixologik qarashlar, uning shakllanishi hamda shaxs xulq avtoridagi ahamiyati masalasidagi fikrlar o‘rin olgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *assertiv, xulq, shaxs, individual, muloqotchanlik, o‘ziga ishonch, dadillik.*

***Аннотация.*** *В данной статье изложены психологические взгляды на ассертивное поведение, его формирование и значение личности в авторе поведения.*

***Ключевые слова:*** *ассертивност, поведение, личность, индивидуальность, коммуникабельность, уверенность в себе, смелость.*

***Annotation.*** *This article outlines psychological views on assertive behavior, its formation and the importance of personality in the author of the behavior.*

***Key words:*** *assertiveness, behavior, personality, individuality, sociability, self-confidence, courage.*

Shaxsni muvaffaqiyatli tarzda faoliyat yuritishini ta’minlash uchun assertiv xulq zarur bo‘lib shaxsning muvafaqqiyatga erishishishda hamda uning individual taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Garchi, muvaffaqiyat maqsadga yo‘naltirilganlik, faollik, ishonchlilik, ochiqlilik, tashabbuskorlik, g‘ayratlilik kabi sifatlar bilan bog‘liq bo‘lsada, assertiv xulqli shaxs, o‘ziga ishonchni, tirishqoqlik va sabotlilikni mujassamlab, tasdiqlovchi xulq namunasini ifodalaydi.

Adabiyotlarda assertivlik – tushunchasini o‘ziga ishonch ko‘nikmasi hamda shaxsga beriladigan boshqalarning baxolari va ta’siridan qat’i nazar, o‘z xatti-harakatlarini mustaqil tartibga solish va ulardan javob berish qobiliyati sifatida ham baxolab kelishadi.

Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali
2024-yil 4-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37

Assertiv xulqli odamlar oʻz xohish-istaklarini boshqalarga aniq yetkazadilar va shaxsiy chegaralarni ochiq-oydin belgilab oladilar. Agar atrofdagilar ularning talablarini bajo keltirmasa, boshqalarga hujum qilmaydilar. Bunday odamlar boshqalarning ehtiyojlariga hurmat bilan qaraydilar va oʻz nuqtai nazarlarini himoya qila oladilar.

Psixologiya fanlari doktori, emosional intellekt boʻyicha ekspert Viktoriya Shimanskayaning fikricha assertivlik tushunchasi bir paytda shaxsning shaxsiy tanlovni amalga oishira olishi, hamkasblari bilan kelishishi yoki kelishmasligi, ma'lum bir pozisiyani egallashi yoki hech qanday pozisiyani egallamasligi kerak boʻlgan paytlarda namoyon boʻladi, deya hisoblaydi. Unga koʻra assertiv xulq-atvor uslubi shuni anglatadiki, bunda shaxs:

- doimo nima istashi va nimani xoxlayotganini aniq biladi;
- qaror qabul qilishda oʻz emosiyalarini taxlil qila olgan holda qaror qabul qiladi
-unga nisbatan atrofingizdagilar qanday munosabat bildirishi mumkiniligini hisobga olgan holda , ularga gʻamxoʻrlik qilishga harakat qiladi.

Odatda koʻpchilik odamlar oʻz ehtiyojlari haqida ochiq gapirishmaydi, muammolarni yashiradi va oʻzaro munosabatlarni aniqlashtirishdan qochishadi yoki asabiylashishlari mumkin, chunki ular buni toʻgʻri ifodalay ola bilmaydilar. Agar kishida assertiv xulq shakllantirilsa u shunday mammmolarga duch keladi vaziyatni boshqara bilish imkoniyatiga ega boʻladi.

Shaxsda assertivlik xulq mavjudligini aniqlash uchun undan kundalik hayotida oʻzligini ifodalashga yoʻnaltirilgan kundalik vaziyatni ham koʻrib chiqish mumkin.

Mayo Clinikaning fikriga koʻra, assertivlik oʻzingizga boʻlgan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi - siz oʻzingizni yaxshiroq tushuna boshlaysiz va bu narsa qanday foydali ekanligingizni bilib olasiz. Siz stressni nazorat qila olasiz va boshqalar bilan muammolarni muhokama qilish orqali his-tuygʻularingizni aniq ifoda eta olasiz. Kolumbiya biznes maktabining boshqaruv kafedrasining professori Daniyel Eims fikriga koʻra, agar menejerdagi muloqot uslubi juda passiv boʻlsa, u oʻz maqsadiga erisholmaydi, agar juda hujumkor boʻlsa, boshqalar bilan uygʻunlasha olmaydi.

Assertiv xodimlar oʻz raqiblarining nuqtai nazarini tushuna oladilar, shuning uchun tez orada ular bilan mushtarak til topishadi. Bunday odamlar oʻzlari duch

keladigan muammolarning eng yaxshi echimini topish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish huquqiga ega deb hisoblaydilar. Ular kam tashvishlanishadi, oʻzlariga koʻproq ishonch hosil qiladilar va har narsani yomon ketsa, panikaga tushishmaydilar.

**Assertiv xulq-atvor quyidagilarga yordam beradi:**

- oʻziga boʻlgan ishonchni va oʻz-oʻziga hurmatni oshirish;
- oʻz his-tuygʻularini tushunish va aniqlash;
- boshqalarning hurmatini qozonish;
- muloqotni yaxshilash;
- gʻolib-gʻolib vaziyatlarni yaratish;
- yaxshiroq qarorlar qabul qilish;
- sof munosabatlar yaratish;
- ishdan koʻproq qoniqish olish.

**Assertivlikning kamchiliklari**

Assertivlik doimo ijobiy xususiyat deb hisoblanmaydi. Ba'zi milliy va tashkiliy madaniyatlarda passiv odamlar afzal koʻriladi, va oʻziga ishonch koʻrsatish xunuk yoki haqoratli xulq-atvor deb qaraladi. Bunda assertiv xulq-atvorga boʻlgan reaksiya jinsga bogʻliq. Tadqiqotchilar fikricha, erkaklar ayollarga qaraganda oʻziga ishonch uchun koʻproq mukofotlanadi. Mashxur boshqaruvchi Aviva Vittenberg-Koks fikricha: oʻz xohishlarini tez-tez aytadigan ayollarni atrofdagilar "zoʻravon va hujumkor" deb atashadi.

**Assertivlikni rivojlantirish uchun;**

Oʻzingizga tez-tez "Hozir men nima qilayapman, va buning xohlaymanmi?" degan savolni berib turishga harakat qiling. Masalan, hamma bor puliga valyuta xarid qilayotgan boʻlsa, siz ham shunday qilyapsizmi? Yoki bu investisiya shu davr uchun haqqoniy deb haqiqatan ham ishonasizmi? Davolanish muassasasi navbatida janjal boshlanadi - siz unga aralashib ketasizmi? Hammasi bilan birgalikda himoya qilishga, hujum qilishga, norozi boʻlishga boshlaysizmi?

-Kunduz kunlaringizni tahlil qilish

-Kun davomida 15 minutdan ko‘p vaqt sarf qilgan barcha ishlaringizni yozing. - Kechqurun ushbu rejani qayta o‘qing va har bir band bo‘yicha o‘zingizga quyidagi savollarni bering:

Men buning qilishni xohlagan edimmi? Masalan, men oshxonaga kelgan edim, ertalabki nonushta uchun kasha yegan edim, lekin aslida men tuxumli omlet va apelsin sharbati xohlagan edim.

Ushbu mashqni 2 hafta davomida takrorlang: ikkinchi haftaning oxiriga borib sizning harakatlaringizda ma’noli va assertiv misollar ko‘proq bo‘ladi.

**Komunikatsiyalarni tahlil qilish**

Siz bu hafta davomida biror kishi bilan muloqot qilish paytida qancha marta quyidagilarni qilganingizni hisoblang:

"Yo‘q", "Men siz bilan kelishmayapman", "Bu kerak emas" demoqchi bo‘ldingiz, ammo buni aytmadingiz.

Siz uchun yoqimsiz suhbatni muloyim to‘xtatmoqchi bo‘ldingiz, ammo uning o‘rniga uni janjal bilan davom ettirdingiz.

Siz majburan suhbatni davom ettirib, sizga birovni tinglashdan huzur olmagan holda tinglab turibsiz, suhbat sizning vaqtingizni o‘g‘irlab ketayotganini tushunar edingiz.

Siz atrofingizdagilarni faqat o‘z joriy emosional holatingizdan kelib chiqqan holda gapirdingiz, hukm chiqardingiz va baholadingiz.

Siz ichki jihatdan suhbatdoshingiz bilan kelishmadingiz, lekin bilmagan holda unga qo‘shilardingiz.

Muloqotlaringizda bunday vaziyatlar kamayishiga e’tibor bering. Agar siz o‘ylaganingizdan boshqacharoq gapirsangiz yoki jim bo‘lishga qaror qilsangiz, buni nima uchun qilayotganingizni va nimaga erishmoqchi ekanligingizni o‘ylab ko‘ring. Agar javobni topa olsangiz, hamma yaxshi, agar yo‘q bo‘lsa - kommunikatsiyalarda o‘zingizni faolroq tutishingizni va assertivlikni oshirishingizni qo‘shing.

Xulq-atvorni o‘zgartirish oldidan, qayerda yashayotganingiz va ishlayotganingiz yaxshilab o‘ylang. Bu sizga muhitga moslashishingiz kerak degan ma’noda emas - sodda qilib aytganda, shoshilmaslik lozim. Kontekstingizga mos

keladigan uslubni topolmaguncha, muloqot uslubingizni bosqichma-bosqich o'zgartiring.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Алексеева Л. Ф., Лебедева И. В. Ассертивность как основное свойство субъекта в психологии // Вестник практической психологии образования. 2009. № 1 (18). - С. 39-42.

2.Оллпорт Г. Личность в психологии. - Москва: Ювента, 1998. – 345

3.Шамиева В.А.Ассертивность в структуре личности субъекта адаптации // Автореф.дис....канд. психол. наук: – Хабаровск: Университет,2009.–20с.

4.Ульрих Р.Р. Уверенность в себе / Рита и Роджер Ульрих Электронный ресурс.- www.sunhome.ru/psychology

5. Ориббоева, Д. Д. (2022). O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI TA'SIRI: https://doi. org/10.53885/edinres. 2022.8. 08.045 Oribboyeva Dilafro'z Dadamirzayevna NamDU Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 314-318.

6. Oribboyeva, D. D. (2019). STUDY OF SOCIAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 288-292. 12. Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. Journal of Critical Reviews, 7(2), 2020.

7. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 256-261.

8. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasining o'ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. Science and Education, 5(1), 287-291

9. Ibragimova, D. R. (2024). O'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'zlashtirmaslikni oldini oluvchi omil sifatida. Results of National Sciyentific Research International Journal, 3(1), 194-200.

Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali
2024-yil 4-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37

# КОМПОНЕНТНЫЙ СОСТАВ ЭКСТРАКТОВ ИЗ РАСТЕНИЙ PH. SPECIOSA, PH. ISOCHILA ПРОИЗОРАСТАЮЩИХ В УЗБЕКИСТАНЕ

***Хусейн Турсунбаев – сын Хабибулло***

tursunboevkhusaynjon@gmail.com

*Студент Наманганского государственного университета, факультет естественных наук, химии (по специальностям).*

***Аннотация**: Проведено исследование методом хромато-масс-спектрального анализа экстрактов надземной части растений Ph. Speciosa, Ph. Isochila собранных в период массового цветения в Наманганской области Узбекистана.*

***Ключевые слова**: Азот, сера, комплекс, комплексообразующие сорбенты, полимер. Лиганды, полиакрилонитрильное волокно, ионы металлов, полимерные сорбенты.*

В результате проведенных исследований в экстрактах соответственно обнаружены 26 и 62 компонентов. Среди них отмечаем на большое содержание следующих веществ: 1,2-Бензендикарбоновой кислоты, Би (2-метилпропиловогоэфира- 19.50%, Би (2-этилгексилфталата – 14.23%, Гесадекановой кислоты метилового эфира – 13.71%, Метил стеарата – 9.38%, Эйкозан -5.85%, Октадекановой кислоты – 4.35%.

Также из бутанолной фракции выделены ламиид, 8-ацетилгарпагид, финитол, из этилацетатной фракции альфа-экдизон,экдистерон которые охарактеризованы спектральными методами.

Растения видов Phlomoides относятся к семейству Labiatae в своем составе содержать биологические активные вещества например выделены лектины, эфирные масла ( в растениях из Китая в составе P. Younghusbandii обнаружены 21 компонентов,в растение P. Olivieri 37 компонентов а в P. Fruticosa 40 компонетов. Ефирные масла в основном получены гидродистелляцией и определены на приборе газ-жидкостной масс-спектрометре, интересно что в растениях Phlomoidoes основные вещества

являются β –кариофиллин и гермакрен), алкалоиды, стахидрин, флаваноиды (более 40 веществ выделены среди них лютеолин, кемпферол, кверцетин , изоориентин и др. , углеводы, иридоиды, фенолкарбоновые кислоты.Если рассматривать по органам растения то в семенах обнаружены тритерпеноиды, каротиноиды, эфирные масла; в корнях алкалоиды; в надземной части эфирные масла, алкалоиды, флавоноиды, кумарины, сапонины, иридоиды, фенолкарбоновые кислоты, лигнаны; в плодах алкалоиды; в цветках фенолкарбоновые кислоты, флаваноиды.

Нами проведен аналитический обзор по данному растению произорастающему в Ферганской долине. При этом оказалось 10 видов имеет распространение. К ним относятся; Phl. isochila, Phl. codonantha, Phl. urodonta, Phl. speciosa, Phl. integiorl, Phl. nuda, Phl. ostrowskiana, Phl. ebracteolata, Phl. brachystegia, Phl. kirghisorum [1].

Из этих растениях кроме перечисленных вверху веществ также выделены белки,минеральные соли, крахмал, целлюлоза в целом все выделенные вещества широко используются в фармацевтической промышленности. Нами как объекты исследования выбраны некоторые виды Phlomoides используемые в народной медицине.К ним относится Ph. Speciosa и Ph. Isochila . Из надземной части Ph. Speciosa, Ph. Isochila собранной в период цветения методом гидродистиллации впервые осуществлен выделение эфирных масел.

Анализ полученных экстрактов проводили на хромато- масс-спектрометре Agilent 5975C inert MSD/7890A GC. Разделение компонентов смеси проводили на кварцевой капиллярной колонке Agilent HP- INNOWax (30мх250дтх0.25дт ) в температурном режиме: 50°C (1мин) - 4°C/мин до 200°C (6 мин) - 15°C/мин до 250°C (15 мин). Объём вносимой пробы 1 д1(гексан,бензол), скорость потока подвижной фазы - 1.1 мл/мин. Компоненты идентифицировали на основании сравнения индексов характеристик масс-спектров с данными электронных библиотек W9N11.L, W8N05ST.L и NIST08 и сравнения удерживания (RI) соединений, определенного по отношению времени удерживания смеси н-алканов (C*9*-C*24*).[2]

Из надземной части Ph. **isochila** с использованием базы ГСХ-МС масс спектров определен 62 веществ.

Из них следующие вещества встречаются в большом количестве α-Пинен (1.73%), Камфен (1.76%), Туйопсен (1.18%), Леден (2.96%), Кариофиллен (3.19%), α-Гумулен (4.75%), 1,8-Цинеол (12.12%), α-Туйон (9.63%), Камфора (18.03%), и β-Туйон (29.76%).

Из растения Ph. Isochila экстракцией этанолом был получен спиртовый экстракт который после перегонки в вакууме растворителя и разбавления водой был разделен методом экстракции на хлороформный, этилацетатный, бутанолный фракции. На основание данных качественной бумажной хроматографии в бутанолной фракции обнаружены иридиоиды.[3] Поэтому методом колоночной хроматографии мы получили следующие вещества ламиид, 8-ацетилгарпагид, финитол строение которых были доказаны сравнением с известным экземплярами этих веществ. Кроме этого выделены 3 флаваноида строение которых исследуются.При разделение на колоночной хроматографии этилацетатной фракции выделены альфа-экдизон,экдистерон которые охарактеризованы спектральными методами.

**Список литературы**

1.Флора Узбекистана. 1961,5 том.Ташкент,стр 319-360

2.Абдуллаев Ш.В., Маматкулова С.А., Назаров О.М. Компонентный состав экстрактов Raphanus sativus L. произорастающего в Узбекистане.// Universum: Химия и биология: электрон.научн.журн.2019.№ 8(62). URL: http://7universum,com/ru/nature/archive/item/7674

3. Круглая А.А. Содержание иридоидов в зопнике клубненосном, произорасющем на Северном Кавказе// Актуальные проблемы фармации:сб.статьей межрегион.науч.конф.-Владикавказ: ФАОН СОГУ им.К.Л.Хетагурова,2007.-32.

## O'QUVCHILARNING QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ OLIMLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

***Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna***

*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: matlubaaliyeva37@gmail.com*

***Annotatsiya:****Mazkur maqolada shaxsning kamolotida, oʻquvchi-yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirishda sharq mutafakkir olimlarining pedagogik qarashlari, bilim, ta'lim-tarbiya jarayonlari va metodlarning ahamiyatini bilib olish mumkin.*

***Аннотация:****В данной статье можно узнать о значении педагогических взглядов, знаний, учебно-воспитательных процессов и методов восточных ученых-мыслителей в становлении личности, развитии способностей школьников.*

***Abstract****:In this article, it is possible to find out the importance of pedagogical views, knowledge, educational processes and methods of Eastern thinkers in the maturation of the individual, the development of the abilities of students and young people.*

***Kalit so'zlar****: qobiliyat, ta'lim, tarbiya, kamolot, ijodkorlik, bilim, fikr.*

***Ключевые слова:*** *способности, образование, воспитание, зрелость, творчество, знания, мнение.*

***Key words:*** *ability, education, upbringing, maturation, creativity, knowledge, thought.*

**Kirish.** Oʻzbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab oʻtilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.[1]

Zero, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega boʻlgan inson kamolotining ta'minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti oʻzaro uzviy aloqada shakllanadi. Bunga misol qilib, Forobiy oʻzining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga boʻladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim koʻnikmalariga e'tibor berishlik zarur deydi.

Shunday ekan, individual yondashuv oʻquvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga boʻlgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga

ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.[2]

**Adabiyotlar tahlili.** Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi. Tadqiqot davomida ilmiy, nazariy, uslubiy adabiyotlar, xorij va o'zbek olimlarining qator ilmiy maqolalari, tezislari va adabiyotlarini nazariy tahlili va umumlashtirish, psixologik-pedagogik kuzatish, qiyosiy-pedagogik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. Buyuk allomalarimiz yangi g'oyalar, yangicha yondashuvlarni ta'limga joriy qilish bo'yicha tinmay izlanishlar olib borganlarini ko'rish mumkin. Sharqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad al Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulla Avloniy, Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlar o'z davrining yangi ilg'or pedagogik g'oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta'lim-o'sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar, dunyodagi eng mashhur daholar hisoblanib, asosan, mustaqil, mutolaa qilish natijasida olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishga muyassar bo'lganlar. Ularning asarlarida mustaqil ta'lim, o'zlikni anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, tarbiyalash, o'qish, o'rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, kuzatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik asosida yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. Bundan tashqari ularni qomusiy olim deb ham atashadi. Buning sababi xususida izlanish olib borilganda ular faqat bitta fanni emas balki bir nechta fanni teng o'zlashtirishga, ulardan fan taraqqiyoti uchun yangiliklar yaratishga xizmat qilishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi

bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir yoki qo'ya olmasligidir.Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari, muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.[6]

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi. O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.[3] Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.[7] Natijada ularda aqliy qobiliyatlari, mehnat ko'nikmasi, intellektual salohiyatlari rivojlanadi.

Ijodkorlik faoliyatini alloma Forobiy "bu jarayonda inson barcha aqliy va ruhiy fazilatlarini ishga soladi. Ijodiy faoliyatining hal qiluvchi onlari, odatda, alohida diqqat bilan, kishining kuch va qobiliyatlari mavj urgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi",- deb izohlaydi. Atrofga nazar solsangiz inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet va shu kabilar. Bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi.

**Tahlillar va natijalar.** Sharq metafakkir olimlari bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etishar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini uqtiradilar:

-bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

-ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;

-olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;

-o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;

-bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

-o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borishdir.[4]

Buning natijasida o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishlari, iste'dod va dunyoqarashlarini kengaytirish, individual xususiyatlaridan kelib chiqib sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishlari mumkin. Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Yuqoridagi masalalarga «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» («Omo'zish va parvarish madrasa farzand») bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi. O'quvchilarga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

-bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

-berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;

-ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;

-talabalning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

-fanga qiziqtira olishi;

-berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

-bilimlarni o'quvchilarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

-har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishishi zarur, deydi olim.

Ibn Sino ta’limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u ogʻzaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli koʻrinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir oʻquvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boʻlgan.

Avloniyning fikricha, sogʻlom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega boʻlish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli boʻlmogʻi insonga eng kerakli narsadur. Chunki oʻqumoq, oʻqutmoq, oʻrganmoq va oʻrgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sogʻlom qilib oʻstirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani tafakkur, qobiliyatlar, fikr-mulohazalar tomondan tarbiyalashda oʻqituvchilarning faoliyatlariga alohida e’tibor beradi.[5]

Bolalarda fikrlash qobiliyatini oʻstirish va bu tarbiya bilan muntazam shugʻullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bogʻliqdur».

Ayni zamonda muallif ta’lim va tarbiya uzviy bogʻliq ekanini ham ta’kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor boʻlsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur»— deydi.

Abdulla Avloniyning fikricha, inson butun borliqning koʻrki va sharafidir. Inson oʻz goʻzalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha mahluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson uning sohibidir. Chunki insonning aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi. Bizning nazarimizda, zamonaviy oʻqituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon boʻla olishi kerak (soʻz yuritilayotgan sifatlar mohiyatan oʻqituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur boʻlgan vazifa, burch va mas’uliyatlarini ifodalaydi): Oʻqituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida roʻy berayotgan oʻzgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada oʻquvchilarga toʻgʻri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

**Xulosa.** Zamonaviy oʻqituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya

yangiliklari va yutuqlaridan xabardor boʻlishi bugungi kun talablaridan biridir. Shunday ekan, oʻqituvchi oʻz mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim. Oʻqituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

Oʻqituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega boʻlmogʻi lozim. Oʻqituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega boʻlishi shart. Oʻqituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qoʻl-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur oʻzlashtirib olishga erishishlari lozim. Zero, ta'lim jarayonida faollik oʻquvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, oʻz qobiliyatini namoyon etishga yoʻllaydi. Bilishga boʻlgan faollik oʻquvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Bu albatta, har bir oʻquvchida individual qobiliyatlarini rivojlantirishga, shakllantirishga asos boʻlib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim toʻgʻrisidagi 2020 yil 23 sentyabrdagi 637-son qonuni.
2. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at oʻqitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.
3. B.Oripov. San'at nazariyasi. N. 2010 y
4. Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar""Fan" nashri 2012-yil 18,19-bet.
5. O',J.Yo'ldoshev tahriri ostida. "Umumiy pedagogika". –T.:«Fan va texnologiya», 2017.
6. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. https://habiarjan.pl/bolaning-qobiliyatlarini-qanday-aniqlash-mumkin/

# XORIJIY TILLARNI O'ZLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

***Dilfuza Nizomiddinova Xoshimjon qizi***
*Namangan Davlat Pedagogika Instituti*
*"Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til ingliz tili yo'nalishi"*
*2-bosqich talabasi: Tel: 200 49 09*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada xorijiy tillarni qanday qilib oson o'rganish mumkunligi va xorijiy tillarni o'rganishning turli xil zamonaviy va yangi usullari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *chet tili, xorijiy til, usul, zamonaviy, interfaol, texnologiya, o'quvchi*

*Annotation.This article talks about how to learn foreign languages quickly and easily and about various modern and new ways of learning foregn languages*

***Key words.*** *foreign,language,method.modern,interactive,technology,pupil.*

*Аннотатция.В этой статъе рассадивается о том как бистро и игко виучит иностранньe язъки а также о разлъчнъе современнъх и новъх способах изучения инностраннъх язъков.*

***Ключевъйслова.****инностраннъй,язък,метод,современнъй,интерактивнъй,технолиястудент.*

Bilamizki, hozirgi zamon ya'ni kundalik yashash tarzimizkundan-kunga rivojlanib, o'sib bormoqda.Iqtisodiyot texnika va texnalogiyalarda yildan-yilga yangilanish o'zgarish bo'lmoqda.Ta'limga bo'lgan e'tibor ayniqsa til o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda.Mana shunday jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamon odamlarining ko'pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplash oladi.Tillar kesimida oladigan bo'lsak,ba'zi tillarni o'rganish birmuncha oson,ba'zilarini o'rganish ozroq murakkab hisoblanadi va bu narsa insonlardan biroz vaqt va mehnat talab qiladi.Shuning uchun ba'zi til o'rganayotgan tolib va tolibalarning ba'zilari til o'rganishni to'xtatib qo'yishlari mumkin.Lekin, shu bilan birgalikda til o'rganishga bo'lgan talab ortgani sayin,uni o'rganishning oson,qulay

va zamonaviy usullari ham ishlab chiqilmoqda.Quyida til o’rganishning zamonaviy va oson usullari haqida keltirib o’taman.

1.Taqqoslab o’rganish.Hozirgi til o’rganish jarayonlarida bu usul juda ham ommalashgani sabab, hamma o’rganuvchilar ham o’z ona tilisida oson va ravon gapiradi va bu o’z ona tilini o’rganish birmuncha oson.Agar xorijiy til o’rganishda ham,o’rganilayotgan tilni o’z ona tiliga solishtirib,taqqoslab o’rganilsa,tilni tushunish ,anglash va o’rganish ham birmuncha oson bo’ladi.

2.Zamonaviy texnalogiyalardan foydalanib o’rganish.Xorijiy tillarni zamonaviy texnalogiyalardan foydalanib o'rganish eng samarali va foydali usullardan biridir.QR kodli kitoblar chop etilishi ,doimiy dars metodlaridan voz kechib yangi interfaol usullar asosida dars jarayonlarini  tashkil qilishni yo’lga qo’yish buning yaqqol misolidir.

Xususan, mamlakatimizda ta’limga e’tibor nuqtayi nazaridan kelib chiqadigan bo’lsak,yaqin yillarda ta’lim sohasida til o’rganishga bo’lgan talab ortgani sabab,misliko’rilmagan ishlar amalga oshirildi.Ta’lim sohasida ko’plab qulayliklar va imkoniyatlar yaratildi.Ma’lumot o’rnida aytish joizki,Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o’rganish tizimini takomillashtirishga bag’ishlangan videoselektr bo’lib o’tgan edi.2021-yidan chet tili o’qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo’lish talabi kiritilishi haqidata’kidlangan edi.[1].

Ta’lim texnalogiyalari,bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnalogiyalaridan unumli foydalanishdir.Shuningdek,ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnalogiyalarni olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.Ta’kidlash joizki,chet tilini o’rganishda bunday axborot kommunikatsion texnalogiyalardan foydalanishning afzalliklari mavjuddir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o’rganishninghar bir aspektida qo’l keladi.

Kompyuterlardan  foydalanganda xorijiy tildagi multfilm va videoroliklarni ko’rishimiz mumkin.

Telefonlardan foydalanganda chet tilidagi axborot,radioeshittirish va televideniyadagi dasturlarni eshitib ko’rish mumkun

CD pleyerlardan foydalanish jarayonida tilga bo'lgan qiziqishimiz ortishiga va bu jarayon maroqli bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, hozirgi hayotimizni qaysidir ma'noda internetsiz tasavvur qila olmaymiz.Til o'rganish jarayonida internetdan unumli foydalanish ham samarali va eng zamonaviy usuldir.Chunki,internetdan bilmoqchi bo'lgan har qanday ma'lumotlarimizni osongina topishimiz va o'rganishimiz mumkin.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsam, ta'lim jarayoniga kommunikativ axborot vositalarini innovatsion va interfaol usullarni olib kirish, ularni ta'limga tatbiq qilish asosiy vazifalardan biridir..Zamonaviy usullardan maqsadli,to'g'ri,unumli foydalanish,ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish,o'qitish samaradorligini oshiradi va til o'rganishga bo'lgan talab qiziquvchilar soni yanada ortadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-rganishda-zamonaviy-texnologiyalarning-o-rni-va-ahamiyati/viewer

2. https://moluch.ru/archive /138/39058/

3.https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tillarini-o-rganishda-innovatsion-texnologiyalardan-foydalanishning-afzallik-tomonlari/viewer

# URUG'NING UNIB CHIQISH XILLARI HAMDA O'SIMTANING RIVOJLANISHI

***Rustamjonova Nodira Tohirjon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Biologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Tel: (+998 *50)7045062*

***Email***: rustamjonovanodira05@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'simliklarning ontogenezi yoki individual taraqqiyotida urug'langan tuxum hujayraning rivojlaninshi, urug' unib chiqishida haroratning ahamiyati, urug' tarkibidagi biologik faol moddalar, uning*

*shakllanishi, tuzulishi, tarqalishi, shakllari, hamda unib chiqish tezligiga ko’ra guruhlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В этой статье рассказывается о развитии оплодотворенной яйцеклетки в онтогенезе или индивидуальном развитии растений, о значении температуры в прорастании семян, о биологически активных веществах, содержащихся в семенах, о его формировании, структуре, распределении, формах, а также о группах в зависимости от скорости прорастания.*

***Annotation:*** *This article tells about the development of a fertilized egg cell in ontogenesis or individual development of plants, the importance of temperature in seed germination, biologically active substances in the seed, its formation, structure, distribution, forms, as well as groups according to the rate of germination.*

***Kalit so’zlar:*** *urug’kurtak, megasporangiy, apomiksis, intugument, urug’po’sti, karunkula, urug’choki, boshlang’ich nova, epikotil, endospermli urug’lar, endospermsiz urug’lar, oqsil, aleyron, minimum, optimum, maksimum, uyqudagi urug’lar, skarifikatsiya,startifikatsiya, gaustoriy, yashirin unish, defentiv.*

***Ключевые слова:*** *семенной зародыш, мегаспорангий, апомиксис, покровы, семенная оболочка, карункула, семяпочка, начальная новая, эпикотиль, семена с эндоспермом, семена без эндосперма, белок, алейрон, минимум, оптимум, максимум, спящие семена, скарификация,старение, гаустория, скрытый рост, защитный.*

***Keywords:*** *seed Bud, megasporangium, apomixis, intugument, seed Bud, caruncula, seed pod, initial nova, epicotyle, endosperm-free seeds, protein, aleyrone, minimum, optimum, maximum, dormant seeds, scarification,startification, gaustorium, latent germination, defentive.*

**Kirish:** O’simliklarning ontogenezi (yunon. Ontos – mavjud; genesis – kelib chiqishi, hosil bo’lishi) yoki individual taraqqiyoti urug’langan tuxum hujayraning rivojlanishidan boshlanadi. Agar o’simlik vegetativ ko’paysa, uning ontogenezi boshlang’ich “ona” o’simlikning somatik (yunon.somotos – tana, gavda) hujayralarining bo’linishi bilan boshlanadi va o’simlik hayotining oxirigacha (qurib nobud bo’lguncha yoki yangi bo’linishigacha) davom etadi. Ontogenez atamasini

fanga birinchi bo’lib 1866 – yil E. Gekkel kiritgan. Gulli o’simliklarning eng asosiy o’suv organlari-novda va ildizi, odatda, yetilgan urug’ tarkibidagi murtakda joylashgan bo’ladi. Lekin urug’ una boshlagandan so’ng, murtakdan yangi organlar: kurtak, novda, barg va yon novdalar, yon va qo’shimcha ildizlar ham rivojlanadi. O’simliklarning keying rivojlanish davrlarida reproduktiv (lot.re- yangitdan; produksio- hosil qilish) ya’ni jinsiy ko’payish organining (gul, urug’) hosil bo’lishi meristema hujayralarining faoliyatiga bog’liq. Yopiq urug’li o’simliklarning jinsiy ko’payishi natijasida urug’kurtak megasporangiy (yunon. megas- spora; ageyon – nay) dan hosil bo’ladi va ko’payish organi hisoblanadi. Ochiqurug’li o’simliklarning urug’lari makrosporangiy (yunon. makros – katta; spora – urug’; ageyon – nay) larning tubida joylashgan urug’kurtakdan o’sib rivojlanadi. Bularning urug’i tuguncha devori bilan himoya qilinmasdan ochiq holda o’rnashgan. Ba’zan, urug’ jinsiy hujayralar qo’shilmagan holda, urug’lanmagan tuxum hujayralardan ham vujudga keladi. Bu hodisaga **apomiksis** (yunon. apo- inkor, aks; miksis – aralashish, qorishish) deb ataladi. Urug’lar shakli, katta-kichikligi, rangi va ichki tuzilishi jihatdan bir- biridan keskin farq qiladi. Urug’larning shakli yumaloq, disksimon, ellipsimon, uzunchoq va hokazo. Eng kichik urug’lar aroiddoshlar oilasining vakillarida va tekinxo’r o’simliklar (masalan, shumg’iy) da uchraydi. Bularning urug’lari juda ham kichkina, shuning uchun ularni oddiy ko’z bilan ko’rish qiyin. Urug’larning usti silliq, yaltiroq, g’adir-budur bo’lishi mumkin. Ontogenez rivojlanishida urug’-o’simlikning embrionlik (yunon. embrion- murtak) davri hisoblanadi.Urug’ asosan 1-2 qavat integument (lot. Integumentum- qoplama)– urug’kurtak qobig’i- po’sti nutselyus (lot. yong’oqcha -kurtak mag’zi) ni o’rab turuvchi po’st bilan qoplanadi. U urug’langandan so’ng urug’ po’stga aylanadi. Urug’ ichida murtak, endosperm yoki perisperm bo’ladi. Ba’zan bir urug’da ko’p murtak yetilishi mumkin. Bu hodisaga **poliembrioniya** (yunon. poli- ko’p; embrion- murtak) deb ataladi. Ko’p murtaklilik ochiqurug’li, orxideyaguldoshlar, piyozdoshlar va murakkabguldoshlar oilasining vakillarida uchraydi.

**Asosiy qism:** Urug’ pishib yetilishi uchun ma’lum jarayonlarni o’tishi kerak, ya’ni vaqt talab etiladi. Bu, juda ko’p tashqi (ekologik) omillar ichida eng muhumi: suv, havo, (kislorod) va haroratdir. Bundan tashqari, mayda urug’larning unishi (ayniqsa begona va yovvoyi o’tlar) uchun yorug’lik ham kerak bo’ladi. Yetilgan

urug'lar, odatda, juda ham quruq bo'ladi.Ularning nisbiy namligi 5- 20 %ni tashkil etadi. Shuning uchun ham urug'lar zarur bo'lgan suvni o'zlashtirib olmaguncha una olmaydi. Suvning shimilishi natijasida urug' bo'rtadi.Uning tarkibida mavjud bo'lgan fermentlarning faoliyati oshadi, nafas olishi tezlashadi va oziq moddalar parchalanadi. Poliribosomlarning faoliyatida oqsil va boshqa moddalar sintez qilinadi. Murtak qaytadan bo'linadi, hujayralar cho'ziladi. Buning uchun suv va oziq moddalar to'xtovsiz talab etiladi. Urug' unishining dastlabki davrlarida anaerob sharoitda, keyinchalik urug' po'sti yorilgandan, so'ng aerob sharoitda nafas oladi. Agar shu vaqtda tuproqda nam mo'l bo'lsa, urug'ning nafas olishi qiyinlashadi, chunki, kislorod miqdori yetishmasligi sababli urug' unmasdan qoladi. Ko'pchlik urug'lar unib chiqishi uchun har xil darajadagi haroratni talab aetadi. Lekin har bir tur o'simlikning o'z **minimum** (eng oz,), **optimum** (eng yaxshi, qulay) va **maksimum** (eng baland, yuqori) darajadagi harorat chegarasi bo'ladi. Ko'p o'simliklar uchun haroratning eng past(minimum)chegarasi 0+5℃, eng baland (maksimum) +45, +48℃, o'rtacha (optimum) +25, +30℃ atrofida bo'ladi. Ba'zi urug'lar barcha shart-sharoitlar qulay bo'lgan taqdirda ham unmaydi. Bunday urug'lar **tinim** davridagi yoki **uyqudagi urug'lar** deb ataladi. Tinim davridagi yoki uyqudagi urug'lar ekzogen, endogen va murakkab, ya'ni ham endogen ham ekzogen bo'lishi mumkin. Ekzogen tinimdagi urug' po'sti juda ham qattiq bo'lib, o'zidan suv va havoni o'tkazmaydi (masalan, danakli mevalarning urug'lari, qashqarbeda, akatsiya va boshqa o'simlik urug'lari). Endogen urug'larning murtagi sekin rivojlanadi(jenshen). Bu xildagi urug'larning murtagi bir yo ikki, uch yil davomida yetilishi mumkin. Buning sababi ko'p, ammo, eng muhimi shundaki, ko'pincha murtak fiziologik jihatdan hali to'liq yetilmagan bo'lib, urug' po'sti esa suvni, ba'zan hatto kislorodni ham o'tkazmaydi. Ana shunday fiziologik jihatdan yetilmagan urug'lar unishi uchun bir qator murakkab fermentativ va biokimyoviy jaroyanlarni o'tashi shart. Shunda urug' keyinroq pishib yetiladi. Iqlimi mo'tadil mintaqalarda uncha sovuq bo'lmagan qish davri mana shu jaroyanlarning o'tishi uchun imkon yaratadi. Natijada yetilish uchun talab qilinadigan qo'shimcha vaqt, urug'ning qish payti (noqulay sharoit) da unishining oldini oladi. Ayniqsa, sovuq iqlimda o'suvchi o'simliklarning hayoti uchun tinim davri katta ahamiyatga ega, chunki bu urug'larni har qanday sharoitda unishidan saqlaydi va ularni keyingi

hayotchanligini ta'minlaydi. Ba'zi urug'lar tinim davrini qushlarning yoki sutemizuvchilarning ovqat hazm qilish organlarida o'taydi. Bu, ularning bir tomondan keng tarqalishini, ikkinchidan urug'ning unishini tezlashtiradi.Suv va

havoni yaxshi o'tkazmaydigan qattiq po'stli urug'larning unishini tezlashtirish uchun ularning qobig'i sun'iy yo'llar bilan yumshatiladi. Bu usulga **skarifikatsiya** deb ataladi. Bu urug'larni qum yoki jilvir shishida aralashtirib ishqalash yo'li bilan bajariladi. Qishloq xo'jaligida po'sti qattiq daraxt, buta hamda ko'pgina foydali yovvoyi o'simliklar urug'larning unib chiqishini tezlashtirish uchun ular nam qum orasida 20-25 sm chuqurlikda 0 +6℃ haroratda bir yoki bir necha oy davomida saqlanadi. Bu usulga **startifikatsiya** deyiladi.

**URUG' TARKIBIDAGI BILOGIK FAOL MODDALAR**

Endosperm oziq moddali to'qima bo'lib, o'simlikning urug'ida rivojlanadi. Endosperm qo'shaloq urug'lanish natijasida murtak xaltasining diploidli markaziy hujayrasidan hosil bo'ladi va triploid hujayralardan iborat. Demak, urug'ning murtaki va endosperm bir- biridan keskin farq qiladi.



Ba'zi o'simliklarda masalan, birpallalilardan bug'doy, piyoz, lola va boshqalarda urug' murtagi shu darajada kichik bo'ladiki, urug'ning deyarli butun ichki qismini endosperm (oqsil) egallaydi. Bu xildagi urug'lar **endospermli urug'lar** deb ataladi. Ko'pgina o'simliklarda, aksincha, murtak o'sib, endospermni o'zlashtirib yuboradi va endosperm urug' po'sti ostida bir necha qator hujayralar shaklida qoladi yoki butunlay qolmaydi. Bu xildagi urug'lar **endopermsiz urug'lar** deb ataladi. Endosperm kimyoviy tuzilishi jihatdan unsimon yoki

yog'simon bo'lishi mumkin. Unsimon endosperm hujayralarida ikkilamchi kraxmal donachalari, yog'simon endosperm hujayralarida esa yog' tomchilari to'planadi. Bundan tashqari urug'larda oqsil va fitin (fosforli birikmalar) ham uchraydi. Fitin urug'ning unishidagi modda almashinuvini tezlashtiradi.

Xususan, oqsil, aleyron (yunon. aleyron- un) donachalari shaklida bo'lib, endosperimning tashqi yupqa qavatini tashkil etadi(bug'doy, arpa va boshqa shu kabi donlalar). Ko'pchilik o'simliklarda urug' shu qadar suvsizlanadiki, ular juda ham qattiq, shishasimon va hatto toshsimon bo'lib qoladi (masalan, finik palmasi). Yog'simon endosperimli urug'lar (kungaboqar, zig'ir, yong'oq, va boshqalar) g'amlovchi oziq moddalar ichida quvvat jihatdan boshqa urug'larga nisbatan ustunlik qiladi.

**URUG'NING UNIB CHIQISHIGA KO'RA GURUHLARI**

Cho'llarda o'simliklarning urug' po'stida (shuvoq, tuyaqorin, itsigek, lagoxilus va boshqalar) unishini to'xtatuvchi modda **ingibitor** (lot. ingibe to'xtatish) bo'ladi. Bu modda yomg'ir, qor suvlari tomonidan yuvib yuborilsa, shundan keyin urug' una boshlaydi. Urug'ning unib chiqish tezligi va unish qobilyatini saqlab qolish xususiyatiga qarab o'simliklar quydagi guruhlarga bo'linadi.

1. Uzoq davom etuvchi chuqur tinimdagi (uyqudagi) urug'lar. Bunday urug'lar bir, ikki yoki ko'p yillar mobaynida unish qobilyatini saqlab qoladi. Ularga ko'pgina daraxt va o'tchil o'simliklar kiradi. Ayniqsa begona o'tlarning urug'lari tuproqda juda ko'p (10, 40 va unda ham ziyod) yillar davomida unish qobilyatini saqlaydi. Shuning uchun ham begona o'tlarga qarshi kurashish qiyin ( masalan, shumg'iya, sariq pechka, va boshqalar).

2. Pishib to'kilgandan keyin birdaniga yoki bir oz vaqt o'tgandan (ko'pncha qishlab bo'lgandan) keyin unadigan urug'lar. Ammo ular ham ko'p vaqt ichida unish xususiyatini saqlab qolishi (7-12-18 yil) mumkin. Bularga boshoqli madaniy o'simliklar, poliz ekinlari, cho'l, adir, tog' va yaylovda o'suvchi o'simliklar kiradi.

3. Pishib yetilgandan so'ng qulay sharoitda darhol unib chiqadigan va noqulay sharoitda unish qobilyatini tezda yo'qotadigan urug'lar. Bularga: tol, terak, sebarga va ko'pgina nam iqlimli tropik o'simliklar misol bo'ladi.

4.Pishib yetilgandan so'ng, ona o'simlikda turgan vaqtidayoq una boshlaydigan urug'lar. Bunday o'simliklar juda ham oz uchraydi va **tirik tug'ar**

**o’simliklar** deb ataladi. Ko’pincha ayrim o’simliklarda umuman meva yoki urug’ hosil bo’lmaydi, ulardagi gul maydagina novdachaga aylanib, uzilib tushadi va o’sib yangi o’simlikni hosil qiladi.(kalanxoe, rizofora, briofillum va boshqalar).

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda yetilgan urug’ unishidan oldin albatta bo’rtishi, ya’ni ko’p miqdorda suvni shimishi va to’qimalari suvga to’yishi zarur. Odatda urug’ning po’sti yoriladi. Suvni shimish vaqtida fermentlar faoliyati oshadi va bu oziq moddalarning erigan holga o’tishiga murtakning meristema hujayralari ularni osonlik bilan o’zlashtirishga sababchi bo’ladi. Masalan, kraxmal erigan holatda shakarga aylanadi. Bu jarayonlarning hammasi uchun zarur bo’lgan energiya urug’ning juda tez nafas olishidan hosil bo’ladi. Murtakning urug’pallalari, ya’ni (paleabarglari) o’zidan endospermda yoki perispermda o’zgarishlar hosil qiladigan fermentlar ishlab chiqaradi. Bu fermentlar “hazm qilish” hamda so’rish vaifasini bajaradi. Urug’ unib chiqayotganda jadal oziqlanish natijasida murtakda barcha organlar tez shakllanadi. Po’stning yorilgan joyidan yoki mikropilyar teshikchadan birinchi bo’lib murtak ildizchasi chiqadi va u yosh o’simtani tuproqqa biriktirib, tashqi muhitdan suv va suvda erigan mineral moddalarni o’zlashtira boshlaydi. Shu bilan birga gipokotil ham o’sib ildiz uchini tuproqqa o’rnashtiradi.Oradan bir necha kun o’tgandan so’ng qovuzloqqa o’xshab egilgan gipokotil urug’ ustidagi tuproqni siljitadi. Keyinchalik gipokotil to’g’irlanadi va urug’pallani va ular orasidagi boshlang’ich novda hamda bargli kurtakni yer ustiga olib chiqadi. Quyosh nuri ta’sirida urug’palla tarkibida yashil rang beruvchi xlorofill paydo bo’ladi, shundan so’ng o’simta birinchi assimilyatsiya organiga aylanadi. Ikki pallali o’simliklarda nish ikkita pallabarglari bilan yer yuziga chiqadi. (masalan, butguldoshlar, sho’radoshlar, ituzumguldoshlar, murakkabguldoshlar). Ayrim hollarda pallabarglar tuproq orasida qoladi (masalan, no’xat, yeryong’oq, burchoq, olxo’ri, olcha va boshqalar). Bunday unish **yashirin unish** deb ataladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:**

1.Ikromov M.I., Normurodov X.N. Yo’ldashev A.S.” Botanika” “O’zbekiston” 2002. Toshkent

Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali
2024-yil 4-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37

# KIMYOVIY BOG'LANISHLAR, KOVOLEN BOG'LANISH

***Rahmonov Murodjon Ikromovich***
*Namangan davlat universiteti talabasi*
*nuridiyda05@gmail.com*

***Anatatsiya:*** *Ushbu maqolada kimyo faning ajralmas bo'laglaridan biri bo'lmish kimyoviy bog'lanishlar: kovolen bog'lanish mavzusiga oid maktab va oliy talim muassasalari darsliklaridan foydalanib yozilgan maqolani guvohi bo'lasiz*

***Kalit so'zlar:*** *Kimyoviy bog'lanish, elektroman- fiylik, kovalent bog'lanish, qutbli va qutbsiz kovalent bog'lanish, donor-akseptor bog'lanish, vodorod bog'lanish, ion bog'lanish, metall bog'lanish, valentlik, oksidlanish darajasi.*

***Аннатация:*** *В этой статье вы станете свидетелем написанной с использованием учебников школ и вузов статьи на тему химических связей: ковалентных связей, которые являются одной из неотъемлемых частей химии.*

***Ключевые слова:*** *Химическая связь, электроотрицательность, ковалентная связь, полярная и неполярная ковалентная связь, донорно-акцепторная связь, водородная связь, ионная связь, металлическая связь, валентность, степень окисления*

***Annotation:*** *In this article, you will witness an article written using the textbooks of schools and higher education institutions on the topic of chemical bonds: covalent bonds, which is one of the integral parts of chemistry.*

***Keywords:*** *Chemical bond, electronegativity, covalent bond, polar and non-polar covalent bond, donor-acceptor bond, hydrogen bond, ionic bond, metallic bond, valency, oxidation state*

Hozirda fanga millionlab kimyoviy moddalar ma'lum. Har qanday kimyoviy modda - atomlar va ularning birikishidan hosil bo'lgan kristallar, molekulalar va ionlardan tashkil topgan materiyadir. Bularda atomlar bir-biri bilan ma'lum turdagi bog'lanishlar (kuchlar) vositasi- da birikadi. Bu bog'lanishlar yuzaga kelish

mexanizmi, tabiati ularda ishtirok etuvchi zarrachalarning turlariga koʻra bir necha xil boʻladi.

Kimyoviy bogʻlanishlarga va ularning hosil boʻlishiga atomlarning elektron tuzilishi nuqtai nazaridan qarash lozim. Chunki kimyoviy bogʻlanishlarning hosil boʻlishida ishtirok etuvchi asosiy vosita - elektronlar va elektron bulutlaridir. Umuman har qanday kimyoviy bogʻlanish oʻzaro birikuvchi atomlar tashqi (va tashqidan oldingi) elektron qavatdagi bir yoki bir necha elektron bulutlarining yadrolar oʻrtasida qayta taqsimlanishi (bir-birini oʻzaro qoplanishi) natijasida hosil boʻluvchi koʻp yadroli va koʻp elektronli sistemadir. Shu nuqtai nazardan kimyoviy bogʻlanish haqidagi ta'limotlarni oʻrganish hozirgi zamon kimyosining asosiy masalalaridan biridir. Bu ta'limotni bilmay turib kimyoviy birikmalaring turli-tumanligi sabablarini, ularning ho- sil boʻlish mexanizmini, tuzilishini va reaksiyaga kirisha olish xususiyatini toʻla tushunib boʻlmaydi. Molekulada atommni tutib turadigan kuchlarning yigʻindisiga kimyoviy bogʻlanish deyiladi.

Hozirgi vaqtda molekulalarda element atomlarining qanday bogʻlanganligi quyidagicha tushuntiriladi: kimyoviy bogʻlanish pay tida element atomlarining tashqi va tashqidan oldingi energetik pogʻonachalaridagi elektronlar ishtirok etadi va qayta taqsimlanadi.

Kimyoviy bogʻlanishda ishtirok etuvchi bu elektronlar valent elek- tronlar deyiladi. Bosh guruhcha elementlari tashqi qavat elektronlari bilan yonaki guruhcha elementlari tashqi va tashqidan oldingi ikkinchi qavat elektronlari bilan kimyoviy bogʻlanishda ishtirok etishi mumkin. Ularning maksimal sonini elementning davriy sistemadagi joylashgan oʻmidan, ya'ni guruh raqamidan bilish mumkin (ayrim elementlar bundan mustasno). Element atomlari tashqi energetik pogʻonalarini tugallashga inti- ladi. Buning uchun ayni atom boshqa atomlardan elektron olishi yoki valent elektronlarini birgalikda juftlashtirishi yoxud boshqa atomga elektron berishi mumkin. Element atomlari orasida qanday bogʻlanish vujudga kelishi ele- mentlarning elektromanfiyligiga bogʻliq. Elektromanfiylik - molekuladagi atomlarning oʻziga elektron tortib turish qobiliyatidir. Ayni elementning taqribiy elektromanfiyligi (EM) uning elektron- ga moyilligi E bilan ionlanish energiyasi (1) yigʻindisiga (yoki uning yarmiga) teng:

Gazsimon fazada bo'lgan normal holatdagi atomdan bir elektron- ni batamom chiqarib yuborish uchun zarur bo'lgan minimal energi- ya miqdori ionlanish energiyasi deyiladi. Element atomi bir elektron biriktirib olganda ajralib chiqadigan energiya miqdori ayni elementning elektronga moyilligi deb ataladi.

Kimyoviy bog'lanish va uning turlari: 1916 yilda amerika olimi J.Lyuis kimyoviy bog'lanish bir vaqtning o'zida ikkala atomga tegishli bo'ladigan elektron juftlarining ho- sil bo'lishi hisobiga vujudga keladi, degan fikrni bildirdi. Bu g'oya

Hozirgi zamon kovalent bog'lanish nazariyasiga asos bo'ldi. Shu yilning o'zida nemis olimi V. Kossel quyidagi fikrlarni bildirdi:

o'zaro ta'sir etuvchi ikki atomdan biri elektron berib, ikkinchisi elektron biriktirib oladi;

bunda birinchi atom musbat zaryadlangan ionga, ikkinchisi esa manfiy zaryadlangan ionga aylanib qoladi;

hosil bo'lgan qarama-qarshi zaryadli ionlarning o'zaro elektrostatik tortilishi barqaror birikma hosil bo'lishiga olib keladi. Bu fikr ion bog'lanish haqidagi hozirgi zamon tasavvurlarini yaratilishiga olib keldi. Elektron nazariya asosida atomlararo ikki xil bog'lanish mavjudligi aniqlandi. Birinchi xil bog'lanishda molekula zaryadlanmagan zarrachalardan iborat bo'ladi. Bu xil bog'lanish kovalent bog'lanish deb yuritiladi. Ikkinchi xil bog'lanishda molekula qarama-qarshi elektr bilan zaryadlangan ionlardan iborat bo'lib, bu bog'lanish ion bog'lanish deb ataladi.

Kovalent bog'lanish. Kovalent bog'lanish, asosan, metalmas atomlari orasida vujudga keladi. Atomlarning o'zaro bir yoki bir necha elektron juftlik hosil qilishi natijasida vujudga keladigan bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi. Kovalent bog'lanish tabiatiga ko'ra 2 xil bo'ladi: qutubsiz va qutubli kovalent bog'lanishlar.

Elektromanfiylik qiymati jihatidan o'zaro teng bo'lgan element atomlari o'rtasida vujudga kelgan bog'lanish qutbsiz kovalent bog'la- nish deyiladi. Qutbsiz kovalent bog'lanish asosan bir xil atomlar orasi- da vujudga keladi. Bunda umumlashgan elektron jufti xech qaysi atom tomon siljimagan bo'ladi, chunki har ikkala atomning o'ziga elektron- ni tortish qobiliyati, ya'ni elektromanfiyligi bir xil bo'ladi.

Kovalent bog'lanishning bu turini bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Har birida bittadan elektron bo'lgan ikki vodorod atomi o'za- ro yaqinlashganda vodorod molekulasini (H) hosil qiladi  Bu jarayon quyidagicha ifoda qilinadi:

Har qaysi atomning umumiy juft uchun beradigan elektroni sxe- mada nuqta bilan tasvirlangan. Vodorod molekulasida bir juft elektron ikki yadro orasida joylashishi natijasida barqaror konfiguratsiya hosil bo'lishga olib keladi. Bunda atomlar o'rtasida hosil bo'lgan umumlash- gan elektron juftlik har ikkala atom yadrolaridan bir xil uzoqlikda joyla- shadi. Shuningdek, qutbsiz kovalent bog'lanishli moddalarga, vodorod bilan birga O, C, N, singari oddiy moddalarni hamda ayrim murakkab moddalari CH, CS, misol qilib keltirish mumkin.

Elektromanfiylik qiymatlari jihatidan bir-biridan oz farq qiladigan element atomlari orasida vujudga kelgan bog'lanish qutbli kovalent bog'lanish deyiladi. Kovalent bog'lanishning bu turini ham bir necha moddalarda kuzatish mumkin. Vodorod xlorid molekulasining hosil bo'lishi, bog'lanishning bu turiga yaqqol misol bo'lishi mumkin.

Bunda atomlar o'rtasida hosil bo'lgan umumlashgan elektron juft- lik elektromanfiyligi kuchliroq element ya'ni xlor atomi tomon siljigan bo'ladi, natijada molekulani bir tomonida musbat qutb, ikkinchi tomonida manfiy qutb (dipol) vujudga keladi. Molekula qutbli bo'ladi.

Kovalent bog'lanishlar elektrmanfiyligi bir xil yoki bir biridan juda oz miqdorda farq qiladigan atomlar orasida hosil bo'ladi. Masalan, vodorod atomlarining o'zaro birikishi natijasida H2— vodorod molekulasining hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz

Atomlarning umumiy elektron juftlari vositasida bog'lanishi kovalent bog'lanish deyiladi. Elektrmanfiyligi bir xil bo'lgan atomlar orasida umumiy elektron juftlari hosil bo'lishi hisobiga vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish qutbsiz kovalent bog'lanish deyiladi. Elektrmanfiyliklari bir-biridan biroz farq qiladigan atomlar orasida hosil  bo'lgan kimyoviy bog'lanish qutbli kovalent bog'lanish deyiladi.

Kimyoviy bog'lanish nazariyasi hozirchi zamon kimyosining asosiy muammolaridan biridir ushbu maqolamda maktab va oliy talim muassasalari darsliklaridan foydalanib ushbu mavzuni birlashtira oldim deb hisoblayman

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kimyoning zamonavoy muammolari Shu.Akadifova D.S.Rahmonova S.R.Razzoqova J.N.Todjiyev
2. M.T.Abdulayev O.K.Ergashev B.A.Hayitov, kimyo
3. Sh.X.Shomurotova F.A. Djumayeva I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboyev, K. G'opirov, kimyo 8-sinf.

# CHUST MADANIYATI ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI

***Ra'no Ergasheva Muzaffarbek qizi***

*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy qismidagi ko'plab yodgorliklarni o'z ichiga olgan Chust madaniyatining o'rganilish tarixi tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *"Chust madaniyati", dehqonchilik manzilgohi, ilk shaharsozlik, Dalvarzintepa, Ashqoltepa, guldor sopol, yerto'la, dafn marosimlari.*

***Abstract:*** *This article analyzes the history of the study of the Chust culture, which includes many monuments in the northeastern part of the Ferghana Valley.*

***Keywords:*** *"Chust culture", farming settelement, first urban planning, Dalvarzintepa, Ashqoltepa, flower pot, basement, funeral rites.*

***Аннотатция:*** *В данной статье анализируется история изучения Чустской культуры, включающей множество памятников северо-восточной части Ферганской долины.*

***Ключевые слова:*** *Чустская культура, фермерское поселение, первое городское планирование, Дальварзинтепа, Ашкалтепа, цветочный горшок, подвал, похоронные обряды.*

## KIRISH

Farg'ona vodiysi azaldan o'zining betakror tabiati, unumdor tuprog'i-yu hayvonot olami bilan barchani o'ziga jalb etib kelgan. Qulay iqlim sharoiti ushbu hududda yashovchi insonlarning o'troq turmush tarziga o'tishiga ajoyib bir sabab

bo'lgan. O'troq turmush tarzi odamlarning xo'jaligini ham o'ziga moslashtirdi. O'troqlarga xos bo'lgan dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik vodiy aholisini ham o'z sohasida yetakchi bo'lishga undadi. Farg'ona vodiysida bronza davri tarixiy tarqqiyotga ega bo'lib, unda arxaik elementlar uzoq muddat davomida saqlanib qolgan. Vaqtlar o'tib bunday ajoyib va so'lim vodiyga rus arxeologlarining qiziqishlari kuchaydi. 1885-yil fevral oyida N. I. Veselovskiy, !930, !933-1934-yillarda B. A. Latinin rahbarligida keng ko'lamda qidiruv va qazuv ishlari olib borildi. Vodiy hududida hozirgi kunda ham katta miqyosda ekspeditsiyalar o'tkazib kelinmoqda.

2019-yil 4-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash tog'risida"gi 846-sonli Qarorida Farg'ona vodiysidagi yodgorliklarning 301 tadan ko'proq qismida qidiruv ishlari amalga oshirilishi kerakligi haqida ma'lumotlar bor. Bu yodgorliklar orasidan Chust madaniyati ham joy olgan.

**TADQIQOT**

Chust madaniyati – Farg'ona vodiysining mil.avv. 2-ming yillikning oxirgi choragi – 1-ming yillik boshlaridagi ko'hna dehqonchilik manzilgohi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham dastlabki aholi Qoradaryoning qadimgi deltasida joylashgan va bu an'ana boshqa yodgorliklarda ham kuzatilgan. Xuddi shunday dehqonchilik qarorgohlaridan biri bundan 4500-4400 yillar avval Chust shahrining shimolida G'ovasoyning irmoqlaridan biri Chustsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan Buvanamozor (Bibi ona) yodgorligidir. Mil.avv. 2-mingyillikning ikkinchi yarmida bunday manzilgohlar o'rnida ilk shahar tipidagi qarorgoh (protoshaharlar) tashkil topgan [1. B – 17]. Chust madaniyatining tarkibiga kirgan boshqa yodgorliklarida esa taxminan 2700-2900 yil muqaddam shaharsozlikning dastlabki bosqichlari shakllana boshlagan.

Qadimgi Chustliklar hayotida 3 ta xo'jalik tarmog'i o'ziga xos o'rin egallagan: dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik. Dehqonchilikda, asosan, boshoqli o'simliklar ekilgan. Yerga ishlov berish va hosilni yig'ishtirib olishda qadimgi Chust madaniyati sohiblari, asosan, har xil tosh va bronzadan yasalgan qurollardan foydalanganlar. Qazishmalar vaqtida bu yerdan jez pichoqlar, bigizlar, metalga ishlov berishda ishlatilgan tosh qoliplar, to'qimachilikda qo'llaniladigan suyakdan

yasalgan taroqsimon asboblar hamda minglab sopollarning topilishi hunarmandchilik sohasining ko'p tarmoqli ekanligidan guvohlik bergan.

Ilk shaharsozlik madaniyati deb tilga olingan Chustning tarkibidagi yodgorliklar davriy jihatdan ikkiga bo’linadi:

1-bosqich – mil.avv. XII-IX asrlar;

2-bosqich – mil.avv. VIII-VII asrlar bilan sanaladi [2. B – 112].

Chust madaniyati yodgorliklari tarkibiga kiruvchi asosiy katta manzilgohlar Dalvarzintepa, Chust, Ashqoltepa Farg’ona vodiysidagi o’zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi yodgorliklar xisoblanadi. Aynan, Dalvarzintepa va Chustning atrofi mudofaa devori bilan o’rab olingan bo’lib, ulardan hukmdor yashaydigan ark ajralib turadi.

1933-1934-yillarda B. A. Latinin Eylaton manzilgohini tekshirish jarayonida ilk marotaba Chust madaniyatiga tegishli bo’lgan naqshli sopollarni aniqlagan. Keyinchalik, 1939-yilda T. G. Obulduyeva ham huddi shunday sopollarni topgan. Tadqiqotlar natijasiga ko’ra, Chust madaniyatida 3 xil turdagi yashash joylari kavlangan:

1. Chaylaga o’xshash yengil uylar;
2. Yerto’lalar;
3. G’ishtpaxsadan qilingan uylar.

1950-yili Toshkentlik arxeologlar M. E. Voronets va V. I. Sprishevskiylar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidagi Buonamozor yodgorligi aniqlanadi. 1952-yilda Yu. A. Zadneprovskiy Dalvarzin yodgorligini topgan. Manzilgoh boshqalaridan farqli o’laroq 4 qismdan iborat bo’lib, ularning 3 ta qismi mudofaa devori bilan o’rab olingan. Ark hududning shimoli-g’arbida bo’lib, maydoni 2,2 ga. joyda joylashganligi aniqlangan. 1953-1961-yillarda V.I. Sprishevskiy Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan [3. B – 170]. Olim tomonidan 136 ta butun saqlangan arxeologik idish va 2000 ga yaqin turli buyum parchalari topilgan.

Keyingi yillardagi qidiruv ishlarida Sank-Peterburglik olim Yu. A. Zadneprovskiyning xizmatlari katta bo’lgan. Chust madaniyati arxeologik qazishmalarida Yu. A. Zadneprovskiy va uning shogirdlari 30 yil davomida izlanishlar olib borgan. Bu ekspeditsiyada guldor sopol buyumlar topilgan. Ular

asosan, qo'lda ishlangan, sirti qizil bo'yoq bilan sayqallangan va qora rangda turli geometrik chiziqlar bilan naqshlangan [4. B – 27]. Bunday turdagi guldor sopollarning mavjudligi manzilgohda kulolchilik sohasining ham keng taraqqiy etganini belgilaydi. Idishlarning shakli xilma xil bo'lib, ular asosan tovoq, ko'za, xumcha, tuvak, qozonlardan iborat bo'lgan.

1982-1984-yillarda olib borilgan qazuv ishlarida Buvanamozor yonidagi xarobaning janubi-g'arbiy qismlarida 500 kvadrat metrdan oshiq maydon o'rganildi. Shimoliy qismida 1,5 metr kenglikda 200 kvadrat maydonda madaniy qatlamlar ochildi. Bu yerda ikki qurilish gorizontida 44 ta xo'jalik o'ra-omborlari topildi. Janubiy qismida 300 kvadrat metr maydonda o'tkazilgan qazilmalar vaqtida 80 ta chuqur omborlar aniqlandi [5. B – 14].

Buvanamozordagi tadqiqotlar vaqtida manzilgohning markaziy qismidan 4 ta qabr topilgan. Bu yerdan hammasi bo'lib 21 ta odamning jasad-qoldiqlari aniqlangan.

Chust madaniyati aholisi marhumlarni o'zlari yashab turgan joyga yakka yoki ko'pchilik qilib g'ujanal holda yon tomoni bilan dafn etishgan. Balog'atga yegan ayol chap yonboshi bilan, boshi janubi-g'arb tomonga qaratilgan xolda qabrga qo'yilgan. Faqat Dalvarzintepadan odamning suyagi va kallasi alohida ko'milganligi aniqlangan. Bulardan tashqari, uy hayvonlari ham ba'zida odam suyaklari bilan birgalikda dafn etilgan.

Chust madaniyatidagi qidiruv ishlari faqat Buvanamozor yodgorligi bilangina cheklanib qolmay, yon-atrofidagi Varzik, G'ova, Qoraqo'rg'on kabi hududlarda joylashgan Shox, Chimbiysoy, Qo'chqor ota va Qizil ariq kabi qadimiy qabristonlarda ham 1983-1989-yillarda tadqiqotlar olib borilgan. Varzik qishlog'i hududida 1986-yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mug'xonalarni o'rganish davomida birinchi bor xajmi 13 millimetrdan iborat bo'lgan, misdan ishlangan kichik tangasimon topilma aniqlanadi. Ushbu brakteatda inson boshining tasviri berilgan [5. B – 15-16]. S. R. Baratov va S. Baratovalarning "O'zbekitonda ijtimoiy fanlar" jurnalining 1990-yilgi 1-sonida "Varzikdan topilgan ajoyib brakteat" maqolasi e'lon qilingan. Qayrag'och arxeologiya manbasidan topilgan ko'zadagi surat bilan brakteatdagi surat o'rtasida ma'lum darajada

o'xshashlik borligi tufayli, brakteat qadimiy sharqda yasalgani va yunon-baqtriya usulidan foydalanilganligini taxmin qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida Chust madaniyati yodgorliklari, xususan, Farg'ona vodiysi davlatchiligi va urbanistik jarayon masalalari bo'yicha Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining B. X. Matboboyev boshchiligidagi ekspeditsiyasi tadqiqot ishlari olib borgan. Olimning tadqiqotlari natijasida turar-joy xarobalarini o'rganish natijalarini umumlashtirdi va shu izlanishlar asosida shaharning qadimgi va o'rta asrlar davridagi rivojlanish tarixi, shaharning tuzilishi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar e'lon qilindi.

Avvalgi tadqiqotlarda "Chust madaniyati shimoliy, shimoli-g'arbiy o'lkalarga, Burganli madaniyatiga ham ta'sir etgan" degan fikrlar ilgari surilgan bo'lsa, hozirgi tadqiqotlarda esa Burganli madaniyatining Farg'ona vodiysining shimoli, shimoli-sharqiy hududlariga, Chust madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan, degan yangi g'oyalar ilgari surilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Chust madaniyatidagi qazishma ishlarini O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar rus arxeolog olimlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng qidiruv ishlarida o'zbek arxeologlari yetakchilikni o'z qo'liga oldilar. Xususan A. Asqarov va B. Matboboyevlar manzilgohdan 600 dan ortiq mehnat va ishlab chiqarish qurollarini topadilar. Aholining irqiy jihatdan yevropoid irqiga mansub bo'lib, andronova tipiga o'tayotgan davrga mansubligini ham o'zbek antropologlari T. K. Xo'jayev va V. Y. Zezekovalar o'z tadqiqotlari natijasida aniqlagan.

Tadqiqot natijalari madaniyatda shaharsozlik misli ko'rilmagan darajada rivojlanganli haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Dalvarzintepa yodgorligida olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin:

1. Dalvarzintepaning maydoni 25 ga. bo'lib, bu o'lcham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasi hisoblanadi.
2. Ko'xna shaharda murakkab rejaviy tuzilish, uchga bo'lingan tarkibiy qism hamda ark mavjud.
3. Yodgorlikda mukammal mudofaa tartibi mavjud bo'lib, shaharning har bir qismi alohida himoyalangan edi. Bular orasida arkka alohida e'tibor berilib, u ancha puxta o'ylangan reja asosida mudofaa etilgan.

4. Dalvarzintepada hunarmandchilikning turli soxalari – kulolchilik, metal, tosh va suyakka ishlov berish kabilar yaxshi rivojlangan.

Yuqorida keltirib o’tilgan belgilar shahar ko’rinishidagi yodgorlik deb ta’riflash uchun yetarli asos bo’lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda esa Chust madaniyatining Bibi ona yodgorligida qidiruv va qazuv ishlari Namangan davlat universitetining o’qituvchi va talabalari bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Madaniyat o’z tarkibiga 80 dan ortiq yodgorliklarni olgani uchun, hamma manzilgohlarda keng ko’lamda qidiruv ishlari olib borish biroz murakkablik tug’dirishi mumkin. Shuning uchun ham avval, avval, bir yodgorlik to’liq o’rganilib bo’lgandan so’ng keyingi yodgorlik o’rganilyapdi. Buning yaxshi tomonlaridan biri, yodgorliklardagi tadqiqot natijalari solishtirilib, yanada aniq ma’lumotlar yosh arxeologlarga va xalqqa bayon etilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorboyev A. Farg’onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o’rni. “FAN”. T – 2022. B – 139.
2. Eshov B. Qadimgi O’rta Osiyo shaharlari tarixi. “Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti”. T – 2006. B – 236.
3. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. T – 2000. B – 190.
4. Заднепровский. Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М – 1962. С – 330.
5. Najmiddin Fazliddin o’g’li Muhammad Hakim Jo’raxon Muhammad Xofiz o’g’li. Chust tarixi. Chust shahri – 1995. B – 170.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Chust_madaniyati
7. https://www.academy.uz/uz/news/2021-yilda-olib-borilgan-arxeologik-tadqiqotlar-hisobot-sessiyasi-qizildara-hududida-2000-ga-yaqin-qoyatosh-rasmlari-aniqlandi
8. https://newjournal.org/index.php/01/article/view/13894
9. https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/download/1950/1385/2889

# BOLALARDA NUTQ BUZLISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

***Sabrina Nazarova***
*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada insonlarda, shuningdek, bolalarda nutq buzilishining o'ziga xos juhatlari xususida so'z yuritiladi. Qayd etib o'tish lozimki, insonlarda va bolalarda kuzatiladigan nutq buzilishlarining ayrim ko'rinishlari oddiy holat kabi tuyulsa-da, lekin ular jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu kabi uchraydigan nutq buzilishlarini o'z vaqtida bartaraf etish ularning kelgusida jiddiy kasallikka aylanmasligi uchun asos vazifasini o'taydi.*

***Tayanch so'zlar va birikmalar:*** *nutq buzilishi, nutq rivojlanishi, alaliya, dislaliya, dizartriya, afaziya, duduqlanish, apraksiya, agrafiya, abuliya kasalligi.*

***Annotation:*** *This article about specific aspects of speech disorders in people and children. It should be noted that some forms of speech disorders observed in people and children may seem normal, but they have a serious effect. Timely elimination of such speech disorders serves as a basis for preventing them from becoming a serious disease in the future.*

***Key words and phrases:****speech disorder, speech development, alalia, dyslalia, dysarthria, aphasia, stuttering, apraxsia, agraphia, abulia.*

***Аннотация:*** *В данной статье говорится об отдельных аспектах речевых нарушений у людей и детей. Следует отметить, что некоторые формы речевых нарушений, наблюдаемые у людей и детей, могут показаться нормальными, однако они имеют серьезные последствия. Своевременное предотподобных речевых нарушений служит основной предотвращения их превращения в серьезное заболевания в будущем.*

***Слова и фразы:*** *нарушение речи, речевое развитие, алалия, дислалия, дизартрия, афазия, заикание, апраксия, аграфия, абулия.*

Amaldagi barcha harakatlarimiz kommunikativdir. Imo-ishoralar,yuzlar, tovushlar, hidlar va hatto masofalar boshqalarning harakatlari, motivlari va fikrlari to'g'risida ma'lumot olish uchun ishlatilgan. Hatto harakatlarning yo'qligi

ham nimadir haqida dalolat beradi. Biroq, yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, inson uchun yana bir element,ya'ni ramziy ma'noga ega. Ushbu ramziy element nutq orqali ifoda etiladigan tildir. Nutqning shakllanishi insonning umumiy rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biridir. Oddiy rivojlanayotgan bolalar o'z ona tilini yaxshi o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Nutq bola va uning atrofidagi dunyo o'rtasidagi muhim aloqa vositasiga,faqat odamlarga xos bo'lgan muloqotning eng mukammal shakliga aylanadi.

Kasalliklarning insonlarga, shuningdek, bolalarning nutqiga ta'siri juda katta. Shulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz:

***Alaliya kasalligi***–bolalardagi nutq buzilishi oid kasallik. Bolaning nutqiy buzilishida miyaningnutqni shakllantirish qismi buzilganligi bilan namoyon bo'ladi, bu holatda bola unga qarata aytilgan so'zlarni tushunish ko'nikmasiga ega, biroq bolada qo'shma tovushlarni talaffuz qilish bilan muammolar mavjud bo'ladi. Alaliyada bola nutq irod qilish jarayonida nutq hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolarining harakatini nazorat qila olmaydi, oqibatda, tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi sodir bo'ladi[1]. Boladagi mavjud alaliya kasalligini o'z vaqtida davolamasa, bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazish, ya'ni ushbu kasallik bilan kasallangan bola vaqtlar o'tgach gapirishga nisbatan xohishi kamayishi, ya'ni umuman gapirishni istamay qolishi mumkin; duduqlanish; disgrafiya (yozishning buzilishi) va disleksiya ( o'qishning buzilishi) .

***Dislaliya kasalligi*** –nutq buzilishlari orasida eng ko'p tarqalgan kamchilik. Dislaliya grekcha so'zdan olingan bo'lib, " dis " – buzilish, "laliya" - nutq degan ma'nolarni anglatadi.Bu artikulyatsion apparat a'zolari normal innervatsiyasida yuzaga kelgan logopatsiya sanaladi. Asosan, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va fonematik idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladigan yengil nutq nuqsonidir.

***Dizartriya kasalligi*** –bu artikulyatsion apparat a'zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Falajlanish, asosan, bir tarafdan, chap yoki o'ng tarafdan bo'ladi. Bola tili, shuningdek, paretik falajlangan bo'shashgan yoki spastik, ya'ni tarang falajlanishda bo'ladi. Bu degani miyaning

shikastlanishi odamning yuzi, lablari, tili, tomog'i yoki ko'krak qafasidagi mushaklar kuchsizligiga sabab bo'lganda bu kasallik paydo bo'ladi. Tananing bu qismlarida mushaklar kuchsizligi gapirishni juda ham qiyinlashtirishi mumkin[2].

Dizartriya bilan og'rigan odamlarda quyidagi alomatlar paydo bo'lishi mumkin: xiralashgan nutq; ming'irlash; juda sekin yoki juda tez gapirish; yumshoq yoki sokin nutq; og'iz yoki tilni harakatlantirishda qiyinchilik.

***Afaziya kasalligi*** – bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida shakllangan nutqning yo'qolishi. Bolalar afaziyasi tajribada kam uchraydi. Bu kasallik, asosan, insultdan keyin paydo bo'ladi. Bolalarda esa miya infeksiyalari, miya rivojlanishi davrida turli xil kuchli travmalar natijasida yuzaga keladi. Bu bizning nutqimizga, shuningdek, og'zaki va yozma tilni yozish va tushunishimizga ta'sir qilishi mumkin.

Afaziya bilan og'rigan odamlarda quyidagi holatlar kuzatiladi: qisqa yoki to'liq bo'lmagan gaplarbilan gapiradi; ma'nosiz holda, ya'ni tushunarsiz gapiradi; bir so'zni boshqasiga yoki bir tovushni boshqasiga almashtirib gapiradi; so'z ropishda qiynaladi; boshqalarning suhbatini tushunmaydi: o'qiganlarini tushunmaydi.

***Duduqlanish***–bu og'zaki nutq jarayonida artikulyatsion apparat a'zolari muskullarining tortishishi sababli og'zaki nutqning tempritmik o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Duduqlanish nutq oqimini to'xtatuvchi nutq buzilishini anglatadi. Ushbu nutq buzilishi bilan og'rigan odamlar quyidagi o'zgarishlarni boshdan kechirishlari mumkin: takrorlashlar, ya'ni odamlar tovushlar, unlilar yoki so'zlarni beixtiyor takrorlaganda sodir bo'ladi; **Blocklar** odamlar nima demoqchi ekanligini bilsalar-da, lekin kerakli nutq tovushlarini chiqarishda qiynalganda yuzaga keladi; uzaytirishlar, ya'ni muayyan tovush yoki so'zlarni cho'zishni anglatadi.

Duduqlanish belgilari vaziyatga qarab farq qilishi mumkin. Stress, hayajon yoki umidsizlik duduqlanishning kuchayishiga olib keladi. Duduqlanish o'z vaqtida bartaraf etilmasa, odamning yoki bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Ular o'z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi natijasida tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmaydi.

***Apraksiya.*** Miya odamlarning har bir harakatini, shu jumladan, gapirishni ham boshqaradi. Miyaning nutqdagi ishtirokining aksariyati ongsiz va avtomatikdir. Biror kishi gapirishga qaror qilganda, miya nutqni ishlab chiqarish uchun birgalikda ishlaydigan tananing turli tuzilmalariga signallar yuboradi. Miya bu tuzilmalarga tegishli tovushlarni hosil qilish uchun qanday va qachon harakat qilishni buyuradi. Masalan, bu nutq signallari ovoz paychalarini ochadi yoki yopadi, tilni harakatga keltiradi va lablarni shakllantiradi, tomoq va og'iz orqali havo harakatini boshqaradi[3].

Apraksiya – bu odamning motor skills– vosita qobiliyatini buzadigan miya shikastlanishiga ishora qiluvchi nutq nuqsoni va u tananing har qanday qismiga ta'sir qilishi mumkin. Nutq apraksiyasi, xususan, shaxsnjng nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi vosita qobiliyatlarining buzilishi anglatadi.

***Abuliya kasalligi*** - bu ham keng tarqalgan nutq kasalligi. Hozirgi vaqtda abuliya mutaxassislar tomonidan alohida kasallik sifatida qaralmaydi[4]. Abuliyani motivatsiyaning buzilishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga urinishlar mavjud. Abuliya quyidagi alomatlar bilan tavsiflanadi: maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni boshlash va davom ettirishning qiyinligi; kutilmagan harakatlar va imo-ishoralarning kamligi yoki yetishmasligi; sekin fikrlash va haraktlanish; nutqning yetishmasligi, undagi qo'shimcha elementlarning yo'qligi; passivlik.

***Agrafiya kasalligi*** - ( yunoncha, a – inkor qo'shimchasi va graphio – yozaman) yozish qobiliyatidan kelib chiqadigan nutqning buzilishi. Bosh miya chap yarimsharidagi chekka yoki tepa-chekka qismining rivojlanmay qolishi yoki zararlanishi oqibatida yuzaga keladi[5]. Odatda, afaziya bilan birgalikda kechadi. Agrafiyada bemor so'zda harflarni qo'shib o'qish qobiliyatini yo'qotadi va yozganda bo'g'inlar o'rnini almashtirib qo'yadi yoki bo'g'inlarni umuman tushirib qoldiradi.

Xulosa sifatida aytafdigan bo'lsak, nutq buzilishi odamning so'zlarni yaratadigan tovushlarni chiqarish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Ular til kasalliklari bilan bir xil emas, bu odamlarga so'zlarni o'rganishni yoki boshqalar ularga nima deyayotganini tushunishda qiyinlashtiradi va bu insonning o'zini o'zi qadrlashiga va uning umumiy hayot sifatiga ta'sir etadi.

Bu buzilishlarning kelib chiqish sabablarida, asosan, bosh miya shikastlanishi, nevrologik va psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Bunday muammolar bilan duch kelgan har bir shaxsga mutaxassis tibbiy yordamini olish tavsiya etiladi. Umuman olganda, nutq – inson hayotidagi eng muhim jarayonlardan biri bo'lib, uning buzilishi insonning kundalik hayoti, Ijtimoiy muloqoti va professional faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu muammoning oldini olish va davolash dolzarb masala hisoblanadi.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA YUZAGA KELADIGAN NUTQIY KAMCHILIK VA NUQSONLAR HAMDA ULARNI OLDINI OLISH VOSITALARI

***Jahongirova Muslima Nasimxon qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

***Annotatsiya:*** *ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga keladigan lingvistik –uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy, nutqiy xatolar hamda bolalar nutqini o'stirish haqida fikrlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *nutqiy xato, lingvistik- uslubiy xato, morfologik-uslubiy xato, sintaktik-uslubiy xato, adabiy me'yor, imlo, xatolar ustida ishlash.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлены представления о лингвометодических, морфолого-методических, синтаксико-методических, речевых ошибках, возникающих у учащихся начальных классов, а также о развитии речи детей.*

***Ключевые слова:*** *речевая ошибка, лингвометодическая ошибка, морфолого-методическая ошибка, синтаксико-методическая ошибка, литературная норма, орфография, работа над ошибками.*

***Annotation:*** *This article provides ideas on the linguistic-methodological, morphological- as well as the development of children's speech.*

***Keywords:*** *speech error, linguistic-methodological error, morphological-methodological error, syntactic-methodological error, literary norm, spelling, work on errors.*

Barchamizga ma'lumki, ona tili millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytib o'tganlaridek "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir". Shu ma'noda dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat avvalombor o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab avaylashga intiladi. Hozirgi kun yosh avlodlarini hayotga qadam qo'ya boshlagan paytidan boshlab tilga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga, til birliklaridan o'rinli foydalana olishga o'rgatib borishimiz zarur. Til orqali insonning ichki dunyosi, ma'naviy qiyofasi, xulq-atvori, muomalasi, odob-axloqi, madaniyati namoyon bo'ladi. Kimning tili boy bo'lsa so'zlarni adabiy til asosida to'g'ri, ifodali, aniq, ravon talaffuz qila olsa, o'z ona tiliga chuqur hurmat ehtirom bilan qarasa, u bilimli sanalib kishilar o'rtasida hurmat qozonadi.

Nutqni rivojlantirishga tayyorgarlik davrida, bolaning birinchi yoshlarida, kattalar bilan to'g'ridan-to'g'ri hissiy aloqa jarayonida kelajakdagi izchil nutqning asoslari yaratiladi.Shu o'rinda oramizda so'zlarni to'g'ri qo'llay olmaydigan, tili qashshoq, so'zlari qovushmagan, o'z fikrini ravon ifodalay olmaydigan yoshlar ham uchrab turadi. Ana shunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun bolalarni kitobga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, badiiy adabiyotga qiziqtirishimiz lozim. Zero ko'p o'qish yuksak madaniyatlilikni, go'zal va ta'sirchan tilga ega bo'lishni ta'minlaydi. Har qanday muloqotning asosida to'g'ri tuzilgan nutq yotadi. Nutqni to'g'ri tuzush uchun uchun esa o'quvchilardan ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Nutq ishtirokchilarining to'gri nutq tuzish malakalarini boshlang'ich sinflardan shakllantira borish lozim, bu jarayonda sintaksisning o'rni katta albatta.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari nutqiy xatolarni bartaraf etish maqsadida sinfda nutqiy muhitni yaratishlari, ya'ni, dars mashg'ulotlarida va undan tashqari jarayonlarda ham adabiy tilning orfoepik me'yorlariga rioya qilib o'quvchilardan ham shuni talab qilishlari kerak.

Nutqiy xatolar uch turga bo'linadi:

1. Lingvistik- uslubiy.
2. Morfologik-uslubiy.

3. Sintaktik uslubiy.[1]

Boshlang'ich sinflarda so'zlarni notog'ri qo'llash bilan bog'liq xatolar ko'p uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchilarning so'z boyligi kamligi, sinonimlarni bilmasligi, takror kelgan so'zlar o'rnida olmoshlardan foydalana olmasligi oqibatida bir so'zni takror-takror qo'llash.

2. So'z ma'nosini tushunmaslik natijasida uni aniq ma'nosida ishlata olmaslik. Bunday xatolar bolalarning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli vujudga keladi.

So'zlardagi urg'uli bo'g'inlarni kuchli ohangda aytishga o'rgatish ham o'qituvchidan katta bilim va mahorat talab qiladi.

Ushbu gaplarda olma so'zidag urg'uning o'zgarishi natijasida ikki xil ma'no ifodalanishi o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish bilan birga, urguni to'g'ri qo'llash mashqlari so'zni ma'no qirrasini ochib beradi hamda bunday mashqlar bolalarda so'zlarni aniq ma'nosida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

3. Shevaga xos so'zlardan foydalanish. O'quvchilar bunday so'zlarni ota-onalarining nutqi va tashqi muhit ta'sirida qo'llaydilar. Ba'zi sheva vakillari adabiy tildagi ayrim so'zlarni boshqacha so'zlar bilan ifodalaydilar. Qozoqlar bilan birga yashaydigan tumanlarda bolalar nutqida ilon o'rnida jilon, yo'q o'rnida jo'q deb ishlatish hollari, masalan, adabiy tilda opa shevada apka, tom o'rnida uchak(Xorazm shevasi) kabilar kuzatiladi. Bunday hollarda o'qituvchi adbiy tildagi so'zlar va shevaga xos so'zlar bir xil ma'noni ifodalashi, lekin bittasi adabiy orfoepik me'yorlarga mos tushishini singdirib borishi lozim.[2]

Morfologik-uslubiy xatolarga o'zgartiruvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi. Tojiklar bilan yonma-yon yashaydigan joylarda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish yoki jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ishlatiladi. Masalan, shu shaharga yashayman. Ukam yangi maktabga o'qiydi kabi kelishik qo'shimchalarini noto'g'ri qo'llash hollari uchrab turadi.

Sintaktik uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. O'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni to'g'rilash, ularni turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni oldini

olish tizimini ishlab chiqish har bir pedagogning oldiga qo'ygan muhim vazifalaridan biri bo'lishi zarur.[3] O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish kerak. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatoni o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi. Xatoni to'g'rilay olmasa uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, kerakli so'z qo'shiladi, ortiqchasi olib tashlanadi. Rasm asosida matn tuzish mashqlarida o'qituvchi o'quvchilar matnni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi. Matn mazmunidagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'ygan xatoni to'grilash yo'li tushuntiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish darslarida badiiy asarni tahlil qilishga ko'proq ahamiyat berib borish, asar tahlili davomida guruhlar kesimida "Eng yaxshi hikoyachi" musobaqalarini o'tkazish, o'quvchilar nutqini o'stirish bilan birga ravon gapirish malakalarini shakllantirib borish lozim. Ma'lumki, imlo qoidalari asosida yozilgan badiiy asarlar uning g'oyaviy mazmunini tushunishga yordam berish bilan birga nutq madaniyatining tarkib topishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, xalq tilining kuchli va go'zalligidan bahramand etadi. Nutq rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni maxsus ishlab chiqilgan metodikadan foydalangan holda chuqur psixologik-pedagogik o'rganishni tashkil etish, buning natijasida nutqni rivojlantirishning yuqori darajasi sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan guruh bolalarida umumiy nutqning kam rivojlanganligi namoyon bo'lishining o'ziga xos xuxusiyatlarini aniqlashhamda kerakli mashg'ulotlarni olib boorish talab etiladi. Bolalarning qanday bo'lib tug'ilishi uning ota-onasidan bo'lak hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi barkamol shaxs darajasiga yetishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z umrini hayotiy meyorlarga munosib o'tkazishi, avvalo maktabga bog'liq. Vaxolanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakillanadigan boshlang'ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirilib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qosimova K. va b. Ona tili o'qitish metodikasi, - T:, 2009.
2. Asqarova M., Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish, - T:, 2001.
3. Abdurahmonov G`. O`zbek tili grammatikasi.T.: O`qituvchi, 2014.

# MILLIY G'OYADA MA'NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li***

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O'zaro bog'liqlik kuchayib borayotgan dunyoda yaxlit milliy o'ziga xoslikka intilish ko'pincha hayotning ma'naviy va moddiy o'lchovlari o'rtasidagi nozik o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Milliy g'oya shunchaki siyosiy qurilish emas; u umumiy qadriyatlar, e'tiqod va intilishlar bilan shakllangan xalqning jamoaviy ongini qamrab oladi. Ma'naviy va moddiy hayot o'rtasidagi uyg'unlikka erishish aholi orasida aks-sado beradigan va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantiradigan mustahkam milliy o'ziga xoslikni rivojlantirish uchun muhimdir.*

***Kalit so'zlar:*** *Ma'naviy hayot, madaniy meros, axloqiy qadriyatlar, moddiy hayot, qadriyat, umumiy farovonlik, ma'naviy qadriyatlar, uyg'unlik.*

***Аннотация:*** *В этой статье утверждается, что стремление к целостной национальной идентичности во все более взаимосвязанном мире часто предполагает тонкое взаимодействие между духовным и материальным измерениями жизни. Национальная идея – это не просто политическая конструкция; оно охватывает коллективное сознание людей, сформированное общими ценностями, убеждениями и стремлениями. Достижение гармонии между духовной и материальной жизнью важно для развития сильной национальной идентичности, которая находит отклик у населения и способствует социальной сплоченности.*

***Ключевые слова:*** *Духовная жизнь, культурное наследие, нравственные ценности, материальная жизнь, ценности, общее благополучие, духовные ценности, гармония.*

***Abstract:*** *This article argues that the pursuit of a coherent national identity in an increasingly interconnected world often involves a delicate interplay between the spiritual and material dimensions of life. The national idea is not just a political construction; it encompasses the collective consciousness of the people formed by common values, beliefs and aspirations. Achieving harmony between spiritual and material life is important for developing a strong national identity that resonates with the population and promotes social cohesion.*

***Key words:*** *Spiritual life, cultural heritage, moral values, material life, value, general well-being, spiritual values, harmony.*

Milliy g‘oya tushunchasi millatning umumiy intilishlari, qadriyatlari va o‘ziga xosligini o‘zida mujassam etgan. U jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi yetakchi tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy g‘oyani amalga oshirish murakkab jarayon bo‘lib, turli elementlar, jumladan, tarix, madaniyat, iqtisodiyot va boshqaruvni o‘zaro uyg‘unlashtirishni o‘z ichiga oladi.Uning zamirida milliy o‘zlikni anglashning ma’naviy jihati umumiy e’tiqodlar, madaniy meros va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. U kishilar va jamoalarni kundalik hayotida boshqaradigan axloqiy asosni o‘z ichiga oladi. Din, falsafa yoki madaniy an’analar orqali ifodalangan ma’naviyat maqsad va tegishlilik hissini ta’minlaydi. U o‘tmish bilan bog‘lanishni kuchaytiradi, odamlarni ularning tarixi va madaniy hikoyalarida asoslaydi.

Ko‘pgina madaniyatlarda ma’naviy hayot rahm-shafqat, adolat va halollik kabi fazilatlarni rag‘batlantiradi. Bu qadriyatlar odamlar bir-biri uchun mas’uliyatni his qiladigan yaxlit jamiyat qurish uchun juda muhimdir. Kuchli ma’naviy poydevor jamoaviy harakatlarni ilhomlantirib, umumiy farovonlik, ijtimoiy adolat va atrof-muhitni muhofaza qilishni targ‘ib qiluvchi tashabbuslarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday qilib, ma’naviy o‘lchov nafaqat individual hayotni boyitadi, balki jamiyat rishtalari va milliy birlikni mustahkamlaydi.

Millatning ma'naviy jihati uning asosiy qadriyatlari, madaniy merosi va axloqiy tamoyillarini qamrab oladi. Unda xalqning tarixi, diniy e'tiqodi va falsafiy an'analaridan kelib chiqib, uning qalbi aks etadi. Ushbu ma'naviy qadriyatlar moddiy taraqqiyotga intiladigan axloqiy asosni ta'minlaydi, rivojlanish nafaqat boylik toʻplash, balki hayot sifatini oshirish, jamiyatni rivojlantirish va atrof-muhitning yaxlitligini saqlashdan iborat ekanligini ta'minlaydi. Boshqa tomondan, moddiy hayot rivojlanishning aniq jihatlarini - iqtisodiy oʻsishni, texnologik taraqqiyotni, infratuzilmani va mamlakatning umumiy farovonligini oʻz ichiga oladi. Moddiy taraqqiyot orqali xalq turmush darajasini oshirishi, oʻz fuqarolariga ta'lim, sogʻliqni saqlash va imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Biroq, moddiy boylikning oʻzi toʻla va barkamol jamiyatga olib kelmaydi; u ma'naviy farovonlik bilan muvozanatli boʻlishi kerak.

Ma'naviy va moddiy hayot oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, ma'naviy va moddiy hayot oʻrtasidagi uygʻunlik nozik muvozanatdir. Ma'naviy qadriyatlar moddiy taraqqiyotga yoʻl koʻrsatsa, millat barcha fuqarolarga manfaatli boʻlgan barqaror taraqqiyotga erisha oladi. Masalan, adolat va adolatga asoslangan iqtisodiy siyosat tengsizlikni kamaytirishi va ijtimoiy hamjihatlikka yordam berishi mumkin. Xuddi shunday, madaniy va axloqiy mulohazalar texnologik innovatsiyalar bilan birlashtirilganda, bu inson qadr-qimmati va atrof-muhitni hurmat qiladigan yutuqlarga olib kelishi mumkin. Ammo moddiy hayot ma'naviy qadriyatlar hisobiga ketsa, millat ma'naviy tanazzul, ijtimoiy parchalanish, atrof-muhitning tanazzulga uchrashi xavfini tugʻdiradi. Aksincha, moddiy taraqqiyotni hisobga olmasdan, ma'naviy hayotga haddan tashqari urgʻu berilsa, bu turgʻunlik, qashshoqlik va yangilik yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Aksincha, moddiy oʻlchov milliy hayotning iqtisodiy, texnologik va infratuzilmaviy jihatlarini qamrab oladi. U jamiyatni qoʻllab-quvvatlovchi moddiy resurslar va tizimlarni, jumladan sanoat, ta'lim, sogʻliqni saqlash va boshqaruvni aks ettiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyot fuqarolarga oʻsish, barqarorlik va farovonlik imkoniyatlarini taqdim etish uchun zarurdir. Biroq, moddiy muvaffaqiyatga haddan tashqari e'tibor berish jamiyatdagi nomutanosibliklarga, atrof-muhitning buzilishiga va axloqiy asoslarni yoʻqotishiga olib kelishi mumkin.

Moddiy farovonlik o‘z-o‘zidan maqsad emas; bu barcha fuqarolar uchun hayot sifatini oshirish vositasidir. Ma’naviy qadriyatlar bilan muvozanatlashganda, iqtisodiy o‘sish ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlikka erishish vositasiga aylanishi mumkin. Moddiy yuksalishni ham, ma’naviy boyishni ham birinchi o‘ringa qo‘ygan davlat fuqarolarning nafaqat iqtisodiy jihatdan xavfsiz, balki o‘z jamiyati bilan hamohang bo‘ladigan muhitni yaratishi mumkin. Ma’naviy qadriyatlar moddiy intilishlarni bildirsa, jamiyatlar bir-biriga va sayyoraga nisbatan mas’uliyat hissini uyg‘otishi mumkin. Masalan, axloqiy tamoyillar asosida ishlaydigan korxonalar ijtimoiy farovonlikni oshirish bilan birga iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, milliy g‘oyani amalga oshirishda ma’naviy va moddiy hayotning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Aynan shu muvozanat orqali xalq haqiqiy taraqqiyotga erisha oladi - iqtisodiy farovonlik axloqiy yaxlitlik, madaniy boylik va ijtimoiy adolatga mos keladi. Davlatlar zamonaviy dunyo muammolarini yengishda davom etar ekan, bu uyg‘unlikni saqlash taraqqiyot nafaqat boylik, balki barcha fuqarolarning farovonligi va qoniqishini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi. Bu uyg‘unlikni ta’minlashda har bir shaxsning o‘z o‘rni bor. Hayotning ham ma’naviy, ham moddiy tomonlarini qadrlash, jamiyat va milliy taraqqiyotda faol ishtirok etish orqali barchamiz jamiyatning yanada muvozanatli va farovon bo‘lishiga hissa qo‘shishimiz mumkin. Taraqqiyot nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyatlar, balki jamiyatimizning ma’naviy va madaniy salomatligi bilan ham o‘lchanadigan davlat qurishga intilaylik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va farvon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.
2. Ziyomuhammadov B., Ziyomuhammedova S., Qodirova S. Ma’naviyat asoslari. T.: O’zbekiston Milliy etiklopediyasidavlat ilmiy nashriyoti, 2000.
3. M.Hamdamova “Milliy g‘oya asosida uzluksiz ta’lim-tarbiyani rivojlantirish mexanizmlari” (Metodik qo‘llanma) Toshkent 2009-yil
4. M.Imomnazarov “Milliy ma’naviyat bosqichlari” Toshkent-2010 (204-bet.)

**5. Qosimon B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011.**

6. S.H.Nosirxo'jayev, M.F.Lafasov S.A.A'zamxo'jayeva "Ma'naviyat asoslari" Toshkent 2016

7. w.w.w.ziyouz.com kutubxonasi

8. w.w.w.wikipedia.uz

# MUNDARIJA

## I.TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;


| | | |
|---|---|---|
| 1. | **Ta'lim sifatini kvalimetrik monitoring qilish: muammo va yechimlari**<br>*Samadov U.S.* | 3 |
| 2. | **O'quv jarayonida o'zlashtira olmaslik: sabab va oqibatlar**<br>*Ibragimova D.* | 9 |
| 3. | **Ta'limning asosiy muammolari va yechimlari; boshlang'ich ta'limning kishi hayotidagi ahamiyati**<br>*Yuldasheva M.A.* | 16 |
| 4. | **Ingliz tilini kasbga yo'naltirib o'qitish xususiyatlari: tarixi va istiqbollari**<br>*Abdujabborova M.M.* | 23 |
| 5. | **Ona tili ta'limini rivojlantirishda elektron doskalarning o'rni**<br>*Raxmatillayeva E. Z.* | 27 |
| 6. | **Ta'limning dolzarb muammolari va yechimlari**<br>*Mirzayeva Z.A.* | 30 |
| 7. | **Sport meditsinasiniń dene tárbiyasi menen baylanislílíǵí hám rawajlaniw dawirleri**<br>*Qaljanov R.P., Joldasbayev P.M., Omirzaqov O.P.* | 36 |
| 8. | **Ilk o'spirinlikda hayot haqidagi tasavvurlar shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar**<br>*Pazliddinova M.S.* | 46 |


## II. IJTIMOIY PEDAGOGIKA


| | | |
|---|---|---|
| 9. | **Tijorat banklari aktivlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati**<br>*Xolmuradov M.A.* | 52 |
| 10. | **Issues of development of professional competence of future builders-engineers on the basis of foreign languages**<br>*Nabijonova G.* | 62 |
| 11. | **Ta'lim olish sifatini baholashning kvalimetrik tamoyil va usullari**<br>*Samadov U.S.* | 68 |
| 12. | **Kutubxona tizimining mohiyati va uning jamiyatdagi o`rni**<br>*Abdurahmonova N.D.* | 74 |
| 13. | **Atrof-muhitning tabiiy va antropogen yo'llar bilan ifloslanishi**<br>*Tolibayeva D.* | 79 |

14. **O'zbekistonda ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati** 83
*Tolibayeva D.*
15. **Usmon Nosir she'rlari asosida sifat, son, olmosh so'z turkumlarini o'rgatish metodlari** 86
*Ortiqova G.K.*
16. **Shartnomaviy majburiyatlar: sharq mamlakatlarida** 91
*Sultanova Z.A.*
17. **Chemical composition of essential oil in plants** 95
*Tursunbayev H.*
18. **Dashti qipchoq lochinlari (Abulxayrxon va Muhammad Shayboniyxon timsolida)** 98
*Abduvohidova R.*
19. **Bibixonim – tarix sahnasida** 104
*Mamuraliyeva G.I.*
20. **Shartnomaviy majburiyatlar: g'arb mamlakatlarida** 110
*Sultanova Z.A.*

## III. MAXSUS PEDAGOGIKA

21. **Imkoniyati cheklangan bolalar – imkoniyati cheksiz bolalar safida** 116
*Rahimjanova M.*

## IV. ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;

22. **Инновационные технологии на уроках русского языка и литературы** 119
*Бобаева З.М.*
23. **Zamonaviy didaktik vositalarning dars jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati** 129
*Abdurahimova M.O., Dehqanova G.*
24. **Xalqaro baholashning bugungi kundagi yutuq va kamchiliklari** 134
*Tursunboyeva Sh.F.*
25. **Xalqaro va milliy ta'lim tizimida zamonaviy metodikalardan foydalanish afzalliklari** 138
*Nizomiddinova D.X.*
26. **Gulning morfologiyasi, kelib chiqishi. Androsey va Ginesey** 144
*Xakimbekova M.O.*

## V. TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKA


27. **Psixologiyada assertiv xulq tushunchasi** 150
*G'anieva Sh., Oribboyeva D.*
28. **Компонентный состав экстрактов из растений ph. Speciosa, ph. Isochila произорастающих в Узбекистане** 155
*Турсунбаев Х.*
29. **O'quvchilarning qobiliyatlarni rivojlantirishda sharq olimlarining pedagogik qarashlari** 157
*Aliyeva M. J.*
30. **Xorijiy tillarni o'zlashtirishning zamonaviy usullari** 164
*Nizomiddinova D. X.*
31. **Urug'ning unib chiqish xillari hamda o'simtaning rivojlanishi** 166
*Rustamjonova N.T.*
32. **Kimyoviy bog'lanishlar, kovolen bog'lanish** 173
*Rahmonov M.I.*
33. **Chust madaniyati arxeologik yodgorligining o'rganilish tarixi** 177
*Ergasheva R.M.*
34. **Bolalarda nutq buzlishining o'ziga xos jihatlari** 183
*Nazarova S.*
35. **Boshlang'ich sinflarda yuzaga keladigan nutqiy kamchilik va nuqsonlar hamda ularni oldini olish vositalari** 187
*Jahongirova M.N.*
36. **Milliy g'oyada ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi** 191
*Qosimov X.A.*

*“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to’plam sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami ( ISSN): 2992-9008. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 4-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 12-avgust 2024-yildagi 8-sonli kengaytirilgan yig’ilishida muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 08). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**Texnik muharrir: R.Tursunov**

***Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.***

***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** **(**0369) 227-27-21,

***Email***: Info@namspi.uz

***“Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 4-soni***
***199 sahifadan iborat bo’lib, 36 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan.***

***Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o‘zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgan hisoblanadi.***

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2024**